**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TARIX FAKULTETI**

# «Davlat va xuquq nazariyasi, tarixi» fanidan

# MA'RUZA MATNLARI

**JIZZAX - 2007**

**«TASDIQLAYMAN»**

**Jizzax Davlat pedagogika INSTITUTI ilmiy kengashi**

**«____»____________200__y**

**«MA'QULLANGAN»**

**Tarix fakulteti ilmiy kengashi**

**Kengash raisi _________**

**«_____»_____________200__y**

**«TAVSIYA ETILGAN»**

**«Milliy itsiqlol g'oyasi, xuquq va ma'naviyat asoslari » kafedrasi majlisida muxokama qilingan va ma'qullangan**

**Kafedra mudiri____________**

**(majlisining__-sonli bayonnomasi**

**«___» ____________200__y.)**

**Taqrizchilar:**

**f.f.n.G'oziyev S.**

**к.ўқт. Миркомилов А.**

**Tuzuvchi : Kasimova Z.**

## Annotatsiya

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilgandan buyon chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mazkur o'zgarishlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, mafkuraviy, tashqi siyosat soxalarini qamrab olmoqda.

Har bir jamiyatdagi demokratik o'zgarishlar va islohotlar muxim ahamiyatga ega bo'lib, davlatning shu sohadagi muammolarini o'rganish, bir tomondan, O'zbekistonda xuquqiy isloxotlarning yo'nalishlari va mezonlari, qadriyatlari va maqsadlarini aniq belgilashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizda, davlat va xuquq qanday paydo bo'lgan, qanday rivojlangan, uning o'ziga xos xususiyatlari, shakl va ko'rinishlarini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib , davlat va huquq xar qanday davlatning diqqat markazida turadi bu esa, barcha o'qituvchilar va ilmiy xodimlarga zamonaviy qo'llanmalar, ma'ruzalar yaratish kabi vazifalar qo'yadi.

'Davlat va huquq nazariyasi, tarixi' fanidan tayyorlangan ma'ruzalar matnida davlat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati tushunchasi, huquq asoslari nafaqat huquqiy normalar tizimi sifatida, balki kengroq ma'noda huquqiy munosabatlar va huquqbuzarliklar yig'ndisi bilan yoritilgan.

Ma'ruzaning birinchi qismida davlat va huquq nazariyasi predmeti, usullari, davlatning moxiyati, davlat va huquq qachon paydo bo'lgan, davlat mexanizmi, funktsiyalari, va shakllari, huquq tizimi, huquq normasi, huquqbuzarlik va javobgarlik batafsil yoritilgan.

Ma'ruzaning ikkinchi qismida davlat va huquq tarixi, chunonchi, aloxida mamlakatlarda, davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ushbu davlatlarda davlat boshqaruvi, huquq manbalari, tizimi to'g'risidagi mavzular yoritilgan.

«Davlat va huquq nazariyasi, tarixi» fanidan ma'ruzalar matni davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan bo'lib, pedagogika oliy o'quv yurti « M.I.G', xuquq va ma'naviyat asoslari» bakalavriat yo'nalishi talabalariga mo'ljjallangan.

## 1. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING PREDMETI VA USULI.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda davlat va huquq to'g'risida nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Davlat va huquqning vujudga kelishi o'zaro aloqadorligi, shakllanish bosqichlarining zamonaviy masalalari,huquqning jamiyatdagi ahamiyati va hakozalarga ega bo'lish, uni o'z amaliy faoliyatlarida qo'llashga o'rgatish.

**Darsning ko'rgazmasi:** Davlat va huquq nazariyasi usullari, funktsiyalari, kategoriyalari chizmasi.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar: Metod**- ilmiy o'rganish yoli, sotsiologiya, siyosatshunoslik, statistika

**"Ontologiya"-(grekcha so'z) borlih, ta'limot.**

**"Gnoseologiya"(grekcha so'z) bilish degani**

**"Metodologiya" (grekcha so'z) bilish yo'l**

**"Funktsiya" (lotincha) bajarish,vazifa**

**"Evristika"(grekcha) topaman**

**"Kategoriya" (grekcha) guvoh,ta'rif**

**"Analiz"- ajratish, "sintez"-ho'shish.**

**"Statistika"-(lotincha) hisob-kitob**

**"Kibernetika"( (grekcha) boshqarish san'ati**

**"Printsip" (lotincha) asosiy qoida**

**Reja:**

1.Davlat va huquq nazariyasining predmeti.

2.Davlat va huquq nazariyasining usuli.

3.Davlat va huquq nazariyasining ijtimoy fanlar tizimida o'rni.

4.Davlat va huquq nazariyasining funktsiyalari.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muhaddasdir.T., O’zbekiston, 1996,T.,3-8 betlar.
2.KarimovI.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod,siyosat,mafko’ra. T.O’zbekiston, 1993, 74-bet.
3. Azizho’jaev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat.T. 1997.
4. Saidov A.Tajihonov U. Davlat va huquq nazariyasi. T.1 “Adolat” 2001. 8-48 betlar
5. Teoriya gosudarstva i prava M. 1994.
6. Islomov Z. Davlat va huquq nazariyasi. Ma'ru’zalar matni.T.Universitet.2000 y.
7. Karimova O., hafforov Z. Davlat va huquq asoslari T.,O’hituvchi.1995 y.
8. Holmo’minov H.T. Davlat va xuquq nazariyasi. O’huv qo’llanmasi. T. 2000. - 116 b.
9. Najimov M.K, Soburov N. «Davlat : asosiy tushuncha va atamalar». T. 2002 yil.
10.Abdulaev M.I. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik.-SPb.: Piter, 2003. -397 s.
11.Vengerov A.B. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik. – M.: Yurisprudentsiya, 2000. – 528 s.
12.Komarov S.A, Malko A.V. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebno-metodicheskoe posobie; Kratkiy uchebnik dlya vo’zov. – M.: Norma – Infra-M, 2003. – 448 s.
13.Polyakov A.V. Vvedenie v obshuyu teoriyu prava i gosudarstva: Kurs lektsiy. 2000.

## 1. Davlat va huquq nazariyasining predmeti.

Har bir fanni aniqlash uchun bu fanning umumiy fanlar tizimida tutgan o’rni, roli va ahamiyati,o’organiladigan ob'ektini bilish zarur bo’ladi.

Boshqa fanlar hatori «Davlat va xuquq nazariyasi» insonlarning faoliyat doirasini ifodalab beruvchi fan sifatida o’z oldiga shunday vazifani qo’yadi, ya'ni: birinchi navbatda, davlat va xuquq to’g’risidagi hodisalarni, bu hodisalarning jamiyatdagi o’rni xuquqgi fikrlarning ob'ektivligi borasidagi bilimlarni ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan ma'lum bir tizimga solishni ko’zlaydi.

Davlat va xuquq to’g’risidagi ilm - bu davlat-xuquqiy hodisalarning paydo bo’lishi, rivojlanishi va amal qilishini o’organuvchi umum siyosiy-yurudik qonuniyatlar xahidagi bilimlar tizimining yig’indisidir.

Bu fan yuqoridagi hodisalarni to’laligicha o’organadi(ko’zatadi) va shu bilan o’zining fundamental harakteriga ega.

Umuman shuni ta'kidlash mumkin, davlat va xuquq nazariyasi - bu mavjud bo’lgan, zarur, umumiy va mustahkam bog’lh bo’lgan davlat - xuquqiy hodisalarning o’zaro hamda boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog’lhligini ifadolovchi qonuniylik bo’lib bu qonuniylik davlat - xuquqiy hodisalarga va ularning siyosiy - yuridik xususiyatlariga nisbatan sifatli aniqlik kiritadi.

Davlat va xuquq nazariyasi tushunchasi tizimida asosiy nazariy va o’organuvchilak rolini bir muncha umumiy tushunchalar bajaradi. Kelajakda bu tushunchalar kategoriyalar deb yuritilib, bo’larga «davlat mohiyati», «davlatning shakli», «davlatning tipi», «davlatning funktsiyalari», «davlatning mexanizimi», «xuquqning mohiyati», «xuquqning shakli», «xuquqiy munosabatlar», «xuquq tizimi» va xakozolar kiradi.

***Davlat va xuquq nazariyasi*** - *bu davlat va xuquq xuquqiy qarashlar, g’oyalar va bilimlar tizimidir. U davlat va xuquqning paydo bo’lishi, rivojlanishi va barham topishi umumiy qonuniyatlarini o’organadi.*

Davlat va xuquq nazariyasining fanining predmeti bo’lib, jamiyat bilan jamiyat o’rtasidagi ko’p qirrali va murakab harakatlar, jamiyatning siyosiy tizimidagi davlat va xuquqning roli va o’rni xizmat qiladi.

Bu fan nafaqat davlat-xuquqiy hodisalarni va jarayonini o’organibgina qolmasdan, balki ular to’g’risidagi kishilarning tasavurlarini ham o’organadi.

Davlat va xuquq o’zaro mustahkam aloqada bo’lib, bir-birini ifoda etadi, ajralgan holda bo’lmaydi.

Davlat va xuquq normalarni o’organadi, ularning ijrosini taminlaydi; xuquq esa, davlat tizimini, uning funktsiyalarni, kompetentsiyasini mustahkamlaydi va bu bilan u davlatning siyosiy hokimiyatni amalga oshirish uchun aniq ifoda baxsh etadi.

Shuning uchun ham davlat  va xuquq nazariyasi barcha inistitutlar birgalikda olib o’organadi, o’zluksiz bog’lhlikda ko’rib chiqadi, xuquq rivojlanish qonuniyatlarni tahlil qiladi.

Shunday ekan, davlat va xuquq ma'lum ajratilgan ilm (fan) sohalari bo’lib qolmasdan, balki u yagona fandir.

Lekin u yagona fan sifatida hola turib, nisbatan mustaqil bo’lgan ikkita qismga bo’linadi:

- davlat nazariyasi (davlatshunoslik)
- xuquq nazariyasi (xuquqshunoslik)

Davlat va huquq nazariyasini predmeti jamiyatda davlat va huquqning paydo bo’lishi va rivojlanish qonuniyatlarini, mohiyati, shakllari, pritsiplari, funksiyasi, Siyosiy, huquqiy ongni va huquqiy tartibga solishni urgatadi.

Davlat va huquq nazariyasi fani quyidagi hususiyatlarga ega.

***Birinchidan,*** bu fan ijtimoiy fan bo’lib, siyosiy yuridik fandir. Chunki uni o’organadigan sohasi jamiyatda eng muhimi ijtimoiy hodisalar davlat va huquq masalalarini paydo bo’lish va rivojlanish qonuniyatlaridir.

***Ikkinchidan***, bu fan umumnazariy fan, zero u jamyatda davlat va huquqning paydo bo’lish va rivojlanish umumiy qonuniyatlarni ochib beradi.

***Uchinchidan***, bu fan falsafiy hususiyatga ega. Chunki davlat va huquqning paydo bo’lish va rivojlanish qonuniyatlarni falsafaning (dialektik va tarixiy materializm) qonunlariga asosan o’organadi.

***To’rtinchidan*** bu fan amaliyot bilan bo’g’liqdir. Chunki u O’zbekistonda demokratik huquqiy islohatlarni amalga oshirishda nazariy asos bo’lib hizmat qiladi. U shahs jamiyat, davlat va huquqning rolini oshirishda amaliy harekterga ega.

***Beshinchidan,*** bu fan o’kuv - tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki u kishilarning jamiyat, davlat va huquq tuhrisidagi bilimini oshirmasdan, balki ularda huquqiy bilim, huquqiy tarbiya, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Davlat va xuquq nazariyasi davlat va xuquqning rivojlanish qonuniyatlarini barchasini o’organmaydi, balki u faqat umumiy va asosiylarini o’rganadi. Jumladan,bo’larga quyidagilar kiradi:

- Davlat va xuquqning paydo bo’lishi (vujudga kelishi), ularning tarixiy o’rin almashuvi qonuniyatlarini;
- Davlat va xuquqning rivojlanishi mohiyati va mazmunini;

- Davlatning mexanizimi uning ichki va tashqi funktsiyalarni;
- Davlat va xuquqning belgilarini;
- Davlat organlarni hurilish tizimi qonuniyatlarini;
- Demokratiya, qonuniylik, xuquqiy tartibotning umumiy printsiplarini;

xuquqni vazifasi,funktsiyasini hamda xuquqiy tartibga solishning chegaralarini o'organadi.

Jumladan *davlat va xuquq umumiy nazariyasining predmeti bo'lib, davlat - xuquq hodisalarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va amal qilishi xuquqi umumiy qonuniyatlarni tizimini o'organish xisoblanadi.*

***Davlat va xuquq nazariyasi*** - davlat xuquqda o'z ifodasini topgan jamiyat rivojining ob'ektiv qonunlarini ularning ijtimoiy siyosiy maqsadlarini tushuntiradi, ijtimoiy munosabatlarni davlat xuquqiy tartibga solishning va bu munosabatlarning rivojlanish tendentsiyasini tartibga solishning butun bir mexanizimini ochib (ko'rsatib) beradi.

Boshqa fanlar kabi davlat va xuquq nazariyasining predmeti ham o'zgarmasdan holmaydi.

Sotsial (ijtimoiy) tajribadan kelib chhqan holda fan o'z oldiga muhim va zarur vazifalarni o'organishni qo'yadi. Birinchi navbatda quyidagi muammolarni o'organish turadi:

Hokimiyat apparati va boshqaruvni shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini;

Demokratiyani rivojlantirish, vaqillik tizimini shakllantirish yo'llarini;

xuquq tizimini takomillashtirish va qonunchilikni tizimlashning asosini ishlab chiqish, ularning amalda tatbih etlishi yo'llarini;

Davlat va xuquqning ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ta'sir dorasini anihlash va boshqalar;

Xozirgi paytda dunyoning barcha mamlakatlaridagi ijtimoiy siyosiy tarahhiyot davlat va xuquqning roli (o'rni)ni oshib borayotganini haraktirlayodi, ya'ni turlicha ijtimoiy jarayonlarga davlat va xuquqning ta'siri yotarli sezilmohda.

## 2. Davlat va huquq nazariyasining usuli.

Davlat va xuquq naziriyasi hotib holgan (dogmatik) fan bo’lmasidan, balki u doimiy ravishda izlanishda bo’lgan, rivojlanib boruvchi, jonli fandir. U bilish usullari (metodlari)ni yangilab va rivojlantira borib, o’zining asosiy vazifasini bajarishga, davlat - xuquqiy amaliyotda ilmiy mo’ljal bo’lib xizmat qilishga yondasha boradi.

***Shunday qilib, davlat va xuquq naziriyasining usuli (metodi)- ushbu fan tomonidan o’zining predmetini o’organish hamda ilmiy natijalar olish uchun foydalanadigan yo’llar, usullar, yondashishlardir.***

Oxirgi bir necha o’n yillar davomida davlat va xuquq hodisalarini o’organishga yondashishda - markscha-lenincha yondashish gegemonlik qilib qoldi.
Davlat va xuquq to’g’risidagi markscha-lelincha nazariya hahihatni ochib beruvchi eng bosh ob'ektiv fan (ilm) deb tan olinib keladi. Bu esa o’z navbatida boshqa nazariyalar va harashlar (doktrina)ni u yoki bu ko’rinishda tanhid ostiga olib keldi, va natijada, davlat va xuquq to’g’risidagi bilimlarni qashshoqlashtirib, dunyoning siyosiy va xuquqiy sohasidagi ilg’or yutuhlaridan foydalanishga to’sqinlik qiladi.

Bugungi kunda davlat va xuquq naziriyasi uchun oldingi va xozirgi davlat-xuquq xuquqiy bilimlarni baholash va analiz (tahlil) etish uchun konstruktiv-tanhidiy yondashish to’g’riroq bo’ladi.

Davlat va xuquq nazariyasi usullari (metodi) uning predmeti bilan mahkam bog’lhdir.

Agarda fanning predmeti - u nimani o’organadi degan savolga javob bersa, usullari esa qanday o’organilishi yo’llari savoliga javob beradi.

Fanning usuli asosida uning predmeti yotadi, chunki nazariyasiz usul predmetsiz qoladi, fan esa - mazmun va mohiyatsiz.

Nazariya va metod bir paytda paydo bo’ladi, lekin ular bir-birining o’rnini bosa olmaydi.

Davlat va xuquq nazariyasi davlat va xuquq hodisalarini o’organish uchun o’zining shaxsiy usullarini ishlab chiqadi, lekin shu bilan birga ijtimoiy va tabiiy fanlar tomonidan ishlab chiqilgan umumiy usullarni ham faol qo’llaydi.
Fan o’zoh muddat davomida bilishning idealisitik va materialistik usullari bir-biriga harishi ko’rashib keladi (metafizika, dialektika).

*Falsafiy qonun va kategoriyalarga bevosita kirishib (bohlanib) ketadigan usullardan biri-**mavhumlik (abstrakt)dan konkretlikka va konkretlikdan mavhumlikka utish usulidir.***

Jumladan, davlat va xuquq xuquqgi hodisalarni o'organishda *tarixiy usul ham ho'llanadi. Chunki, fan davlat va xuquqning ildizini bilish uchun tarixiy an'analarni bilishi zarur bo'ladi*

Umumiy usul bu falsafiy (dialektik va tarixiy materializm) qonunyatlariga asosan davlat va huquq masalarini o'organishdir. Dialektikaning 3-ta asosiy qonuni bo'lib, ular qarama - qarshiliklar birligi va ko'rashi qonuni, mikdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'tishi va inkorni inkor qilish qonuni ososida davlat va huquqning paydo bo'lish va rivojlanishi o'organiladi.

Falsafiy usulga asosan davlat va huquqni o'organish- bu ijtimoy hodisa, bo'lar boshqa ijtimoiy hodisalar inson bilan jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va mafko'raviy sharoitlari bilan bo'g'liqdir..

***Davlat va xuquqni o'organishning yana bir usuli - tizimli usul*** mavjud, chunki davlat va xuquqning o'zi mohiyatiga, tuzilishiga ko'ra - murakkab tizimiy hodisadir.

*Yuqoridagi usullarning barchasi umum ilmiy usullar jumlasiga kiradi*.

Davlat va xuquq nazariyasining umumilmiy usullari bilan bir hatorda davlat va xuquq tushunchasini anhlashga yordam beruvchi ***xususiy ilmiy usul (metod)lari mavjud. Bu metodlarga quyidagilar kiradi***: formal-mantihiy; formal-yuridik; kiyoslash; davlat va xuquqni modellashtirish; konkret-sotsiologik; sotsial-eksperiment va b.

**Formal-mantihiy usul** - *davlat va xuquq ob'ektining mohiyatini, asosiy mazmunini nazariy formada, abstraktsiya (mavhumlik) va mantihiy qonuniyatlarga asosan o'rganadi.*

**Formal-yuridik usul** - *xuquq nomalarini va umum xuquqni ichki tuzilishini o'rganadi, xuquqning shakllari va manbalarini tahlil qiladi va h. Umuman bu usul davlat va xuquqning tabiyatidan kelib chiqqan holda, u davlat va xuquqning fenomeni*

*(eng nodir hodisa tomonlari)ni ochib berishga, klassifikatsiya qilishga va ma'lum tizimga solishga yordam beradi.*

**Qiyoslash usuli** - *davlat va xuquq xuquqgi hodisa va fikrlarni (harashlarni) kiyoslab o'rganishdir.*

***Davlat va xuquqni madellashtirish usuli*** - *bu usulning mohiyati shundaki, har xil davlat va xuquq hodisalari o'rtasida ma'lum bir uxshashlik mavjud va shuning uchin ham ulardan birining xususiy va belgilarini bilgan holda (modelini), boshqalari xuquq etarlicha fikr yuritsa bo'ladi.*

***Konkret*-sotsiologik usul** - *bu usul yordamida barcha davlat organlarining xuquqiy tartibga solishning, qonuniylik ahvolini, xuquq-tartibotlik to'g'risida, ularning amal qilishning samaraligi xuquq anihlik kiritish mumkin.*

**Sotsiol-*ekspremen*t usuli** - *davlat va xuquqqa doir biror normani qo'llanishning maksadga muvofihligini tajriba (eksperiment) yo'li bilan sinab kurish mumkin.*

### 3.Davlat va huquq nazariyasining ijtimoy fanlar tizimida o'rni va ahamiyati.

Modiy va ma'naviy dunyoning birligi barcha fanlarning birligiga sabab bo'ladi. Bu bog'lhlik aynihsa ijtimoiy fanlar o'rtasida ko'proq seziladi. Ijtimoiy fanlar jamiyatni kishilarni insonlar o'rtasidagi munosabatlarni, insonlar tomonidan yaratilgan institut va tashqilotlarni individuval guruhlarning ijtioiy ongini o'organadi.

Ijtimoiy fanlarning markazida inson uning hururi, xuquqi va erkinligi turadi. Ijtimoiy hayotning ildizi (asosiy) masalasi-davlat va xuquq to'g'risida, uning jamiyat hayotidagi roli va o'rni to'g'risidadir.

Bu masalani barcha ijtimioiy fanlar u yoki bu ko'rinishda o'organadi va bundan davlat va xuquq nazariyasi fanining boshqa fanlar, jumladan, falsada, iq'tisodiy nazariya, sotsiologiya, politologiya va boshqalar bilan mustahkam bog'lhligi ko'rinadi.

Bu fan boshqa (yuqoridagi) fanlarning oldingi (ilhor) yutihlariga tayangan holda, ijtimoiy fanlar tizimida o'z o'rniga egadir.

**Davlat va xuquq nazariyasi va falsafa.** Falsafa bu tabiatning, jamiyatning, fikrlashning umum qonuniyatlari, hayotning va ongning umumiy

printsiplari to’g’risidagi kishilarning atrof-muhitga nisbatan munosabatlari to’g’risidagi bilimlar tizimidir.

Davlat va xuquq nazariyasi falsafa fani bilan juda chukur va mustahkam alohadadir.

Dunyoharashning falsafiy asoslari davlat va xuquq nazariyasi o’rtasidagi bog’lhlik ularning (fanlarning) butun tarixiy hayotida ko’zga tashlanadi.

Falsafiy dunyoharash davlat va xuquq nazariyasini darslik sifatida chuqurrok o’organishga yordam beradi.

Dialektik nuhtai nazardan dunyoni tushunish davlat va xuquqning ichki qarama-qarshiliklarini to’g’ri tushunish va anglashga yo’l ochadi hamda ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etishga yordam beradi.

***Davlat va xuquq nazariyasi va iqtisodiy fanlar***, bilamizki, moddiy ashyolarni ishlab chiqarish usullarini, mulkchilik shakllari, jamiyat va insonlarning, xo’jalik hayotini, undagi amal hiladigan taqsimot munosabatlarini o’organadi va iqtisodiy bazisning ijtimoiy va siyosiy institutlarga ta'sirini ochib beradi.

Davlat va xuquq xuquqgi ilm(fan) quyidagi tezisdan kelib chiqadi:

davlat va xuquq hodisalarini ob'ektiv iqtisodiy shart-sharoitlari avvalambor shu bilan ifodalanadiki, ishlab chiqarishning xizmat ((funktsionak bo’ladiki) qaerda davlat va xuquq mexanizmi yaxshiroq yo’lga qo’yilgan bo’lsa; umuman, rivojlanishning har qanday bo’g’inida iqtisodiy munosabatlarning yaxshi bo’lishi davlat va xuquq institutlaridan to’g’ri qarorlar qabul qilishi talab etiladi; davlat va xuquq, ijtimoiy hayotning boshqa bo’limlaridan ko’ra, iqtisodiy munosabatlar bilan to’g’ridan-to’g’ri, chuqiroq va mustahkamroq bog’liqdir.

***Davlat va xuquq nazariyasi va sotsiologiya.*** Sotsiologiya - ijtimoiy fanlardan bittasi bo’lib, u ijtimoiy hayotni boshqarish va ijtimoiy tizimni amal qilishi muamolarini o’organadi. Shuning uchun ham sotsiologiya, davlat va xuquq orhali birgalikda amalga oshiriladigan boshqaruvlik bilan bog’liqdir.

Sotsiologiyaning ilg’or yutiqlariga, konkret sotsiologiya analiz (ko’zatish)larga tayangan holda davlat va xuquq xuquqgi fan(ilm) xuquq normalarining ijtimoiy

afzalliklarini oshirish muammolarini, davlat apparatining bosh usullari va kafolatlarni mukamallashtirish masalalarini echishga yordam beradi.

***Davlat va xuquq nazariyasi va politologiya.*** Politologiyaning asosiy vazifasi-siyosatni, siyosiy institutlarni, tizim va jarayonlarni o’organish. Davlat va xuquqham jamiyatning siyosiy hayoti va siyosatdan ajralmasdir. Kadimgi greklarning fikricha, siyosat - bu davlatni boshqaruv san'atidir. Siyosiy hokimiyat bilan barcha partiyalar, siyosiy institutlar to’g’ridan yoki yondashgan holda bog’lh, chunonchi ularning barchasi davlat va xuquq bilan faol o’zaro harakatda bo’ladi.

***Davlat va xuquq nazariyasi va ijtimoiy psihologiya.*** Davlat va xuquq insonlarning xulqiga ta'sir etishning maxsus shakl va usullarini o’organar (ko’zatar) ekan, u albatta ijtimoiy hayotning ijtimoiy-psihologik xususiyatlarni chetlab utishi mumkin emas. Jumladan, xuquqiy ongning, xuquqiy ijodkorligining, xuquq mohiyatini hamda ularning barchasini kishilarning ongi, erki va hulhiga ta'sirining samaradorligini oshirishda ijtimoiy psihologik tomonini chuqur va mustahkam o’organmasdan turib ochish (o’organish) mumkin bo’lmaydi.

Davlatshunoslik va xuquqshunoslik ijtimoiy fanlarning yangi yutuhlari bilan boyitishi davlat va xuquq nazariyasi fanining predmeti tabiatini, mohiyatini, qonuniyatini ochib berishga yordam beradi.

***Davlat va xuquq nazariyasining yuridik fanlar tizimida to’tgan o’rni.*** Davlat va xuquq naziriyasini barcha xuquqiy fanlar bilan ho’shib o’organish bu fanning predmeti, roli va ahamiyatini yanada oshiradi.

Barcha yuridik fanlarning o’organish sohasi va umumiy ob'ekti-davlat va xuquqdir.

Har bir xuquqshunoslik fani davlat va xuquq masalasiga o’ziga xos yondashadi, ularning har biri o’zining predmetiga ega.

Yuridik fanlar quydagicha klassifikatsiya qilinadi (tasniflanadi):

- tarixiy-nazariy xuquqiy fanlar (davlat va xuquq nazariyasi, davlat va xuquq tarixi, siyosiy xuquqiy ta'lim, tarixiy va x.)
- maxsus va tarmohli xuquqiy fanlar (fuqarolik xuquqi, jinoyat xuquqi, mexnat xuquqi, ma'muriy xuquq, konstitutsiyaviy xuquq, moliya, er xuquqlari, jinoyat protsessual xuquqi, fuqarolik protsessual xuquqi va boshqalar.)

- amaliy yuridik fanlar (kriminalistika, sud buxgalteriyasi, sud meditsinasi, sud psixiatriyasi)

Davlat va xuquq naziriyasi yuridik fanlar sistemasida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat va xuquq nazariyasi maxsus va xuquqiy anih materiallariga tayanadi, ularni nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Umum va fundamental fan sifatida xuquqshunosning asosiy tushunchalari va hoidalarini, masalan, davlat, xuquq, siyosat, demokratiya, diktatura, qonunchilik va xuquqiy tartibot, xuquqiy ong, xuquqiy munosabat, xuquqbuzarlik va xuquqiy javobgarlik masalalarni ishlab chiqadi va o’organadi. U metodologik fan sifatida boshqa yuridik fanlar uchun xususiy yuridik metod (uslublar)ni va rahbariy printsiplarni ishlab chiqadi.

Davlat va xuquq naziriyasi bilan davlat va xuquq tarixi fani bir-biri bilan chambarchas bog’lh bo’lib, ularning har ikqilasi ham dvlat va xuquq xuquq baxs yuritadi va h.

Davlat va xuquq naziriyasi boshqa yuridik fanlar bilan ham huddi shunday ikki yoqlama aloqadadir.

Demak, davlat va xuquq naziriyasi xuquqshunoslik fanlari tizimida markaziy, umumlashtiruvchi ahamiyatga ega bo’lishi bilan birga, barcha yuridik fanlarning yutuqlarini uyg’unlashtiradi va ularni o’zaro bog’lashga yordam beradi.

## 4.Davlat va xuquq nazariyasi fanining asosiy vazifalari, funktsiyalari.

Oliy yuridik ma'lumot berish kontseptsiyasi davlatning xuquqiy hayotida ijodiy faol hatnasha oladigan, yuqori kvalifikatsiya va keng (chuqur) bilimga ega bo’lgan mutaxasislarni tayorlashga haratilgan.

Bu erda tor doiradagi bilim o’rinli bo’lmaydi, bu nafahqat yuristning intellektual qobiliyatini susaytiribgina holmasdan, balki uning mutaxassislik (professianal) faoliyati harakteriga tuhri kelmaydi.

Tushunarli, sud'ya, prokuror, tergovchi, advokatlarga turli xil yuridik ishlarni bajarishlari konkret qonunlarni, ularning bajarilish tartiblarini va xakozolarni yaxshi bilishlari kerak.

Biroq, bo’larning barchasini to’la tushunib etish va ulardan foydalanish mumkin, faqatgina davlat va xuquq to’g’risida chuqur ilmiy tasavvurlarga ega bo’lgan holda hamda qonun va xuquqning ijtimoiy hayotning barcha soxalarida ustun ekanligini, inson va fuqarolarning xuquq va erkinliklari himoyasi doimo yuqorida bo’lishini anglatgan holdagina.

O’huv darsligi sifatida davlat va xuquq nazariyasi ikkita asosiy funktsiyani bajaradi:

*1) talabalarga yuridik ma'lumot beradi va*

*2) ularning umum nazariy bilimlarini ta'minlaydi.*

***Birinchi funktsiya,*** davlat va xuquq nazariyasining asosi o’organilayotganda tatbih etiladi. Bunda talabalar davlat va xuquqshunoslik xuquqgi dastlabki tushuncha va qoidalarni o’organib ularga sohaviy yuridik fanlarni o’organishga o’tishga yo’l ochib beradi (konstitutsion, fuqarolik, jinoyat xuquqlari, ma'muriy, mehnat xuquqlari...).

***Ikkinchi funktsiya,*** talabalarni abstrakt, tahliliy fikrlar yuritishga o’rgatib, ularning siyosiy va xuquqiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Bu funktsiyaning tatbiqi 1-kursda boshlanib, oxirgi kursda yakunlanadi, ya'ni butun kursning nazariy yakunlari tugatiladi, talabalarda yuridik tizimlar to’g’risida to’la tasavvur shakllanadi.
Davlat va xuquq nazariyasi fundamintal fan sifatida bir hator funktsiyalarni bajaradi:

**Ontologik funktsiya.** Ontologiya- bu ijtimoiy hayot xuquqgi ilm va fikrlar, bunda uning printsiplari, tuzilishi va qonuniyatlari o’organiladi. Davlat va xuquq nazariyasi bu funktsiyani bajara turib, davlat va xuquq qanday va nima uchun paydo bo’ldi, bugungi kunda ular handay va kelajakda ularning qismati (tahdiri) nima bo’ladi degan savollarga javob beradi.

***Gnoseologik funktsiya****, ya'ni bilish funktsiyasi. Bu funktsiya bilishning tabiatiga, uning real muhitga munosabatini o’rganishga haratilgan.*

***Evristik funktsiya(nazariy bilish).*** *Evristika – bu hahihatni yangiliklarni izlab topish san'ati. Davlat va xuquq nazariyasi davlat-xuquq hodisalarni o'rganibgina holmasdan, balki uning bugungi kundagi rivojlanish qonuniyatlarini ham o'organadi.*

***Metodologik funktsiya.*** *Fudamental fan sifatida davlat va xuquq nazariyasi sohaviy yuridik fanlarga nisbatan metodologik fanktsiyasini bajaradi.*

**Siyosiy-boshqaruvlik funktsiyasi**. *Davlat va xuquq doimo siyosiy harashlar,chuqur siyosiy baxslarning fokusi bo'lib kelgan.* Davlat hokimiyati kimning ko'lida bo'lsa, asosan u hamma narsani xal qiladi. Bu funktsiya esa davlat boshqaruvi orhali bajariladi (tatbiq etiladi). Davlat va xuquq nazariyasi davlat siyosatining (ichki va tashki) ilmiy asosini shakllantirishga hamda davlat boshqaruvining ilmiyligini ta'minlashga haratilgan.

***Ideologik funktsiya.*** *Davlat va xuquq nazariyasi bu funktsiya orhali ijtimoiy hayotga,kishilarning hulqiga,nafaqat davlat va xuquq orqali, balki to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib, xuquq sub'ektlarining xuquqiy ongiga va yaxlit butun ijtimoiy hayotni tartibga solishda hoyaviy omil sifatida yuzaga chiqadi.*

***Amaliy-tashiliy funktsiya.*** *Davlat va xuquq nazariyasi davlat va xuquqning amal qilishda (funktsionirovat) asosiy ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan holda, Davlat qurilishidagi ko'pgina muammolarni echishga qaratilgan taklif (rekomendattsiya)larni ishlab chiqadi.*

***Prognostik funktsiya.*** *Davlatchilik va xuquq soxasining keljakdagi axvolini ilmiy ko'zatish,o'organish(prognoz) muhim ahamiyatga ega*.Chunki buning natijasida davlat-xuquqning qanday rivojlanishi to'g'risida ilmiy ma'lumotlar beradi(olinadi).

**Uquv kursi sifatida fanning tuzilishi.**

Davlat va xuquq nazariyasining predmetiga an'anaviy ravishda fanning umumiy harakteristikasiga taalluqli bo'lgan barcha masalalar (predmet va metod, ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o'rni), davlat va xuquqning kelib chiqishi o'zgarishi bilan bog'liq masalalar kiradi.

Umumiy xuquq nazariyasiga taalluqli masalalar juda keng bo'lib, bo'larga:

* ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimida xuquq;
* xuquqning printsiplari, shakllari, manbalari, ijtimoiy mohiyati;

* xuquq va ma'naviyat;
* xuquqiy ong va xuquqiy madaniyat;
* xuquq normalari - tushunchasi, belgilari, tuzilishi, turlari;
* xuquqiy va normativ - xuquqiy aktlar (tushunchasi, printsiplari, tuzilishi, turlari);
* xuquq tizimi va qonunchilik tizimi;
* xuquqiy munosabatlar (tushunchasi, tuzilishi, turlari);
* xuquq ijodkorlari; xuquqni tadbik etish; va x.

Umumiy davlat va xuquq nazariyasiga taalluhli masalalarga kuydagilar kiradi:

- siyosiy tizim xuquqgi tushunchalar; davlat hokimiyati boshqaruv, davlat apparati xuquqgi tushunchalar;
- davlat shakllariga harakteristika (boshqaruv shakli,davlat tuzilishi, siyosiy rejim);
- davlatning funktsiyalariga va mexanizimiga harakteristika.

Bir guruh mustaqil o'organiladigan masalalarga :

- xuquqiy tartibot muammolari (xuquqona hulh, xuquqbuzarlik, uning tushunchasi, turlari, tarkibi):
- Yuridik javobgarlik (tushunchasi, belgilari, turlari; qonuniylik va xuquq tartibot; xavfsizlik va x.)

Bundan tashhari davlat va huquq doimo rivojlanishdadir. Jamiyat taraqqiyotining har bir yanti bosqichga kirishi - davlat va huquqning yangi bosqichidir. Bunda davlat va huquq mohiyatiga ko'ra eski bosqichning ijobiy tamonini saqlab, yangi tajribalarni tuplab ijtimoiy belgilari bilan o'z funkts iyasini bajaradi. Buning isboti uchun bir tamondan quldorlik va feodal davlat va huquqini, ikkinchi tamondan hozirgi kopilastik davlat va huquqni solishtirish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1.Davlat va huquq nazariyasi nimani urgatish

2. Davlat va huquq nazariyasi qanday vazifalarni bajaradih

3. Jamiyat nima

4. Davlat va huquq nazariyasi qanday hususiyatlarga egah

5. Davlat va huquq nazariyasi nima uchun falsafiy hususiyatlarga ega fanh

6. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida qanday ahamiyati  borh
7. Davlat va huquq nazariyasining o’quv tajribaviy ahamiyati nimadah
8. Davlat va huquq nazariyasini qanday usullar yordamida o’organamizh
9. Davlat va huquq nazariyasi metodlari deb nimaga aytiladi
10. Umumiy ilmiy metodlar deb nimalarga aytiladi

## 2-Mavzu: Davlat va huquqning paydo bo'lishi

**Darsning maqsadi:** Talabalarga davlat va huquqning vujudga kelishi uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rgatish.Davlat va huquq to'hrisidagi nazariyalar haqida tushuncha berish.

**Darsning ko'rgazmasi:** Davlatning shakllari, belgilari, chizmasi.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar:** Jamiyat,neolit inqilobi,urug'chilik tuzimi, patriarhal, irrigatsiya, teologiya, totem-mening avlodboshim, sanktsiya- chora, mononormalar-urug'doshlik tuzimi odati. quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik**, p**atriarhal,

**Reja:**

1.Davlat va xuquqning kelib chiqishi va rivojlanishi.
2.Davlatning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar.
3.Davlatning mohiyati va beigilari.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlaqatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., «O'zbekiston», 2005y
2. Muhamedov H. Horijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. T.,"Adolat" 1999.
3. Muhimov Z. Chet mamalakatlar davlati va huquqi tarixi. T., Yangi asr avlodi, 2001 y.
4 .Islomov Z. Davlat va huquq nazariyasi. Ma'ru'zalar matni. T.Universitet.2000 y.12-bet
5. Karimova O., G'afforov Z. Davlat va huquq asoslari T.,O'qituvchi.1995 y.
6. Saidov A.Tajihonov U. Davlat va huquq nazariyasi. T.1 "Adolat" 2001.72-126 betlar
7. Saidov A.Tajihonov U. Davlat va huquq asoslari T.IIV. 1999, 55-57, 189, 82-86 betlar.

### 1.Davlat va xuquqning kelib chiqishi va rivojlanishi.

Jamiyat - bu insonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini hondirish maqsadida, ularning o'zara birlashuvi va kishilar o'rtasida iqtisodiy, ahloqiy, diniy va ma'naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning yig'indisidir.

Kishilik jamiyatining taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi kuchlar quyidagilardan iborat;

1. *Iqtisodiy kuch*- bunga jamiyatdagi ishlab chiqarish hurollari, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari kiradi.

Siyosiy kuch - bunga jamiyatdagi siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslar kiradi.

3. *Mafku'raviy kuch* - jamiyatdagi barcha hoyalar, harashlar yig'indisidir. Jamiyatning sub'ekti bo'lib fuqarolik, millat, elatlar, sinflar,guruhlar va tabaqalarlar qatnashadi. Jamiyatda biologik qonunlar emas, ijtimoiy qonunlar harakat qiladi. Jamiyatning asosini kishilarning ma'lum jamiyatga birlashtiruvchi uning iqtisodiy tuzilishi (moddiy) asosimni tashqil etadi. Bundan quyidagi 3 ta holat kelib chiqadi.

***Birinchidan*** kishilik jamiyati turli ijtimoiy iqtisodiy bosqichlarga (quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistikka) bo'linadi.

***Ikkinchidan*** ijtimoiy turmush iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy kabi muhim sohalarga bo’linadi.

***Uchinchidan*** ijtimoiy munosabatning sub'ektlari shahs, oila, millat, elatlar, sinf va turli tabaqalar unda ishtirok etadi.

Jamiyatda ijtimoiy va siyosiy hokimiyat mavjud. Ijtimoiy hokimiyat bu ibtidoiy jamoa tuzumi davlatsiz jamiyatga taalluqlidir. Ibtidoiy jamoa tuzumining tuzilish tarqibini urug’ fratriya va qabila tashqil qilgan. Uruh bu kishilarning uon va til jihatidanhh yaqin bo’lgan ittifoqidir. Bir necha urug’ birlashib fratriyani (lotincha uyushma), bir necha fratriya birlashib qabilani tashqil qilidi. Bo’larning urug’, fratriya va qabilani umumiy yigilishida saylab qo’yilgan, hayot tajribasiga ega bo’lgan va jamoa a'zolarining hurmatiga loyik bo’lgan oksoqollar kengashi boshqaorgan. Ibtidoiy jamoa tuzimida kishilarning tenglik , ozodlik va kardolik, demokratik qoidalari mavjud bo’lib, ular tenglik, ozodlik va kardoshlik demokratik qoidalari mavjud bo’lib, ular tenglik, ozodlik va birodorlik asosida tartibga solinar edi. Bu turmush qoidalari barcha jamiyat a'zolarining manfaatiga mos bo’lib, ular tomonidan ongli ravishda bajarilgan.

Jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyoti, hususiy mulkchilikning paydo bo’lishi va bu bilan bo’g’liq byuulgan jamiyatning qarama -qarshi sinflarga bo’linishi jamiyatni davlat orqali boshqarish-siyosiy hokimiyat shakliga olib keladi..

Kishilik amiyatning taraqqiyotining keyingi bosqichi bu davlati jamiyatdir. quldorlik davlat ekspulatatsiyaga asoslangan birinchi davlatdir. Bu davlat hukmron sinf quldorlar sinfini manfaatlarini imoya qiladigan siyosiy hokimiyatdir. quldorlar ishlab chiqarish vositalar, ishlab chiqarish mahsulotlari va ishlab chiqaruvchi kuch hisoblangan mazlum sinf qo’llairga hususiy mulk tarikasida egalik qilgan.

Jamiyatning ma'lum tarixiy sharoitida quldorlik ishlab chiqarish usuli taraqqiyot talablariga javob bermay qoldi, u feodal ishlab chiqarish usuli bilan almashdi. quldorlar davlati o’rniga feodal davlati paydo bo’ldi. Feodal jamiyatining asosiy sinflari hukmron sinf feodallar, haram sinf krepostnoy dehhonlardir. Feodallar ishlab chiqarish hurol va vositalariga to’la , ishlab chiqarash kuch hisoblangan krepostnoy dehkonlar esa kiman egalik qilgan. Demak feodal erini tekinga ishlab berishga, o’z erida etishtirilgan hosildan soliq to’lashga majbur bo’lgan.

Kishilik jamiyatnin ma'lum tarixiy sharoitda feodal ishlab chiqarish usuli kapitalistik ishlab chiqarish usuli bilan bu usul esa sotsialistik usul bilan almashadi. Demak kishilik jamiyati 5 ta ijtimoiy iqtisodiy bosqichlarga bo’linadi (ibtidoiy jamoa tuzimi, quldorlik, fedal, kapitalistik va sotsialistik). Shulardan davlatsiz jamiyat(quldorlik, feodal, kapitalistik va sotsialistik) dir.

Davlat ibtidoiy jamoa tuzimida ishlab chiqarish qurollari rivojlanib mehnat taqsimotini paydo bo’lish ya'ni ovchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va sovdagarchilikni ajralishiga olib keladi. Bu hol avval hukm surib kelgan ko’p oilalikka barham berib, jamiyatda ayollar hukmronligi inkirozga uchrab yakka oylalikka erkaklar hukmronligigiga olib keldi. Bu oilalar qo’lida ishlab chiqarish qurollari va mahsulotlar tuplanadi. Natijada ibtidoiy jamo tuzimidagi umumiy mulk o’rnida hususiy mulk paydo bo’lib bu bilan jamiyat qarama - qarshi sinflarga bo’linib davlat paydo bo’ldi. Davlat jamiyatdan paydo bo’lib, u ishtimoiy hodisa bo’lib, ob'ektiv qonuniyatdir.

Davlat jamiyatdagi barcha sinf, millat, elat, tabora va xalqning iqtisodiy siyosiy va goyaviy jihatdan hukumronlik qiluvchi siyosiy tashqilotdir. Fanda dastlabki davlatlar Yvropa kitasida paydo bo’lgan degan fikrlar mavjud. Aslida esa dastlabgi

davlatlar bizning eramizga qadar bo’lgan 4-3 ming yillarda sharqda Messonotomiya, qadimgi Misrda, Hindiston, Hitoy va Markaziy Osiyoda paydo bo’lgan.

Quldorlik va feodal tipdagi davlatlar faqat Evropada amal qilgan (Z.I.Islamov) bo’lib, qolgan dunyoda esa – Osiyo, Afrika, Amerikada ahamiyatan boshqa ko’rinishdagi davlatlar bo’lgan, bu o’z navbatida davlatlar tipiga sinfiy yondashuvdan farqli sharqiy yondashuvni ham borligini bilish imkoniyatini beradi. xaqiqatan, ularni bunday ajratib ko’rsatishga asos bo’lgan. Sababi qadimgi davlatlar (Egipet, Vavilon, Xindiston, Xitoy va b.) sug’oriladigan erlar zonasida bundan 5 ming yil oldin paydo bo’lishgan. Ularning paydo bo’lish sabablaridan bittasi sug’orish tizimlarining qurilishi natijasida ishlab chiqarishning birdaniga o’sishi bo’ladi. Ishlab chiqarish yoki qishloq xo’jaligining bunday harakteri qabilalarning saqlanib holishini belgilab beradi, chunki bitta oila sug’orish inshootlarining qurilishini va ekspluatatsiyasini boshqara ololmas edi. Shuning uchun ham ularda erga nisbatan xususiy mulkchilik vujudga kelmadi, ishlab chiqarish qurollariga nisbatan sinfiylik bo’lmadi.

Davlatning paydo bo’lish jaraenida piramida na’muna ko’rinishidagi jamiyat yuzaga keldi: tepaga – yakkahokim monarx (podsho, faraon, shox va b.) pasta uning yaqin kishilari, maslaxatchilari (vazirlar). Keyin nisbatan past poqonadagi amaldorlar, piramidaning asosida esa – qishloq xo’jalik jamoa (qabila) lari. Oxirgilari ekspluatatsiyaning ob'ektlari bo’lib xisoblangan.
qanchalik davlat sug’orish inshoatlarini qurishda jamoalarning kollektiv meqnatini boshqarib to’rganligi uchun ham erga nisbatan o’zini oliy egalik qiluvchi deb hisobladi. Natijada jamoa (qabilalar) davlatga boqliq bo’lib qoldilar.
qisqasi, "Osiyo yoki sharqiy" tipdagi davlatning iqtisodiy asosi bo’lib erga va suvga nisbatan mulkchilik bo’lib qoldi.

Sharqiy davlatlar bir necha funktsiyalarni bajaorganlar:

- Jamoat ishlarini tashqilini (sug’orish inshoatlarini tashqil etish va ekspluatatsiya etish;
- moliyaviy-soliq yiqish;
- o’z xududining qarbiy mudofaasi va boshqalarni bosib olish;
- qabila (jamoa) va qullarning qarshiliklarini bostirish.

Davlat hokimiyatining tashqil etilishi qadimgi sharqda "sharqiy dispotiya" shaklida ko’proq ko’zga tashlanib, xech kim tomonidan cheklanmagan hokimiyat bitta qukmdorga –merosxo’r monarxga tegishli bo’lgan, u davlatni kuchli harbiy byurokratik apparat yordami bilan boshqaorgan.

Quldorlik tipidagi davlatlar erta sharqiy davlatlardan ancha keyinroq paydo bo’ldi. Ular xususiy mulkchilikning paydo bo’lishi, mulkiy qatlamlarga va jamiyatni sinflarga bo’linishi natijasida yuzaga keldi.

Klassik harakterga ega bo’lgan davlatlar Gretsiyada (VIII-VII asrlarda b.e.gacha) va Rimda (VI asr b.e.gacha) tashqil topgan.
quldorlik davlatlarining iqtisodiy bazisi bo’lib quldorlarning nafaqat ishlab chiqarish qurollari nisbatan qukmronligi, balki ularning xizmatkorlari, ya'ni qullarga xususiy mulkchiligi hisoblangan. Moddiy boyliklarni yaratuvchi qullar ququq sub'ekti statusiga ega bo’lmaganlar, balki ular narsa, xuquq va ekspluatatsiya ob'ekti kabi qaralgan.

Quldorlik davlati sinfiy harakterga ega bo’lgan. Mohiyati jiqatdan diktatura quroli bo’lib quldorlar hisoblangan. Uning sinfiylik Mohiyati quyidagi funktsiyalarda namoyon bo’ladi:

Quldorlarning xususiy mulkini qo’riqlash, hamda qullar va erkin xech narsasi yo’qlarni ekspluatatsiya qilish uchun;

Qullar yoki erkin – xech narsasi yo’qlarning qarshiliklarini bostirish uchun, qo’rqitish uchun va b.;

Tartib intizomni qo’llab-quvvatlash maqsadida g’oyaviy ta'sir ko’rsatish uchun

Quldorlik davlati hokimiyatining tashiliy shakli unitar monarxiya yoki respublikadir. Masalan, III asrda Rimda – cheklanmagan monarxiya; Afrikada – demokratik respublika (bir demokratik respublika bo’lib, davlat oliy organlariga saylovlarda hamma erkin fuqarolar (aholi) ishtirok etadilar); Spartada – aristokratik respublika shakli (davlat oliy organiga saylovlarda yirik qarbiylar aristokratiya vaqillari ishtirok etadilar) va q.

Davlat ibtidoiy tuzimidagi ijtimoiy hokimiyatdan quyidagi belgilar bilan farq qiladi.

1)Davlat fukoralarning hududiy belgisiga qarab bo’linadi. Ibtidoiy jamoa tuzimida kishilarning uruh yoki qabilaga mansubligi kon- korindoshligiga qarab aniqlanar edi. Davlat paydo bo’lgandan keyin fukoralar hududiy belgiga qarab ya'ni qaysi davlat hududida yashashiga qarab huquq va burchlarini amalga oshiradi.

2)Siyosiy hokimiyatning ta'sis etilishi. Bunga davlatning zo’rlik kuchi bilan uning vazifalarini amalga oshiradigan zo’rlash apparati barcha davlat organlari, armiya, polittsiya, turma va boshqa muassasalar mavjud. Bo’lar ibtidoiy jamoa tuzimida yoq edi.

3)Davlat siyosiy hokimiyatni saqlash uchun fuqarolardan soliq oladi. a'zolarining izzat- hurmatiga asoslangan bo’lsa, endi davlatning zo’lik Ibtidoiy jamoa tuzimida uruh a'zolarining obro’-e'tiboriga, jamiyat kuchiga tayanadi.

4)Davlat suveriniteti (mustaqilligi) mavjudligi. Har bir davlat mustaqil holda o’zining ichki va tashqi vazifalarini amalga oshiradi.

5)Ibtidoiy

## 3.Davlatning paydo bo’lishi haqida turli nazariyalar.

***1.Teologik nazariya – bunda davlatning hudo tomonidan yaratilganligini uktiradilar davlat va hokimiyat hudoniki degan qoidani ilgari suradilar.*** Masalan: Abdulkodir Uda yozishicha, shariat uch nuqtai nazardan qonundan farqlanadi:

*Birinchidan, qonun inson tafaqko’ri va ijodining mahsuli bo’lsa, shariat yaratuvchi tomonidan yuborilgan. qonun har doim o’zgarib tursa, shariat o’zgarish va zavoldan o’zohdir.*

*Ikkinchidan, qonun jamiyat tomonidan uning hayotini tartibga solish va ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan bir qator qoidalar sifatida jamiyat o’zgarishi bilan o’zgarib turadi. Lekin shar'iy qonunlar umumiy mohiyatga ega bo’lgani uchun o’zgarishni qabul qilmaydi.*

*Uchinchidan, qonun jamiyat tomonidan uning urf-odatlari, rasmu-rusumlari va tarixiga muvofiq yaratiladi.* Shuning uchun qonun jamiyatdan keyin yuzaga kelib, uning taraqqiyotiga bog’liq bo’ladi. qonunni jamiyat yaratadi, jamiyatni

qonun emas. Ammo islom qonunchiligi jamiyat mahsuli bo’lmay, jamiyatni shariat yaratadi, ya'ni jamiyat shariatning mahsulidir. Udaning ushbu hulosasi keng munozarali va bahsli masala hisoblanadi .

Bu nazariya qadimda paydo bo’lgan va o’rta asrlarda keng tarqalib hozirgi kunda ham teologik nazariya Islom davlatlarida qo’llainiladi.

***2. Patriarhal nazariya tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqkan, monarx hokimiyati esa oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo’lib o’tgan deb hisoblaydilar.*** Bu nazariya Yunonistonda (kadimgi Rim davlatida paydo bo’lgan Aristotel asarlarida asoslab berilgan.

Bu nazariyani ingliz sotsiologi, tarixchisi va Huquqshunos Genri Men sistemaga solib ishlab chiqkan. Patriarhal nazariyada «Ota rozi – hudo rozi» zaylida ish tutadi.

***3. Shartnoma nazariyasi.*** Bu nazariya XVII-XVIII asrlarda paydo bo’lgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Gugo Grotsiy va Spinoza, Angliyada – Lokk va Gobbs, frantsiyada – Russo, Rossiyada Radishchev rivojlantiorgan. Shartnomani nazariyasiga ko’ra, dalat – ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi. «Shartnoma nazariyasi» ga muvofiq davlat hokimiyati kishilarning o’zaro birlashib ihtiyoriy shartlashganligining ifodasidir. Davlat – o’zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashqiloti bo’lib, ana shu shartnoma asosida lar o’zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini davlatga beradilar.

***4.Zo’ravonlik nazariyasi.*** Buning vaqillari avstraliyalik yurist olim L.Gumplovich, nemis nazariyotchisi E. Dyuring, rossiyalik K.Kautskiydir. Bu nazariyaga asosan davlat bir qabila ikkinchi qabilaga urishib bosib olish natijasida paydo bo’lgan.

***5.Psihologiya nazariyasi.*** Bunda davlat kelib chiqishida, insonlar o’z tabiatiga, biologik instinkt hususiyatlariga ko’ra boshqarilish, itoat etishga intilar emishlar. Ulardagi bu ehtiyoj faqat davlat mavjud bo’lgan takdirdagina qondirilarmish.

***6.Irrigatsiya nazariyasiga*** ko’ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini ko’rish va ulardan foydalanish bilan bog’liq.

***7.Sinfiy nazariyasi*** namoyandalari (K. Marks, F. Engels, V.I. Lenin) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar – ijtimoiy mehnat taksimoti, kushimcha mahsulot va hususiy mulkning paydo bo’lishi, jamiyatning qarama-qarshi sinflarga ajrilishi tufayli kelib chiqkan. V.I. Lenin «Davlat va revolyutsiya» asarida davlatni sinflarni keltirish organi emas, balki sinfiy hukmronlik organi, bir sinfning boshqa sinfni bostirish quroli, bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlikni ta'minlash mashinasi deb hisoblangan. Bu nazariyaning natijasida sinfiy hukmronlik urnatish maqsadida repretsiyalar bo’lib ziyolilarni yo’q qilgan. Bu nazariyalardan biri patriarhal nazariyadir. Uning vaqillari Aristotel, ingliz yurist olimi Genri men, rus sotsiologi N. Mihaylovskiy va boshqalar. Bu nazariyaga asosan, davlat jamiyatda oilaning taraqqiy etishi natijasida paydo bo’lgan, Oiladan uruh qabila-davlat paydo bo’lgan. Oilada boshlik ota bo’lsa, davlatda boshlik monarxdir. Monarx hokimiyati cheklanmagan hokimiyatdir.

Shunday qilib ko’ramizki davlatning paydo bo’lishi haqida turli nazariyalar mavjud bo’lib, bu masalani turlicha talhin qiladi.

**3.Davlatning mohiyati va belgilari/**

Sho’ro davrida Markscha- Lenincha ta'limot davlatni hukmron sinf mazlum sinfni ekspluatatsiya qiluvchi- zo’ravonlik diktaturasi deb kelinadi. Hozirgi vahtda davlat zo’ravonlik diktaturasi bo’lmasdan jamiyatdagi barcha sinf, millat va ellatlarning umuminsoniy va milliy belgilari- diniy, kasbi va boshqa ijtimoiy chiqishlardan qatiy nazar ularning manfaatlarini ifodalaydi.

Davlatning mohiyati bu jamiyatdagi barcha sinf, siyosiy partiya, tabaqalar guruh, millatlar va elatlar uchun hizmat qilishdir. Bundan chiqadigan hulosa shuki, davlat zo’ravonlik siyosati bo’lmasdan uning asosiy umuminsoniy vazifalarini amalga oshirish birinchi o’ringa chiqadi. Davlat sinfiy mohiyatini yo’qotgani yo’q, u faqat ikkinchi o’ringa chiqdi.

Dalat jamiyatdagi barcha kishilarning siyosiy uyushmasidir. Davlat hokimiyati umuminsoniy va milliy manfaatlarga asoslangan siyosiy hokimyatdir. Bu siyosiy hokimyat davlat apparati yoki davlat mehanizmi deb ataluvchi – davlat organlari- qonun chiqaruvchi organ parlament, ijro etuvchi organ- hukumat, qurolli kuchlar, polittsya. Milliy hovsizlik va huquqni muhofaza etuvchi organlar sud, prokatura va ichki ishlar organlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat jamiyat ustko’rmasining siyosat, din, falsafa va boshqalari bilan o’zviy bo’g’liqdir. Davlat huquq bilan ham bo’g’liqdir, chunki huquq davlatning oldida to’rgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy vazifalarni amalga oshirishda qurol bo’lib hizmat qiladi. Huquq jamiyatning iqtisodiy tuzimini mustahkamlab turli mulk shakllarini qo’riqlaydi. Huquq kishilarning goyaviy jihatdan tarbiyalab, ijtimoiy ongni shakllaridan, san'at, din, falsafa, ahloq va boshqalar bilan bo’g’liq bolib, aholini ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi.

Davlat siyosiy vazifalarni bajaruvchi jamiyatdagi boshqa muassasalarni va tashqilotlar (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalar, tashqilotlar, jamoa birlashmalari bilan bo’g’liq va ulardan farq qiladi).

Davlat keng ma'noli tushuncha bo’lib, uning mohiyatini tushunishda 3 asosiy nazariy yondoshuv mavjud:

1) ijtimoiy – bunda umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va halkning o’zaro munosabatini tartibga soladi;

2) sinfiy – bunda davlat sinflarning paydo bo’lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy ko’rash bir sinfning boshqasini bostirish quroli;

3) siyosiy – huquqiy – bunda davlat jamiyatning va davlatning o’zining hayotini tashqil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning mohiyatida uchala yondoshuvda ham muayyan asos bor. Lekin, bir nazariy qarashni, ikkinchisidan ustun qo’yilganda yanglishuv (hukmronlik) bo’ladi.

Davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning mahsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo’lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverentetga ega bo’lgan tashqilotdir.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning mahsus apparatiga ega bo’lgan, shuningdek huquq normalarini yaratishga kodir bo’lgan hokimiyatning hududiy tashqilot.

Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, har bir davlat – betakror ijtimoiy hodisadir. U har haysi halk tarixiy va ma'naviy taraqqiyotning hosilasidir,

uning o’ziga hos, o’ziga mos madaniyati rivojining natijasidir. O’zbekiston uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu maqonda qonun ustuvor bo’lib, u insonning o’z-o’zini kamol toptirishga monelik hilmaydi, aksincha yordam beradi. Shahs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to’la darajada ruyobga chiqishiga ko’maklashadi.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, uning bir me'yorda ishlashini ta'minlaydigan, jamiyat nomidan ish ko’radigan mahsus boshqaruv, majburlov apparatiga ega bo’lgan tashqilotdir.

Davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. O’ziga hos ommaviy hokimiyat – davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi;

2. Aholining hududlar bo’yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashi).

3.Suverenitet (mustaqil bo’lishi).

4.Huquqning mavjudligi.

5.Soliqlarning mavjudligi.

6.Umuminsoniy funktsiyalarni bajarish (mudofaa, jinoyatchilikka qarshi ko’rash, umumiy faravonlik).

***Huquqiy davlat tushunchasi.***

*Huquqiy davlat – jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashqilotdir.*

Huquqiy davlatning belgilari:

1. qonunning ustuvorligiga asoslanadi;
2. barcha fuqarolar, mansabdor shahslar, davlat organlari va tashqilotlarining qonunlarni ogishmay bajarishlari va unga rioya qilishlarini taqozo etadi;
3. fuqaro va davlatning amaldagi qonunlar doirasida o’zaro javobgarligini nazarda tutadi;
4. siyosiy, mafko’raviy, iqtisodiy hurfikrlikka, fikrlarning hilma-hilligiga tayanadi;
5. fuqarolarning xuquq va erkinliklarini ta'minlaydi;
6. Huquqiy madaniyatni yo’qsak darajaga kutaradi.

Jamiyatda xuquqiy davlatning roli quyidagilarda ifodalanadi:

1. Jamiyatda faoliyat ko’rsatuvchi demokratik institutlarning rivojlanishi va barqarorligini ragbatlantira oladigan xuquqiy hujjat chiqarish va joriy etish.
2. Fuqarolarning xuquq va erkinlarini muhofaza qilish, ularning ijtimoiy himoyalanganligiga doir amaliy choralar qabul qilish.
3. Fuqarolarning xuquq va erkinliklariga tajovo’z qiluvchi mansabdor shahslarni tegishli shaklda xuquqiy javobgarlikka tortishning xuquqiy mehanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Jamiyat hayotida xuquqiy davlat quyidagilarni ta'minlaydi:

- davlat mehanizmining barcha buginlari aniq va bir maromda ishlashini;
- Huquqiy davlat organlari faoliyatida xuquqiy ijodkorlik va xuquqni qo’llaishning samaradorligi;
- hokimiyat vakolatlarini taqsimlash printsiplarini turmushga joriy etishni;
- davlat – huquqiy va siyosiy institutlarni barqarorligini;

erkin bozor iqtisodiyotini.

Huquqiy davlat barqarorligining huquqiy asosi – jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning huquq va erkinliklarining himoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamligidir.

Huquqiy davlat barqarorligining siyosiy asosi – siyosiy plyuralizmga asoslangan demokratik siyosiy tizimning mavjudligi va barqaror faoliyat ko’rsatishidir.

Huquqiy davlat barqarorligining ijtimoiy asosi – aholining davlat tomonidan teng himoyalanishida ko’rinadi.

Huquqiy davlat barqarorligining iqtisodiy asosi – erkin tadbirkorlikka va hilma-hil mulk shakllarini rivojlantirishga qaratilgan bozor munosabatlarining mavjudligidir.

Insonparvar xuquqiy davlatning belgilari:

1. Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi.
2. Davlat hokimiyati tizimining taksimlanish printsipi.
3. Insonning xuquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoyalanishi.
4. Oliy qadriyat sifatida inson ququq va erkinliklarini joriy etish shart-sharoitlarning yaratilishi.
5. Demokratlilik.
6. Siyosiy va xuquqiy madaniyat darajasini yo’qsalishi.
7. Adolatli fuqarolik jamiyatini yaratilishi.
8. Sud – xuquqiy islohotlarining o’tkazilishi.
9. Sudning mustaqilligi.
10. Hokimiyat vakolatlarini taksimlash va xuquqiy davlat tizimini yaratish maqsadida qonunlarni chiqarish va takomillashtirish.

I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda xuquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashidir.

Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o’rni.

Jamiyatning siyosiy tizimi – bu davlat organlari, muassasalari, korhonalar, turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, jamoa birlashmalari, milliy jamoalari va huquqiy normalar yig’indisidir. Davlatninghuquqni muhofaza qiluvchi sud, proko’ratura, adliya, ichki ishlar, milliy havfsizlik organlari jamiyatning siyosiy tizimi ichida ososiy ornini egallaydi. U mahsus zo’rlik hokimiyatga ega bo’lgan siyosiy tashqilot bo’lib, uning hududidagi barcha fukoralarga davlat tilida ish olib borib, siyosiy hukmronligini o’rynatadi. Davlat zo’rlik kuchi bilan mustaqil holda ichki va tashqi sohada vazifalarni amalga oshiradi.

Davlat jamiyatning boshqa siyosiy tashqilotlardan quyidagi belgilar bilan farq qiladi.

1.Davlat jamiyatdagi barcha sinf, millat, ellat va tabaqalarlarning siyosiy tashqilotidir. Ammo davlat ularning yagona siyosiy tashqiloti emas. Jamiyatda davlatdan tashkari turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalar, birlashmalar mavjud. Agar davlat jamiyatdagi kishilarning siyosiy tashqiloti bo’lsa, boshqa tashqilotlar ayrim guruhlarni kasbi, diniy qarashi, siyosiy- ijtimoiy qarashlari bo’yicha birlashtiradi va ularga hizmat qiladi.

2.Davlat aholini ma'muriy hududiy birliklarga bo’lib, o’z hokimiyatini ma'muriy-huudiy printsipi asosida amalga oshiriladi. Masalan; O’zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishi jihatidan viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar va Qaraqolpogiston Respublikasidan iborat.

Jamiyatdagi boshqa siyosiy tashqilotlar kishilarning turar joylaridan qat’iy nazar, e'tihodiga, kasbiga va boshqa ijtimiy belgilariga qarab birlashtiradi. Masalan; siyosiy partiyalar fuqarolarni e'tihodiga qarab, kasaba uyushmalari kasbiga qarab birlashtiradi.

**Davlat shakllari.**

**Darsning maqsadi:**Talabalarga davlat shakllari va ularning hilma-hilligi ularning o'zgarishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirish.

**Darsning ko'rgazmasi:** Davlatning shakllari, boshqaruv shakllari, tuzilish shakli, siyosiy tartibi chizmalari.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar:** Davlat shakli-siyosiy hokimiyatni uyush tirish elementlari, siyosiy rejim-davlat idora usuli, monarxiya unoncha) yakkahokimiyatchilik,dispotiya-cheklanmagan hokimiyat.

**-Parlament –** (ingl.Gapirmoq) – qonun chiqaruvchi oliy vakolatli organ.

O'zbekiston Respublikasi parlamenti – bu Oliy Majlisdir.

**-Prezident –** (lot. – oldinda turuvchi) – idora usuli respublika bo'lgan davlatlarda davlat boshlig'i. Shuningdek, jamoat va ilmiy muassasalar, tashqilotlar va shu kabilarda saylab qo'yiladigan rahbar, rais.

**-Respublika –** (lot. – umumiy ish) – davlatni idora qilish (boshqarish) shakli bo'lib, unda davlatni saylab qo'yilgan kishilar boshqaradi

**-Unitar –** (lot. Uniya – birlik) – yagona. Davlatning tuzilish shakli bo'lib, muayyan ma'muriy hududiy bo'linishga ega bo'ladi. Biroq bu mustaqil hududlar (tumanlar, viloyat, kontonlar) davlat suverenitetiga ega bo'lmaydi.

**-Federatsiya –** (lot. Ittifoq, birlashma) – davlatning tuzilish shakli bo'lib, uning asosi – ikki yoki bir necha mustaqil davlatning bitta ittifoq davlatga birlashishdir.

**- Konfederatsiya –** (lot. – uyushma) – shartnoma asosida qat'iy muayyan maqsadlar yo'lida birlashadi.

**- Syuzerenitet –** frants., bir davlatning ikkinchi davlatga (vasallik)ga nisbatan ustuvorlik huquqi.

**-Anarhiya –** hokimiyatsizlik.

**- Despotizm** – zolimlik, zulmkorlik.

**-Antidemokratik rejim** – demokratik qoidalarga rioya etmaydi.

**Reja:**

1.Davlat shakllari tushunchasi. Davlatning boshqaruv shakli.

2.Davlat tuzulish shakli.

3. Davlatning siyosiy tartibi.

## **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T.1996, 6-bet.

2. Karimov I.A. O’zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafko’ra. T.1. T.1996, 125-bet.

3. Karimov I.A. O’zbekiston Buyuk kelajak sari. T. O’zbekiston. 1998y.

4. Karimov I.K. O’zbekiston milliy: istiqlol, iqtisod, siyosat, va mafko’ra. T. O’zbekiston . 1993 y.

5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997 yil.

6.Holmuminov B.T. Demokratik davlat qurilishining muhim yo’nalishlari. qonun himoyasida. 1996 yil.№ 6 - son

7. Saidov A., Tojihonov U. Davlat va huquq nazariyasi: T.2.Davlat nazariyasi.O’zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y. 153-187 betlar.

8.Saidov A.Tojihonov U. Davlat va huquq asoslari. T. O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999 yil.

9. O’zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish. T. 1997, 125-betlar.

**Davlat boshqaruv shakli.**

Davlat jamiyatining siyosiy, ho'jalik va madaniy hayotga rahbarlik qiluvchi davlat organlariga ega. Masalan; O'zbekistonda Oliy davlat hokimiyat organi Oliy Majlis, mahalliy davlat hokimiyat organlari, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlaridir. Siyosiy ijro etuvchi organ- davlat boshlig'i va vazirlar mahkamasining raisi Prezident, mahalliy ijro etuvchi organ- viloyat, tuman va shahar hokimlaridan iborat. O'zbekiston huquqni muhofaza organlari mavjud. Bu organlarning chiqaorgan normativ va huquqiy hujjatlari jamiyatning barcha a'zolari uchun majburiydir.

Davlat huquq va huquqiy normalar qabul qiladi. Bo'larni bajarish barcha fuqarolar uchun, jamiyatning barcha siyosiy tashqilotlarining a'zolari uchun majburiydir.

Har bir davlat hududida milliy davlat tizilining mavjudligi. Masalan; O'zbeksiston Respublikasida davlat tili o'zbek tilidir. Davlat ishlari, barcha jamiyatning siyosiy tashqilotlarida ishlar davlat tilida olib boriladi.

Jamiyatning siyosiy, tizimi davlat va jamiyatning siyosiy tashqilotlari tuzilishidan iborat, u orqali kishilar, guruhlar, tabaqalarlar va jamoat birlashmalari manfaatlarini mustahkamlaydi. Jamiyatning siyosiy tizimi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy kuchlari kabi ijtimoiy va milliy tuzilishini mustahkamlaydi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi hozirgi bozor iqtisodiy siyosatiga o'tish davrida demokratik huquqiy davlat qurar ekan, iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy va huquqiy sohalarda turli islohotlar o'tkazib, davlat oldida to'rgan ichki va tashqi vazifalarni mustahkamlamohda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat va siyosiy tizimiga bozor iqtisodiyoti bilan bo'g'liq bo'lgan bir qancha davlat organlari paydo bo'ldi. Masalan, Mudofaa va tashqi iqtisodiy aloqalar vazirliklari, milliy havfsizlik hizmati, davlat soliq va bojhona qo'mitasi, davlat mulkini boshqarish va hususiylashtirish, qimmatbaho metallar, fan va tehnika qo'mitalari, turli kontsernlar, holding, kompaniya va boshqalar tuzildi.

Demak, jamiyat siyosiy tizimining vazifalari quyidagilardan iborat:

1)Jamiyatning siyosiy tizimi – davlat vazifalarini amalga oshirishda xalqning iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy sohalarini yaxshilashga yordam beradi.

2)Davlatning ichki va tashqi funktsiyalarini amalga oshiradi.

3)Jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi barcha tuzilmalarni davlat, uning organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalarini birlashtirib, davlat vazifalarini amalga oshiradi.

4)Jamiyatning siyosiy tizimiga kiruvchi barcha tuzilmalarni davlat, uning organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalarini birlashtirib, davlat vazifalarini amalga oshiradi.

Har qanday davlatning mavjudligi - uning moxiyati, mazmuni va shakli (formasi) ning birligida namoyon bo'ladi.

Davlat o'z funktsiyasini faol amalga oshirishi, uning mexanizmini sifatli va uyushkoklik bilan harakat qilishi uchun davlat xokimiyatiningi tashiliyligi talab etiladi.

Davlat xokimiyatining oliy organlari qanday yuzaga keladi, u xududiy jixatdan qanday printsiplarga asosan qurilgan, ular o'zaro va aholi bilan qanday aloqada bo'ladi xamda harakat qiladi, ular qaysi usullarga binoan amalga oshiriladi, degan savollarga davlat shakli javob beradi.



Davlatning shakli deganda – boshqaruv, davlat tuzilishi va siyosiy rejimi shaklida namoyon bo'ladigan davlat xokimiyatining tashqiloti tushuniladi.

Davlatning shakli tushunchasi o'z ichiga quyidagilarni xamrab oladi:

Oliy davlat xokimiyatining tashqilotini, uning kelib chiqish manbalarini, xokimiyat oliy organlarining o'zaro va xalk bilan munosabatlari printsiplarini;

Davlat xokimiyatining xududiy tashiliyligi xamda davlatni uning tarkibiy qismlari bilan o'zaro munosabatini;

Davlat xokimiyatini amalga oshirish usul va uslublarini.

Davlat shakli uning paydo bo'lishi va taraqqiyotining konkret tarixiy shart-sharoitlari bilan bog'liqdir.Unga davlatning moxiyati, tarixiy tipi xal etuvchi ta'sirini ko'rsatadi.

Masalan, feodal tipdagi davlatga – boshqaruvning monarxiya shakli, burjuaziya tipiga – respublika shakli mos keladi.

Davlat shakli mamlakatdagi siyosiy partiyalarning munosabatlariga, ayniqsa u davlatning paydo bo'lish davrida ko'p jixatdan bog'liq bo'ladi.

Misol qilib, Angliyadagi oldingi revolyutsiyalarning sodir bo'lishi feodallar bilan burjuaziya o'rtasidagi kompromissga (murosaga) olib keldi, natijada konstitutsion monarxiyaning tashiliy qismi karor topdi.

Konstitutsiya – yosh burjuaziyaning  talabi bo'lsa, monarxiya – feodallarga yon berish bo'ldi.

Davlat shakliga mamlakatning milliy tarkibi, tarixiy an'analari, xududiy xajmi va boshqa omillar ta'sir etadi.

Aytib o'tgandek, davlatning  shakli uning moxiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Davlatning moxiyati davlat xokimiyatini kimga qarashli ekanligini, uning sub'ektini aniqlashga yordam beradi xamda uni kim amalga oshiradi dagan savolga javob berada.

Davlatning shaklini o'rganish esa xokimiyat  davlatda qanday tashqil qilingan, u qaysi organlar orqali taqdim etiladi, bu organlarning paydo bo'lish tartiblari qanday, ularning vakolat muddatlari va davlat xokmiyatni amalga oshirish usullari va boshqalarni tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, davlat shakli, yuqorida aytilgandek, o’z ichiga uch tomonni kiritadi:

Boshqaruv shaklini,ya'ni davlatning xokimiyati va oliy boshqaruv organlarining paydo bo’lishi va tashqil topishining ma'lum tartibi;

Davlat tuzilishi shaklini, ya'ni davlatning xududiy tuzilishini, markaziy, regional va mahalliy xokimiyatlarning o’zaro munosabatlarini ma'lum tartibini;

Siyosiy (davlat) rejimini, ya'ni siyosiy xokimiyatni amalga oshirishning yo’llari va usullarini.

Bu xozircha davlat shaklini tushunishga bo’lgan umumiy yondoshishlardir holos.Uni to’la tushunish uchun har uchala blok (yunalish) ni chukur ko’rib chiqish zarur bo’ladi, ya'ni ularning o’zaro harakatlarini hamda davlatni bir necha yuz yillar davomida o’rganishning nazariy siyosiy-huquqiy fikrlari (qarashlari) nima uchun davlat shaklining shaxsan shu uchta tomonini ajratib ko’rsatganligini va x.

***Davlat shakllari – bu davlatni boshqarish uchun davlat hokimiyatini tashqil etish, davlat tuzilishi va siyosiy tartibni amalga oshirish usullaridir.***

*Davlat shakli birinchi navbatda davlat hokimiyatining mahalliy va oliy hokimiyat organlarini tuzilishidir. Davlatning boshqaruv shakli bu – davlat hokimiyatining uchta tarmoqqa bo’linishidir.*

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat (O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi).
2. Ijro etuvchi hokimiyat (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni va Vazirlar Mahkamasi).

Sud hokimiyati (O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyaviy Sudi, Oliy Sudi va Oliy hujalik sudi).

Davlat shaklini ikkinchi tarkibiy qismi bu davlatning tuzilish shaklidir. Bu jamiyatning milliy, iqtisodiy va madaniy hususiyatlariga bo’g’liqdir. Tuzilish shakli bo’yicha davlatlarunitar, ya'ni oddiy davlat tuzilishiga, federativ-murakkab davlat tuzilishiga va konfederativ davlat tuzilish shakliga ega bo’ladi. Davlat tuzilish shakli har bir davlatning siyosiy va ma'muriy-hududiy tuzilishini birlashtiradi. Masalan: O’zbekiston Respublikasining hududida yashovchi barcha xalqning tarixiy va milliy hususiyatlari hisobga olingan holda uning ma'muriy-hududiy tuzilishi viloyatlar,

tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar va Qoraqolpog'iston Respublikasidan iborat.

Davlat shaklini uchinchi tarkibiy qismi – bu davlat hokimiyatining amalga oshirish usullari kiradi. Bu nuqtai nazardan jaxondagi davlatlar ikki usulga – demokratik siyosiy tartib va nodemokratik siyosiy tartibga bo'linadi.

Yuridik adabiyotda olimlar o'rtasida davlat shakllari haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi bir olimlar davlat shakllarini – ikki qismdan, davlatning boshqarish va tuzilish shaklidan iborat deydi. Ko'pchilik yuristi olimlar juda to'g'ri davlat shakllarini uch qismdan davlatning boshqarish, davlat tuzilishi, davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari siyosiy tartibdan iborat deb ko'rsatadi. Shularni ko'rib chixamiz.

## Davlat boshqaruv shakli

Bu kategoriya (boshqaruv shakli) oliy organlarning qanday paydo bo'lishini, ularning nimani bildirishini va kanaka asoslarga ko'ra o'zaro harakatda bo'lishlarini bildiradi.

Boshqaruv shakli oliy xokimiyat organlarining tashqil topish usullarini, uning organlarini paydo bo'lish tartibini, uning o'zaro va aholi bilan harakatlarini,ularni shakllantirishda aholining qatnashish (ishtiroki) darajasini ochib beradi**.**

***Davlat boshqaruv shakli– bunda davlat hokimiyati va boshqaruv oganlarini tashqil topish va tuzilish tartibi belgilanadi.*** Jaxondagi barcha davlatlar boshqaruv shakliga ko'ra monarxiya va respublika shaklida bo'ladi. Monarxiya – bu oliy davlat hokimiyatini bir shahsning (monarx, podsho, imperator) qo'lida bo'ladi va podsholik avloddan-avlodga meros qilib qoldiradilar.

Monarxiya boshqarish davlat shakli o'z navbatida ikkiga bo'linadi. Cheklanmagan mutloq (absolyut) monarxiya bo'ladi. Absolyut monarxiya feodal davlatning oxirgi rivojlanish bosqichiga xos bo'lib, feodal tarqoqligi jarayoni xamda markazlashgan davlatning paydo bo'lishi davriga mos keladi. Xozirgi paytda absolyut monarxiyaga bir necha O'rta Sharq davlatlarini misol bo'la oladi (Saudiya Arabistoni).

Cheklangan monarxiya boshqaruv shaklida oliy davlat xokimiyati monarx bilan boshqa organ (organlar) o'rtasida mujassamlashgan.

Cheklangan monarxiya turli xil tarixiy bosqichlarda turlichadir. Cheklangan monarxiyaga «soslovno - predstavitelnaya» (****) monarxiya bilan zamonaviy konstitutsion monarxiya tegishlidir.Birinchisi, feodal davriga, ikkinchisi, kapitalizm davriga to'g'ri keladi.

Masalan, tarixda Rim quldorlik davlati, Sharqda despotik Misr, Hitoy quldorlik davlatlari. Hozirgi vaqtda cheklanmagan monarxiya boshqarish davlat shakliga Iordaniya, Omon, Katar, Birlashgan arab amirligi davlatlari misol bo'ladi.

*Cheklangan monarxiyada – davlat tepasida turuvchi monarx, podshoning hokimiyati biron organ yoki qonun bilan cheklanib qo'yiladi*. Masalan, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya va boshqalar. Bu davlatlarda monarx davlat boshlig'i bo'lib, « podsholik qiladi lekin davlatni boshqarmaydi», davlatni hukumat boshqaradi.

Cheklangan monarxiya davlatlari o'z navbatida **dualistik** va **parlamentar** monarxiyaga bo'linadi. Dualistik monarxiya davlatlariga Saudiya Arabistoni, Kuvayt davlatlari kiradi. Bu davlatlarda hokimiyat podsho bilan parlament o'rtasida taqsimlangan. Amalda davlatni podsho boshqaradi. Podsho hukumatni o'zi tuzadi, u parlamentni tarhatib yuborish huquqiga ega. Parlamentar monarxiya shaklidagi davlatlarda – davlat boshlig'i monarxiya, hirol, hirolicha, podsho, imperator bo'lib, amalda bo'lar davlatni boshqarmaydi, ularning huquqi cheklangan davlatni hukumat boshqaradi. Masalan, Angliya, Yaponiya, Belgiya, Shvetsiya va boshqalar. Bu davlatlarda davlat boshlig'i monarx, hirolicha va imperatorni roli katta bo'lib, ular davlatning oliy vaqili millat birligi hisoblanib, davlat ishlarini olib borishda mamlakatda va xalqaro miqyosda o'rni kattadir. Ularning davlatni boshqarishda huquqi cheklangan. Amalda davlatni hukumat boshqaradi.

Davlat boshqaruvining respublika shaklida davlat hokimiyati va boshqarishning oliy organlari ma'lum muddatga xalq tomonidan saylab qo'yiladi. Respublika hozirgi dunyoda keng tarqaalgan davlat boshqaruv shakli bo'lib, rivojlangan jaxon davlatlarida uning uch ko'rinishi bor; Prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika va boshqaruvning aralash (dualistik) prezidentlik respublikasi shakli.

Respublika boshqaruv shakliga oliy davlat organlarini tashqil etishning demokratik usullari to'g'ri keladi.Rivojlangan davlatlarda oliy organlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar xokimiyatni taksimlanishi printsipiga asosan urnatilib, ular saylovchilar bilan aloqada bo'ladilar va ma'suliyatga egadirlar.

Boshqaruvning respublika shakli kuldorlik davlatlarida vujudga kelgan. U o'zining bir muncha yorkin ifodasini demokratik Afina respublikasida topadi.Bu erda davlatning barcha organlari, jumladan oliy organlarga (xalk majlisi) saylovda Afinaning barcha fuqarolari to'la huquq asosida katnashadilar.Lekin kuldorlik davlatlarida boshqaruv aristokratik respublika shakli ko'prok tarqaalgan bo'lib, saylanuvchi oliy davlat xokimiyati organlarini shakllantirishda «harbiy-er znat» (voenno – zemelnaya znat)larning ishtiroki ko'zga tashlanadi.

Feodalizm davrida boshqaruvning respublika shakli kamdan-kam qo'llanilgan.

Zamonaviy respublikalar parlamentlik va prezidantlik ko'rinishida bo'ladilar.Ular o'rtasidagi asosiy farq xukumatni kim tomonidan tayinlanishi va xukumat kim oldida ma'suliyatga egaligida yoki javobgar bo'lishidadir.

Prezidentlik respublikasi shaklidagi davlatlarga (AQSh, Lotin Amerikasi) va boshqa bir qancha rivojlangan davlatlar kiradi. Qonun chiqaruvchi organ AQShda kongress bo'lib, u ikki panatdan, vaqillar va senatdan iborat bo'lib qonunlarni qabul qiladi. Davlat boshlig'i bo'lgan Prezident hukumatning ham boshlig'idir. Ijro hokimiyati parlamentdan mustaqil holda tuziladi va faqat Prezidentga hisob beradi. Ijro hokimiyati qonunchilik tashabbusiga ega emas. Bosh vazir lavozimi bu davlatlarda bo'lmaydi. Bu davlatlarda Prezident bilan birga Vitse Prezidentlik lavozimi mavjud. Prezidentlik respublikasi – bu shunday boshqaruv shakli bo'lib, bu erda prezidant bevosita, parlamentning ma'lum nazorati ostida xukumatni shakllantiradi, u o'z navbatida prezidant oldida faoliyat bilan javobgardir. Prezidantlik respublikasida premer-vazir lavozimi yo'q bo'lib, asosan davlat boshlig'i va xukumat raxbari lavozimi faoliyatini prezidant bajaradi. Parlamentar respublikada parlament nafaqat qonunchilik vakolatiga, balki xukumatni iste'foga chiqarishni talab qilish huquqiga egadir, ya'ni xukumat o'z faoliyatini bilan parlament oldida javobgardir. Respublika Prezidanti faqat davlat boshlig'i xisoblanadi, ya'ni u xukumat boshlig'i bo'la olmaydi.Siyosiy

jixatdan bu shuni ifoda etadiki, ya'ni xukumat parlament saylovlarida g'alaba qozongan partiya (partiyalar) tomonidan shakllantiriladi, prezidant g'olib chiqqan partiyaning lideri emas ekan, u ish olib borish (faoliyat) imkoniyatidan maxrum bo'ladi. Xukumatga esa premer-vazir boshchilik qiladi.

Parlamentar Respublika shaklidagi davlatlarda Prezident faqat davlat boshlig'i bo'lib, asosiy o'rinni hukumat boshlig'i egallaydi. Prezident bevosita xalq tomonidan emas, balki saylovchilar qollegiyasi tomonidan saylanadi. Hukumat ministrlar kengashi oliy organ parlament tomonidan tuziladi va uning oldida javob beradi. Masalan, bunday davlatlarga Germaniya, Hindiston, Italiya, Turkiya va boshqa davlatlar kiradi. Bu davlatlarda parlament hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi berish huquqiga ega. Uni qabul qilish yoki qilmaslik hukumat boshlig'iga bo'g'liq. Boshqaruvning aralash (dualistik prezidentlik respublikasi) shakli. Bu davlatlarda kuchli ijroiya hokimiyati mavjud bo'lib, Prezident ham davlat boshlig'i ham ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. Ularda vitse-prezidentlik lavozimi bo'lmasdan, bosh vazir lavozimi mavjud bo'lib, hukumat qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. Bunday davlatlarda Fransiya misol bo'la oladi. Fransiya Prezidenti vakolatlarini amalga oshirishda yordam beruvchi mahsus apparatga egadir. Masalan; Frantsiyada u Elisoy saroyi Frantsiyada Prezident Konstitutsiyasi asosida milliy mustaqillik, hududiy butunlik va barcha horijiy davlatlar bilan tuzilgan xalqaro shartnomalarga amal qilishning mustahkam kafili bo'lib hisoblanadi. Aralash «yarimprezidantlik» (prezidantlik- parlamentar) respublikalari xam mavjud (Frantsiya, Finlandiya, Portugaliya) bo'lib, ularda xukumatga nisbatan prezidant va parlament o'zining u yoki bu doira (chegara)dagi nazoratini xamda ma'suliyati (javobgarligi) ni bo'lib oladi.

Monarxiya va respublika boshqaruv shakli sifatida o'zlarining nixoyatda yashovchan ekanligini xamda siyosat tarixining barcha bosqichlari va sharoitlarida moslashuvchanligini ko'rsatadi. Musulmon davlati xalifalik VII asrda paydo bo'lgan. Xalifalikning paydo bo'lishi islomning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, munosabatlar musulmon huquqi asosida tartibga solinadi.A. X. Saidovning ta'kidlashicha, xalifat – musulmon siyosiy nazariyasining asosiy katigoriyasi bo'lib, u ikkita aspektda qurilgan: yo musulmon xokimiyatining moxiyati sifatida, yo maxsus boshqaruv shakli

sifatida.Xalifat – shunday tashqilot ko’rinishida bo’lib, uning funktsiyalari oliy siyosiy xokimiyatni amalga oshirishga hamda musulmon jamoasi darajasida dinga bo’lgan e’tiqodini kullab - kuvvatlashga qaratilgandir.

## 2. DAVLAT TUZILISH SHAKLI

Davlatning amal qilish tarixi shu narsani ko’rsatadiki, turli xil davlatlar bir-biridan o’zlarining ichki tuzilishi jixatidan farq qilgan, jumladan: xududiy bo’linish uslublariga ko’ra (ma'muriy-xududiy bo’linmalar, siyosiy avtonom bo’linishlar, davlatning tashiliyligi va b.), va davlat xokimiyatining markazlashuvi darajasi bo’yicha (markazlashgan, demokratik sentralizm printsipiga asosan tashqil etilgan va b.). Davlat tuzilishi – bu davlat xokimiyatining ma'muriy – xududiy tuzilishi bo’lib, davlatni o’zining tashqil etuvchilariga bo’lgan munosabatining harakteri tushiniladi. Davlat tuzilish shakli- bu har bir davlatning siyosiy va ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat oliy organlari bilan mahalliy organlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlardir. Davlat tuzilishi shakli bo’yicha oddiy , murakkab va konfederativ bo’ladi.

***Unitar davlat – bu markazlashgan bir butun davlat bo’lib, uning ma'muriy – xududiy bo’linmalari davlat tuzilmasi statusiga xamda suveren huquqlarga ega emas.*** Unitar davlatlarda yagona davlat oliy organi, yagona konstitutsiya, yagona fuqarolik bo’lib, o’z navbatida bo’lar butun mamlakat miqyosida markazlashgan davlat xokimiyatining ta'siri yuqori darajada bo’lishi uchun tashqiliy – huquqiy asos yaratadi. Ma'muriy – xududiy bo’linmalarning organlari yoki to’la ravishda markaz qaramog’ida bo’ladi yoki ikki tomonlama qaramog’da, ya'ni markaz yoki maxalliy vakolatli organlarning ta'siri ostida bo’ladilar. Shu paytgacha amalda bo’lgan va xozirgi ko’pgina davlatlar unitar shakldadir.Bu tushunarli hol, chunki unitar davlatlar birligi yaxshi ta'minlanadi va boshqariladi. Unitar davlatlarning aholisi bir xil millatli va ko’p xil millatli bo’lishi mumkin.Masalan, Frantsiya,Shvetsiya,Norvegiya va boshqalar – bir xil, Buyuk Britaniya,Belgiya va boshqa har xil millatlar.

***Unitar*** yoki oddiy davlat tuzilishi ma'muriy-hududiy qismlarga bo’linib, yagona oliy organga, hukumatga, konstitutsiyaga, fuqarolikka, o’zining hududiga, davlat

chegarasiga va qonuniylikka ega bo'ladi. Masalan; Angliya, Frantsiya, Italiya, O'zbekiston, Ukraina, Qozog'iston davlat tuzilishi shakli bo'yicha unitar davlatdir.

***Federatsiya*** deb aniq ilmiy ma'noda shartnoma va konstitutsiyaga asoslangan davlatlar ittifoqiga aytiladi. Shuning uchun ham federatsiya faqatgina mustaqil davlatlarning birlashmasi bo'lishi mumkin. Federatsiya tarkibiga kiruvchi davlatlarning tuzilmalarini uning sub'ektlari deyiladi.Bu sub'ektlar o'zlarining konstitutsiyalariga, fuqarolariga, xususiy oliy davlat organlariga (qonunchilik, ijro, sud xokimiyatlari) ega bo'lishlari mumkin. Federatsiya tarkibiga ( uning o'zi va sub'ektlaridagi) ikkita oliy davlat organlarining mavjudligi – ularning kompetentsiyalarini chegaralash (bo'lish) ni etadi. Kompetentsiyalarni bo'lib olish turli federatsiyalarda turlicha bo'lishiga qaramasdan nisbatan ko'prok tarqalgani ikkitadir. Federativ davlat tuzilishi bu teng huquqiy respublikalar, muhtoriyatlar, shtatlar, kantonlar, viloyatlar va okruglarning ihtiyoriy birlashuvidan iboratdir. Masalan; AQSh. Argentina, Braziliya, Avstriya, Meksika, Germaniya, Hindiston, Rossiya va boshqalar. Federatsiyaga kiruvchi davlatlar ihtiyoriy ravishda markazlashgan davlatni tashqil qiladi. Federatsiyada barcha a'zolar nomidan mamlakat ichki va tashqi siyosatida yagona ish olib boradi va ularning manfaatlari himoya qilinadi. Federativ davlat konstituttsiyasida davlatning boshqarishiday vakolatlar federatsiya vakolatiga, qandaylari uning a'zolariga berilishi ko'rsatilgan. Sobiq Sovet davlati Konstituttsiyaga asosan Federativ davlat edi. Sho'ro davlati markazlashgan, buyruqbozlikka va partiya dikdiktaturasiga asoslangan unitar davlat edi. Konfederatsiya bir necha davlatlarning muhim- iqtisodiy, mudofaa masalalari bo'yicha ittifoqidir. Konfederatsiyada yagona davlat hududi yagona oliy va idora etuvchi organlari bo'lmaydi. Har bir Konfederatsiyaga kiruvchi davlat muhim masalalri bo'yicha boshqarish huquqini konfederatsiyaga berib, ularning mustaqilligini saqlab qoladi. Masalan; AQSh, 1776-1787 yillarda Konfederatsiya shaklida bo'lgan, 1952 yilda Misr va Suriya davlatlari birlashib Birlashgan Arab Respublikasi Konfederatsiyasini tuzadi. Keyinchalik bu tarkalib ketadi. 1982 yilda Gambiya va Senegal Respublikalari birlashib Senegambiya Konfederatsiyasini tuzdi. 1989 yilda bu Konfederatsiya ham tarqaldi. Siyosiy rejim – bu siyosiy xokimiyatni amalga oshirish usullari (metodlari) bo'lib, jamiyatning siyosiy natijaviy axvoli,ya'ni har xil siyosiy

kuchlarning qarama-qarshiliklari va o’zaro harakatlaridan xamda turlicha siyosiy institutlarning amal qilishidan mujassamlashadigan vav demokratizm yoki antidemokratizm bilan tavsiflanadigan usullar yig’indisidan iborat.Bu ta'rif yuqoridagi tushunchaning (siyosiy rejim) quyidagi belgilarni ajratib ko’rsatishni etadi:

3.SIYOSIY TARTIB.

1. ***Siyosiy rejim*** *– bu siyosiy xokimiyatni amalga oshirish usullari (metodlari) bo’lib, jamiyatning siyosiy natijaviy axvoli,ya'ni har xil siyosiy kuchlarning qarama-qarshiliklari va o’zaro harakatlaridan xamda turlicha siyosiy institutlarning amal qilishidan mujassamlashadigan vav demokratizm yoki antidemokratizm bilan tavsiflanadigan usullar yig’indisidan iborat.*
2. Bu ta'rif yuqoridagi tushunchaning (siyosiy rejim) quyidagi belgilarni ajratib ko’rsatishni etadi:
3. siyosiy rejim avvalambor davlatda siyosiy xokimiyat qanday usullar bilan amalga oshirilishiga bog’liq;(agar ishontirish, kelishuv, qonunchilik, parlamentlik yoki huquqiy majburlov usullari bo’lsa, u albatta rogressiv, ya'ni demokratik rejim) yoki aksincha usullar kulansa – antidemokratik, reaktsion rejim bo’ladi.
4. har bir mamlakatda siyosiy rejim siyosiy kuchlarning nisbati bilan belgilanadi.Siyosiy kuchlar balansi bir xil bo’lsa, bu erda stabil rejim bo’ladi.

Bu davlat hokmiyatining amalga oshirish usuli yig’indisidir. Bu usullar ikki hil bo’ladi, demokratik siyosiy tartib va nodemokratik siyosiy tartib, Demokratik siyosiy tartibda davlatda fuqarolarning huquq va burchlarini ta'minlash, xalqni turli jamoat tashqilatlariga birlashtirish, davlat hokimiyat va boshqaruv organlarini xalq ishtirokida saylash, davlatni boshqarishda keng xalq ommasini ishtirok etishi va boshqalar. Masalan; O’zbekiston Respublikasida davlat siyosiy tartib bo’yicha demokratik asosda idora etiladi. ***Demokratik tartib asosan ikki hil usulda amalga oshiriladi.***

1.***Vaqillik demokratiyasi usuli***- bunda O’zbekison hududida yashovchi aholi Oliy Majlisga vaqil deputat saylaydi, davlat aahamiyatiga ega bo’lgan iqtisodiy, siyosiy va huquqiy masalalarni xalqning vaqili deputatlar sessiyasida muhokama qilib, ularning qabul qilib, davlatni idora etishda xalq o’z vaqillari orqali katnashadi.

***2. Bevosita demokratiya usuli-*** O’zbekistonda demokratiyani amalga oshirishda, davlatni idora etishda xalqning bevosita ishtirokini ta'minlaydi, ya'ni davlat ahamiyatiga ega bo’lgan masalalarni xalqning muhokamasiga qo’yadi, xalq shu yo’l bilan davlatni boshqarishda ishtirok etadi.

Nodemokratik siyosiy tartib-demokratik usulga qarshi bo’lib, totalitar, avtoritar va fashistik shakllarda bo’ladi. Totalitar tartibda davlat boshqaruvi markazlashgan va buyruqbozlik asosida bo’ladi. Fuqarolarning huquq va burchlari ta'minlanadi, barcha davlat hokimiyati yagona diktatura yo’lida bo’ladi. Masalan, sobiq, Sovet davlati markazlashgan partiya diktaturasi asosida boshqarilgan. Shuning uchun bu davlat inkirozga uchradi.

Avtoritar tartib –bu qonunlarni amalga oshirmaydigan, xalq itoat hilgan davlat tepasida turuvchi ,bir kishi podsho, monorhning cheklanmagan hokimiyatidir.

Fashiistik tartib-bu jamiyatdagi barcha demokratik erkinliklarni taraqqiyparvar kuchlarni bostiradigan terroristik diktaturadir. Bunda jamiyat hayotining barcha sohalari harbiylashtiriladi. Bu hokimiyatning asosiy usuli hirgin va zo’ravonlikdir. Masalan, bu tartib HH asrning ikkinchi yarmida Germaniya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Janubiy Afrika Respublikasi va Chilada o’rnatiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko’rinib turibdiki, davlat shakllari uch qismdan-davlat boshqarish, davlat tuzilishi va siyosiy tartibdan iborat. Bo’lar har bir davlatning iqtisodiy tuzilishi jamiyatdagi milliy munosabatlarga qarab belgilanib, o’zgarib rivojlanibturadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1.Davlatning shakli tushunchasi qanday elementlardan tashqil topgan

2.Davlat boshqaruv shakli deb nimaga aytilad

3.Davlat boshqaruvining qanday shakllari mavjud

4.Davlat shakllari hilma-hilligining asosiy belgilar

5.Monarxiya va Respublika boshqaruv shakllarining asosiy belgilarini anihlang

6.Aralash boshqaruv shakllarining hususiyatlarini aytib bering

7.Davlat tuzilishiga ko’ra turlar

8.Unitar davlatning federativ davlatdan qanday farqi bor

9.Demokratiya nima

10.Demokratiyaning qanday turlari mavjud

11.Totalitarizm nima

12.Avtoritar davlatlarga misol keltiring

# DAVLAT FUNKTSIYALARI.

**Darsning maqsadi**: Talabalarda davlat funktsiyalari, vazifalari,davlat funktsiyalariga ta'sir qiluvchi omillari to’g’risida tushunchalar berish.

**Darsning ko’rgazmasi:** Davlat funktsiyalari tasnifi chizmasi.

**Asosiy so’z va tayanch tushgunchalar:**Davlat funktsiyasi,davlat vazifalari, Davlat funktsiyalarini tasniflash asoslari (mezonlari) tashqi funktsiyalar,ichki funktsiyalar, doimiy va muqqahhat funktsiyalar, iqtisodiy, mudofaa funktsiyalari.

Reja:

1.Davlat funktsiyasini tushunchasi va turlari.

3.Davlat funktsiyasini amalga oshirish usullari va shakllari.

Foydalangan adabiyotlar.


1.Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li T.1992 yil.

2.Karimov I.A. O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga hos yo’li. O’zbekiston. 1993 yil.

3.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. O’zbekiston. 1995 yil.

4.Odilqoriev H. O’zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlarni taqsimlash printsipi. T. Adolat.1995 yil.

5.To’laganovA.A. Davlat hokimiyatining vaqillik va o’z-o’zini boshqarish organlarining faoliyatini tashqil etish. Universitet. 1996 yil.

6. D.Jumabaev. K.N.Razdelenie vlastey v gosudarstvennom mexanizmi Respubliki O’zbekiston. T.1996, 151 bet

7. Davlat va xuquq nazariyasi. Mas'ul muxarrirlar B.Boboev, T.Odilqoriev. -T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 2000. –26.

8.Saidov A., Tojixonov U. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2.Davlat nazariyasi.O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y.207-214 betlar.

9.Saidov A.,Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999 yil. 32-34, 189, 131 betlar.

10.Odilqoriev X. O’zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va xokimiyatlarni taqsimlash printsipi. T. Adolat.1995 yil.

11.Ro’zmetov X. Xokimliklar bilan o’zini-o’zi boshqarish organlari o’rtasidagi munosabatlar. T., “Jamiyat va boshqaruv” jurnal 2004 , 51-bet

12.Ismoilova G. O’zini-o’zi boshqarish organlari faoliyatini xuquqiy jixatdan tartibga solish. T., “Jamiyat va boshqaruv” jurnal 2004 , 59-61bet
13.Ismoilov Sh. Prezidentlik institutining tashqil topishi va mustaxkamlanishi. T., “Jamiyat va boshqaruv” jurnal 2004 , 65-66 bet

Nazorat savollari.

1Davlatning funktsiyasi deganda nimani tushuniladih

2.Davla qanday ichki va tashqi funktsiyalarni amalga oshiradi

3.Davla funktsiyalari qanday usullarda amalga oshiriladi

4.Davlat funktsiyalarini amalga oshirishning qanday shakllari mavjud

5.Nimalar davlat funktsiyalarining ta'sir etish ob'ektlari bo’lib hisoblanadi

6.Davlat funktsiyalari harakat muddati va davomiyligiga ko’ra qanday funktsiyalarga bo’linadi

7.Ijtimoiy ahamiyatiga ko’ra qanday funktsiyalarga nechta turga bo’linadi

1.Davlat funktsiyasining tushunchasi va turlari.

***Davlatning funktsiyasi - uning oldida to’rgan vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat foliyatining asosiy yunalishi bo’lib, davlatni mohiyati va ishtimoiy belgilarini, jamiyatni boshqarish uchun davlatni maksad va vazifalarni amalga oshirish usul va shakllaridir.*** Bu tarifdan quyidagi davlat funktsiyasining belgilari kelib chiqadi.

1.Davlatning vazifasi ya'niy iqtisodiy, madaniy, siyosiy va boshqalar u amalga oshiradigan asosiy yo’lni belgilaydi, barcha faoliyatini shu vazifalarni bajarishga qaratiladi. Shuning uchun davlatning funktsiyalari uning vazifalaridan kelib chiqadi.

2.Davlat funktsiyasida –uning mohiyati nomoyon bo’ladi. Funktsiya orqali davlat mohiyati, uning jamiyati bilan munosabatlari ko’rinadi.

3.Davlat vazifalarini amalga oshirish uchun funktsiya orqali jamiyat boshqarilib, u amaliy ahamiyatga ega bo’ladi.

4.Davlatning vazifa va funktsiyalari jamiyatning iqtisodiy, sinfiy, milliy va madaniy tuzilishi bilan belgilanadi.

5.Davlat funktsiyasi orqali har bir tarixiy bosqichida davlat boshqariladi. Davlat funktsiyasi ichki va tashqi funktsiyalarga bo’linadi. Ichki funktsiyada -- davlatni ichki vazifalari, tashqi funktsiyada esa tashqi vazifalari amalga oshiriladi.

6.Davlat funktsiyasiga huquqiy shakllar davlatni huquq ijodgarligi va huquqni ijro etish faoliyati kiradi.

7. Davlat funktsiyasi davlatni boshqarishda va majbur qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston davlatining asosiy vazifasi –jamiyatdagi barcha ishtimoiy guruh millat, elat, guruh, tabaqalarlaarning manfaatlaarini ifodalab, bozor iqtisodiy siyosatiga utib, demakratik huquqiy davlat kurishdir. Davlatning ichki sohada asosiy vazifasi iqtisodiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohada turli islohatlar o'tkazib bozor iqtisodini asosini yaratishdir. Tashqi vazifasi esa jaxondagi barcha davlatlar bilan aloqa qilib, davlatni tashqi sohasiadgi vazifalarini amalga oshirishdir. Davlat funktsiyasi uning ichki sohadagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, siyosiy va tashqi vazifalaridan kelib chiqadi.

*Davlat funktsiyasining turlari.*

Davlat funktsiyasi ichki va tashqi turlarga bo'linadi. Ichki funktsiya qancha kuchli bo'lsa, tashqi funktsiya shunchalik kuchli bo'ladi. Davlatning ichki funktsiyasi uning oldida to'rgan muxim iqtisodiy ijtimoiy madaniy va siyosiy vazifalarni amalga oshiradi. Iqtisodiy sohada tashabbuskorlik va ishbilarmonlik asosida htisodni mustahkamlab bosqichma-bosqich bozor siyosatiga o'tishda barcha mulk shaklini huquqiy tengligini ta'minlash va qurhlash. Htisodni markazlashtirmaslik, korhona va tashqilotlarning mustahkamligini kengaytirish. Fuqarolarning mehnat qilish, dam olish, ishsizlarga oylik berish, ish haqi, pensiyalar va nafaqalarning kafolatlangan eng kam mhdorini joriy qilish. Tabiiy boyliklardan keng foydalanish va atrof muhitni himoya qilish kiradi.

Ijtimoiy va ma'naviy sohada amalga oshiradigan vazifalar-bu barcha insonparvarlik g'oyalariga amal qilishlik. Halqning ma'naviy va ahloqiy pokligini qayta tiklash. Halqning milliy madaniyatini boyitish, aynhsa davlat tili bo'lgan o'zbek tilini yanada rivojlantirish. Ijtimoiy adolat qoidalarini ruyobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va boshqalar.

Siyosiy sohada quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak. Halqning milliy hususiyatlarini hisobga olib, barcha ijtimoiy guruhlar, millat va elatlarning manfatlariga

mos keladigan O’zbekistonda drmokratik huquqiy davlat qurish. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni yaratish, qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash. Bir mafko’radan voz kechish, turli mafko’ralar bo’lishligi, demokratiyaning zarur sharti bo’lgan ko’ppartiyaviylikni rivojlantirish ( vatan taraqqiyoti, sotsial demokratikat”, milliy tiklanish, halq demokratik va fidoiylar partiyasi ). Shu vazifalardan O’zbekiston Respublikasining ichki funksiyalari kelib chhadi. Iqtisodiy funksiya, madaniy-ma’naviy tarbiyaviy funksiya, turli mulk shakllarini qurhlash va mustahkamlsh funksiyasi, moliya nazorat funksiyasi aholiga ijtimoiy himoya ko’rsatish funksiyasi, aholini ijtimoiy himoya qilish funksiyasi, tabiatni qurhlash va ekologik funksiya, qonuniylik va huquq tartibotini mustahkamlash funksiyasi, fuqarolarning huquq, burch va erkinliklarini ta’minlash funksiyasi va davlatni idora etishda halq ommasining ishtiroki va oshkoralik funksiyalari.

O’zbekiston Respublikasining tashqi vazifalariga mamlakatni boshqa davlatning hujumidan himoya qilish, tinchlikni mustahkamlash, turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan tinch-totuv yashash, davlatni harbiy qudratini mustahkamlash ishlari kiradi. Davlatning shu vazifalaridan tashqi funksiyaning tubandagi elementlari kelib chihadi. Turli davlatlar bilan tinch-totuv yashash funkfiyasi, horijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish funksiyasi, mamlakatni boshqa davlatlar hujumidan himoya qilish funksiyasi, qorolli kuchlarni takomillashtirish, davlat chegaralarini qo’riqlash va jaxondagi tinchlikni mustahkamlash ishlariga faol qatnashish funksiyalaridan iborat.

*2. Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari va usullari.*

***Davlat ichki va tashqi funksiyalarini quyidagi shakllar orqali amalga oshiradi: 1)****Huquqiy normani qabul qilish va ularni amalga oshirish orqali.****2)*** *Huquqiy bo’lmagan ya’ni – tashiliy shakllar orqali.*

Davlat ichki va tashqi funksiyalarini huquqiy normallar qabuл qilish va ularni amalga oshirish orqali bajaradi. O’zbekiston bozor htisodiga o’tish uning iqtisodiy bazasini yaratish va davlat vazifalrini bajarish uchun ko’pgina qonunlar qabul qildi. Chunonchi 1991 yil 19 noyabrda “ Mulkni bozor tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirish tug’risida ” qonun, mulk haqida, banklar va bank faoliyati tug’risida

qonun ( 15 fevral 1991 yil ), tadbirkorlik tug'risida ho'jalik jamiyatlari va shirkatlari tug'risida qonun (9 dekabr 1992 yil), qimmatli qog'ozlar va fond birjasi tug'risida qonun (2 sentyabr 1993 yil ), chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari tug'risida qonun (5 may 1994 yil ) va boshqalar.

Davlatni tashqi funksiyalari ham tegishli qonunlar qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekiston davlatini mudofaa qilish vazifasini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida 4-bob tashqi siyosat deb belgilangan. Bundan tasghqari O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992 yil 3 iyo'lda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy hizmat tug'risida" qonun qabul qilingan. Bo'larga asosan armiyaga hizmat qilish, vatanni himoya qilish har bir fuqaroning burchidir.

1.Davlatning funksiyasini huquqiy normallar qabul qilish va ularni amalga oshirish shakli quyidagi 3 ta huquqiy usullardan iborat:

* Huquqiy normallarni bajarish – ya'ni ijro etish usuli. O'zbekistonda davlat organlari , jamoat birlashmalari, mansabdor shahslar va fuqarolar ish faoliyatida huquqiy normallarni bajarib, ularga amal qilib davlatning ichki va tashqi funksiyalarni bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Unda davlat, uning organlari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar deb mustahkamlab qo'yilgan.

* Huquqiy normallar bilan jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish usuli. Bu usulni amalga oshiruvchi davlatni mahsus huquqni muhofaza qiluvchi organlari- sud, prokratura, ichki ishlar, adliya, milly havfsizlak organlari mavjud bo'lib, bo'lar huquqiy normallar bilan davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shahslar va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoy munosabatlarni tartibga solib davlat funksiyalarini amalga oshiradi.

* Davlat funksiyalarini amalga oshirishni huquqiy normallarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan ya'ni tashqiliy shakllari. Bunda davlat vazifalarini ya'ni funksiyalarni turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Ya'ni davlat apparatini (davlat

organlarini) ishini boshqarishda va takomillashtirishda davlatni idora etishda oshkoralik va demokratiya tamoyili, keng halq ommasni halqni boshqarishda boshqarishda ishtirok etishi, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, qonunchilik huquqiy tartibotni mustahlamlash va hokazo.

*Davlat funksiyalarini amalga oshirish usullari 2 hil bo'ladi.*

1.Ishontirish usuli-bu barcha davlat fuqarolarini tarbiyalash orqali davlat ishlarini kishilar ongli ongli ravishda amalga oshiradi. Bu usulda davlat kishilarni rag'batlantiradi, turli mukofotlar beradi.

2.Majbur qilish usulida intizom, ma'muriy, moddiy, jinoiy va javobgarliklar belgilanadi.

Demak davlat funksiyalarining malga oshirish shakl va usullar har bir davrda davlatning mohiyati va belgilari bilan belgilanadi.

**Davlat xokimiyati va uni amalga oshirish mexanizmi.**

**Darsning maqsadi:** Talabalarga davlat xokimiyati tushunchasi, asoslari, belgilari, tuzilishi va uni amalga oshirish usullari to'g'risida tushuncha berish. Davlat organlariga va ular faoliyatining adolatli boshqaruviga ishonch hissini oshirish.

**Darsning ko'rgazmasi:** Demokratiya va uning mezonlari, O'zbekiston Respublikasi davlat mexanizmi davlat apparati tizimi chizmasi. O'zbekiston Respublikasi Konstituiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi to'g'risidagi qonun.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar:** Davlat xokimiyati, siyosiy xokimiyat davlat mexanizmi, xokimiyat vakolatlarining bo'linish printsipi, davlat apparati, davlat idorasi, davlat organi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning xuquqiy kafolati. T.1993, 11 bet.
2. Karimov.I.A. O'zbekiston: milliy isthlol, htisod, siyosat, mafko'ra. T. 1. T.1996, 127 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 1998.
4. D.Jumabaev. K.N.Razdelenie vlastey v gosudarstvennom mexanizmi Respubliki O'zbekiston. T.1996, 151 bet
5. Davlat va xuquq nazariyasi. T.2000.

6.Saidov A., Tojixonov U. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2.Davlat nazariyasi.O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y.207-214 betlar.

7.Saidov A.Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O'zbekiston RespublikasiIIV Akademiyasi, 1999 yil.32-34, 189, 131 betlar.

8.D.Jumabaev. K.N.Razdelenie vlastey v gosudarstvennom mexanizmi Respubliki O'zbekiston. T.1996, 151 bet

9. Davlat va xuquq nazariyasi. Mas'ul muharrirlar B.Boboev, T.Odilqoriev. -T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi, 2000. –26.

10.Saidov A., Tojixonov U. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2.Davlat nazariyasi.O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y.207-214 betlar.

11.Saidov A.,Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1999 yil. 32-34, 189, 131 betlar.

12.Odilqoriev X. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va xokimiyatlarni taqsimlash printsipi. T. Adolat.1995 yil.

13.Ro'zmetov X. Xokimliklar bilan o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlar. T., "Jamiyat va boshqaruv" jurnal 2004 , 51-bet

14.Ismoilova G. O'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini xuquqiy jixatdan tartibga solish. T., "Jamiyat va boshqaruv" jurnal 2004 , 59-61bet

15.Ismoilov Sh. Prezidentlik institutining tashqil topishi va mustaxkamlanishi. T., “Jamiyat va boshqaruv” jurnal 2004 , 65-66 bet

**Reja:**

1.Davlat xokimiyatining moxiyati va asoslari.

2.Davlat xokimiyatining tuzilishi va uni amalga oshirish usullari.

**1.Davlat hokimyatining mohiyati va asosiy belgilari.**

***Davlat hokimyati-bu zo'rlikka asoslangan siyosiy hokimiyat bo'lib u jamiyatda turli millat va guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarga rahbarlik qilishni amalga oshiradi***. Davlat hokimyati bu ijtimoiy hodisa bo'lib, u davlat hududida kishilar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, uning vazifalarini amalga oshirib, davlatni ichki va tashqi hujumlardan himoya qiladi. Davlat vazifalarini amalga oshirishda halqning irodasini huquq va huquqiy normallarda ifodalab, ularning bajarilishi barcha uchun umummajburiy bo'ladi. Bu normallar davlatning zo'rlik kuchi bilan amalga oshiriladi. Jamiyatda iqtisodiy, siyosiy va madaniy rahbarlik qilish jarayoni murakkab bo'lib davlat hokimyati davlat mehanizmi unga kiruvchi davlat apparati (davlat organlarining yigíndisi) va korhonalari orqali amalga oshiriladi.

*Davlat hokimiyati munosabatlarining tuzilishi quyidagilardan iborat:*

1) Davlat hokimiyatining sub'ektlari (turli sinflar, millat, guruh, tabaqalar va fuqarolar).

2) Davlat hokimiyat munosabtlarining ob'ekti (halqning birlashmalari, davlat organlari, tashqilot, muassasa va korhonalar).

3) Davlat hokimiyat munosabatlarining mazmun-sub'ektlarini davlatni idora etish majburiy va ishontirish usullari.

Davlat hokimyati siyosiy hokimyat bo'lib, quyidagi belgilarga ega.

1. Дavlat hokimyati bu- zo'rlikka asoslangan bo'lib mahsus kishilar davlatni boshqarish bilan shug'ullanadi. Bu hokimiyat kishilar o'rtasida turli iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy ijtimoiy munosabatlarni amalaga oshiradi.

2. Davlat hokimiyati davlat mehanizmidan iborat bo'lib, bu murakkab tuzilishga ega. Chunki bu mehanizm barcha davlat organlari muassasalari va korhonalarni o'zida

birlashtiradi. Bo’lar bir-biri bilan o’zviy bog’lh bo’lib, hokimiyatni amalga oshirib, davlat zo’rlik kuchiga asoslanadi.

3.Davlat mexanizmiga kiruvchi tarkibiy qismlar –davlat organlari muassasalari va korxonalari ma'muriy va xududiy belgilarga qarab tuziladi.

4.Davlat mexanizmiga kiruvchi bu tarkibiy qismlar o’z a'zolarini – ya'ni fuqarolarning xuquq va burchlarini amalga oshiradi va kafolatlaydi.

Davlat xokimiyatining moxiyati va xususiyatlari uning siyosiy va sinfiy tabiatida ko’rinadi. Shuning uchun yuridik adabiyotda «davlat xokimiyati» va «siyosiy xokimiyat» iboralari bir xil ma'noni bildiradi. Davlat xokimiyati-bu siyosiy va sinfiy harakterga egadir. Uning sinfiyligi qarama-qarshi sinflarga bo’lingan jamiyatlarga (quldorlik, feodal) xosdir. Davlat xokimiyati iqtisodiy va siyosiy jixatdan xukmron sinf qo’lida edi. Davlat xokimiyati – xukmron sinf quldorlar, feodallar manfaati uchun xizmat qiladi.

Demokratik jamiyatda davlat xokimiyati xukmron sinf manfaatlarini ifodalamasdan, barcha sinf millat, elat, tabaqalarlar va xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Davlat xokimiyati moxiyatiga ko’ra demokratik (xalq xokimiyati) va gayri demokratik xokimiyatlarga bo’linadi. Demokratik xokimiyat-bu xalqning barcha millat, elat, tabaqalar va guruxlarning davlat vakolati organiga deputat saylab, ular barcha ishlarni sessiyada kurib, ishlar orqali ularning manfaatlarini ifodalaydi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi – mustaqil demokratik xuquqiy davlatdir. Bu konstitutsiyaga asosan insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy e'thodlaridin kat'i nazar fuqarolarning xuquqlari va erkinliklarini ta'minlaydigan davlatdir. O’zbekistonda Demokratik xokimiyat asosida bozor htisodiga o’tilmokda. Prezident I.A.Karimov ko’rsatadiki, O’zbekistonning yangilanish va rivojlantirishning o’z yo’li 4 ta asosiy negiziga asoslanadi. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiklik, xalqimizning ma'naviy merosini mustaqkamlash va rivojlantirish. Insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish va vatanparvarlik.

G’ayri demokratik xokimiyat – bu bu ozchilikning ko’pchilik kishilar ustidan xukmronligidir. Bu xokimiyat jazolash, majbur qilish organlarini kuchaytiradi. Fuqarolarning xuquq va erkinliklarini cheklaydi.

Davlat organi - bu davlat apparatining mustaqil bo’limmalaridan biri bo’lib, qonunda belgilangan tartibda yaratiladi, tuzilishiga xamda ma'lum vakolatlarga ega.Bu organlarning tushunchasi va belgilarini ochib berish davlat mexanizmi to’g’risidagi bo’limmalarni chukurrok o’rganishga yordam beradi.

Xech kaysi davlat organi nisbiy mustaqillikka ega bo’lgan davlat apparatining bir qismi xamda tuzilishi jixatidan uziga xos zveno bo’lib quyidagi asosiy belgilarga egadir:

- ma'lum soxalarda davlatning nomidan uning vazifalari va funktsiyalarini amalga oshiradi, davlat apparatida uzining urniga ega va uning boshqa qismlari (zvenolari) bilan mustaxkam boglangandir;

- davlat organi davlat xizmatlari tarkibidan iborat bo’lib, uz navbatida ular o’zaro va davlat organi bilan xuquqiy munosabatda bo’ladilar, ya'ni davlatva shaxsiy tarkibning xuquqiy alokasini urnatadi.Davlat xizmatchilarining xuquq va vazifalari qonun tomonidan belgilanadi va ularning xuquqiy status (vakolat) lari ta'minlanadi.Ular tomonidan foydalaniladigan vakolat doirasi xajmi va tartibi xam qonun tomonidan urnatiladi xamda lavozimlik qoidalari (instruktsiya), shtat jadavallarida konkretlashtiriladi;

- xizmat turlariga va shaxsiy tarkib soniga karab ma'lum ichki tuzilishga ega;

davlat organiningmuxim belgilaridan biri, uning ma'lum mazmun va xajmga ega bo’lgan vakolatli (xokimlik) kompetentsiyasining mavjudligi, ya'ni ma'lum vazifalarga, funktsiyalarga, xuquq va majburiyatlarga egaligi;

- uni davlat korxonalari va muassasalaridan ajratib turadigan xokimlik vakolatlariga ega ekanligi.Bu vakolatlar quyidagilarda uz aksini topadi:

bajarilishi shart bo’lgan xuquqiy aktlarni chiqarish mumkinligi;

turlicha usullar yordamida, jumladan majburlov usuliga asoslanib, davlat organlari xuquqiy aktlarining bajarilishi ta'minlash.

-ularning qonunlarda belgilangan tartibda tashqil etilishi,uz kompetentsiyalarini amalga oshirish uchun moddiy bazaga (iqtisodiy) ega ekanligi;

-faoliyatining xududiy masshtab (ma'lum doira) ga egaligi va boshqalar.

Davlat orgonlarining (apparatining)ajralib turadigan xususiyatlaridan biri shundaki, ijro etuvchiga qaratilgan yuridik aktlarni qabul qilishi, ishontirish, majburlov va tarbiya choralarini kurish; bu aktlarni bajarishni ta'minlashga qaratilgan ragbatlantirish yo’llarini kullashi; ularning tadbiki buyicha nazoratni amalga oshirishidadir. Davlat organlari bir-biridan shakllanish manbalariga karab (boshlangich, xosilaviy); faoliyatning xududiy doirsiga karab (respublika, viloyat, maxalliy uz-uzini boshqarish); kompetentsiya xarakteriga karab ( umumiy va maxsus kompetentsiyalariga ega organlar);xokimiyatni tadbik etishiga karab.

Davlat organlari tashqiliy - xududiy faoliyati buyicha qonunchilik, ijrochilik, xuquqni muxofaza etuvchi organlarga, nazorat va farmoyish beruvchi organlarga bo’linadi.

Yana bir narsaga e'tibor berish lozimki, ya'ni davlat organlarining faoliyatini xokimlik xarakteriga egaligini ikki tomonining mavjudligi - bo’lar siyosiy va ma'muriy tomonlardir.

Ba'zi bir davlatlarda davlat apparati butunligcha siyosiylashgan bo’lishi mumkin, ya'ni " yuqori" dagilarni erkini amalga oshiruvchi bo’lsa (monarx,boshqaruvchi qatlam), demokratik davlatlarda siyosat bilan davlat apparatining ma'lum qismi (zvenosi), ya'ni jamiyatning siyosatini shakllantiruvchi va amalga oshiruvchilar shugullanadilar.

Lekin tashqiliy demokratik davlat apparatida davlat organlarining siyosatga bog’liq bo’lmagan (siyosatlashmagan) bir qismi doimo amalda bo’lib, ular jamiyatning kundalik boshqaruv ishlari bilan, uzlarining xokimlik vakolatiga ega vazifalarni amalga oshirish bilan mashgul bo’ladilar.Bu organlarning faoliyati asosan konstitutsiyada kuzda to’tiladi.Ular insonlarning xuquqlarini, xar kanday fizik shaxslarning qonuniy manfaatlarini (davlat ximoiyasidagi) qo’riqlashga qaratilgan bo’lib, imkon doirasida siyosatga  bog’liq bo’lmasliklari zarur.

***Davlat organlarining turlari:*** *markaziy va boshqaruv organlari; oliy va maxalliy vaqillik organlari.*

Davlat organlari turli xil  asoslarga ko’ra tasniflanadi, jumladan: paydo bo’lish uslublariga ko’ra; xokimlik vakolatlarining xajmiga ko’ra; kompetentsiyalarining kengligiga ko’ra va x.:

**Paydo bo’lish uslublariga ko’ra**  davlat organlari *boshlangich va xosilaviy organlarga bo’linadi,* ya'ni *birinchisi* boshqa xech kanday organlar tomonidan yaratilmaydi, ular fakat meros yo’li bilan (monarx) yoki urnatilgan tartib buyicha saylovchilardan xokimlik vakolatlarini oladilar.*Ikkinchisi* esa, boshlangich organlar tomonidan yaratiladi va tegishli vakolatlarni oladilar;

**Xokimlik vakolatlarini xajmiga ko’ra** davlat organlari *oliy va maxaliy organlarga* tasniflanadi.Davlatning oliy organlari davlat xokimiyatini bir muncha tula ravishda ifodalab uni butun xududga yoyishadi (amalga oshirishadi).Davlatning maxalliy organlari ma'muriy - xududiy birikmalarda o’z funutsiyalarini amalga oshirishadi, va ularning vakolatlari xam ushbu xududlarga nisbatan bo’ladi;

**Kompetentsiyalarning kengligiga ko’ra**, davlat organlari *umumiy* xamda *maxsus kompetentsiyalarga* ega bo’lgan organlarga bo’linadi.*Birinchisi,* keng doiradagi masalalarni echish vakolatiga ega bo’lsa, *ikkinchisi* esa, ma'lum bir funktsiya yoki faoliyatni bajarishga iqtisoslashgan bo’ladi.Masalan, birinchisiga - xukumat qonunlarni bajara turib, davlat funklarining barchasini amalga oshirishda faol ishtirok etadi; ikkinchisiga - moliya, yuztitsiya vazirliklarini aytish mumkin.

Vaqillik davlat organlariga qonunchilik va maxalliy xokimiyat organlari kiradi.Ular axoli tomonidan saylanish orqali  shakllanadilar va ularning nomidan ish ko’radi xamda ular oldida javobgardirlar (ma'suldir).

Qonunchilik xokimiyatining funktsiyalarini davlatning oliy vaqillik organlari amalga oshiradilar.

Qonunchilik organi davlat mexanizmida bosh urinni egallaydi,chunki xokimiyatning taksimlanish printsipiga ko’ra qonunchilik xokimiyati bir muncha muximrogi bo’lib xisoblanadi. U umummajburiy talablarni urnatadi, uz navbatida bu

taliblar ijro xokimiyati tomoidan xa.tga tadbik etiladi,jumladan ular sud xokimiyatining faoliyati uchun xam qonunchilik bazasi (asosi) bo'lib xizmat qiladadi.

Davlat xokimiyatning maxaliy organlari va uz-uzini boshqaruv organlari vaqillik xarakateriga ega bo'lib, tegishli ma'muriy-xududiy birikmalarda xarakat qiladilar.

Davlat xokimiyatini tashqil etilishi masalasi Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi XVIII bobida uz ifodasini yorkin topgan bo'lib, uning 76-moddasida ko'rsatilishicha, " Uzbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vaqillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiradi", deyilgan.Konstitutsiyaning 78 - moddasida davlat xokimiyati oliy organining 24 ta banddan iborat kompetentsiyalari ko'rsatib berilgan.

Konstitutsiyaning 100-moddasida maxaliy davlat xokimiyati organining vakolat doiralari ixtiyoriga kiruvchi masalalar sanab o'tilgan, jumladan ularga quyidagilar kiradi:

- qonuniylikni, xuquq tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- xududlarni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirish;
- maxalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, maxalliy soliklar, yigimlarni belgilash, byudjetdan tashkari jamgarmalarni xosil qilish;
- maxalliy kommunal xujalikka raxbarlik qilish;
- atrof-muxitni muxofaza qilish;
- fuqarolik xolati aktlarini kayt etishni ta'minlash;
- normativ xujjatlarni qabul qilish xamda Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va Uzbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Vaqillik xamda ijrochilik xokimiyatni tegishli xududlar ( viloyat, tuman, shaxar) xokimlari boshqaradilar.Jumladan, qonunchilik xokimiyati - bu kollegial xokimiyat bo'lib, xokimiyat bir kishining emas, balki kupchilik (kollektiv) ning kulida mujasamlanadi.Bu xokimiyat nafakat qonunchilik faoliyati bilan shugullanadi, balki moliyaviy masalalar (byudjet) va ularning bajarilishi ustidan nazorat, soliklari urnatish va boshqalar xam kiradi.Yoki boshqa muxim funktsiyalardan biri bo'lgan - oliy

ijrochilik va sud organlarini shakllantirish masalalari, mudofaa masalalari, tashki siyosiy jarayonlarda katnashish va boshqalar.

Ijro xokimiyati xukumatga qarashli bo'lib, bevosita malakatni boshqaradi.Xukumat asosan xukumat boshligi - (bosh vazir, vazirlar maxkamasi raisi, birinchi vazir, kantslar) dan, uning urinbosarlaridan va xukumat a'zolaridan, vazirlardan tashqil topadi.

Unitar davlatlarda bitta xukumat tashqil etiladi. Fedirativ davlatlarda umumfedirativ xukumat va federatsiya a'zolarining xukumati amal qiladi.Xukumat bir partiyali yoki koalitsiyali bo'lishi mumkin, u uzining kup kirrali faoliyatini kupchilik organlar, ya'ni vazirliklar, boshqarma (muassasa), komissiyalar va xokazalar orqali amalga oshiradi.

Ular uz navbatida davlat mexanizmining asosini ifodalovchi va tashqil euvchi murakkab, tarmoklararo davlat apparatiga bo'linib ketadi.

**2. Davlat xokimiyatining tuzilishi va uni amalga oshirish usullari.**

Istalgan davlat - tashqiliy jamiyatning normal xayot faoliyatni ta'minlash va kullab-kuvvatlash uchun,jamiyat va davlatning oldiga qo'yilgan vazifalarni echish uchun, kuzlangan maksadlarga erishmok uchun turlicha davlat tashqilotlarining xarakatda bo'lishi zarur. Davlat mexanizmisiz davlatning o'zi bo'lmaydi.

***Davlat mexanizmi - bu, davlat tashqilotlarining tizimi bo'lib ularning yordamida davlat xokimiyati tadbik etiladi,jamiyatga nisbatan davlat raxbarligi ta'minlanadi.***

Davlat tashqilotlarining barchasi o'zaro mustaxkam bog'liqdir.Ularning xar biri ma'lum vazifalarni bajaradi va uchumiy mexanizmning "xarakatga keltiruvchi remeni" sifatida yuzaga chiqadi, uz navbatida barcha organlar yagona tizimida o'zaro kelishgan xolda xarakat qiladilar.

Davlat mexanizmi - uning moxiyati bilan ifodalanadi.Shu bilan birga davlat mexanizmi iqtisodiy bazisning axvoliga, siyosiy kuchlarning munosabatlariga, davlatning maksadi, vazifalari va fukntsiyalariga uz ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat mexanizmi quyidagi xususiyatga ega:

- Davlat mexanizmi boshqaruv bilan shugullanuvchi maxsus kishilardan iborat (qonunijodkorligi, qonunlarning ijrosi bilan);

- Davlat mexanizmi tizilishi o'zgaruvchan va turli xil bo'ladi, lekin xar qanday sharoitda xam uning tarkibiga boshqaruv va majburlov organlari kiradi.Buni albatta natogri tushunmaslik kerak, ya'ni davlat mexanizmining ma'lum bir qismi fakat boshqaruv bilan kolgan qismi majburlov bilan shugullanadi deb. Real xayotda boshqaruv majburlov bir-biri bilan o'zaro almashib turadi.

Zamonaviy davlat mexanizmi uzining yuqori darajadagi murakkabligi bilan, organ va tashqilotlarining (muassasalari) turli-tumanligi bilan oldingilaridan ajralib turadi, katta - katta tizim osti organlariga ega.Uning bitta tizimosti organlarini davlatning oliy organlari (vaqillik, davlat boshligi, xukumat) yuzaga keltiradi(ifodalaydi).

Ikkinchi tizim osti organlariga - xuquq tartibot, sud,  tartibot, sud, rmiya, militsiya va boshqa organlar kiradi.Bu organlar oliy davlat organlarining karorlarini bajaradilar, jumladan davlat majuburlov kuchini ishlatib bo'lsayam.

Davlat  xokimiyati siyosiy xokimiyat bo'lib, uning zo'rlik kuchi bilan davlat mexanizmi orqali amalga oshirilib jamiyatga raxbarlik qiladi. Davlat mexanizmi-bu ddavlat apparatidan, ya'ni davlat organlarining  yig'indisidan, davlat muassasalaridan va korxonalaridan iborat.

Davlat mexanizmi – davlat xokimiyatini amalga oshiradigan, jamiyatga davlat raxbarligini ta'minlovchi davlat tashqilotlari tizimidir.

Yaqin utmishda davlatning vazifasi beistisno uyushgan zo'ravonlikdan iborat deb karalar, lekin uni umumfarovonlikni ta'minlash mexanizmi sifatida xech kimning xayoliga kelmas edi.

1. davlat mexanizmi boshqaruv bilan maxsus shugullanuvchi ishlardan iborat;
2. davlat mexanizmi idoralar va muassasalarning murakkab tizimidan iborat;
3. davlat maxkamasining barcha buginlari faoliyati tashiliy va moliyaviy vositalar bilan majburiy ta'sir yo'li bilan ham ta'minlanadi;
4. davlat mexanizmi o'z fuqarolarining qonuniy manfaatlarini va xuquqlarini ishonchli tarzda kafolatlash va muxofaza qilishga da'vat etilgan.

Davlat mexanizmining tuzilishi va uning faoliyati ob'ektiv tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, jamiyatni davlat yo’li bilan boshqarishning eng yo’qsak ob'ektivligini ta'minlaydi. Eng muxim tamoyillardan biri xokimiyatning bo’linishi tamoyilidir (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud xokimiyati).

Davlat maxkamasi (apparati) – davlat mexanizmining bir qismi bo’lib, davlat xokimiyatini amalga oshirish uchun xokimiyat vakolatlariga ega bo’lgan davlat organlari majmuidan iborat.

Davlat mexanizmi davlat maxkamasidan tashkari davlat muassasalari va davlat korxonalarini xam o’z ichiga oladi.

Davlat maxkamasi umumiy shaklda organlarning quyidagi ko’rinishlari tarzida namoyon bo’lishi mumkin:

a) qonun chiqaruvchi xokmiyat organlari.

b) Iiro etuvchi xokimiyat organlari.

v) sud xokmiyati organlari.

Davlatning maxsus organlari tizimida davlat xokimiyatning oliy va maxalliy vaqillik organlari ham mavjud. Davlatning oliy vaqillik organlari qonun chiqaruvchi xokimiyat funktsiyasini bajaradi. Davlat xokimiyatining maxalliy organlari va maxalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari vaqillik harakteriga ega bo’ladi.

***Davlat apparati-bu davlat mexanizmining bir qismi bo’lib, davlat organlarining yhindisidir, bo’lar davlat xokimiyatini amalga oshirish uchun xokimiyat vakolatiga ega.***

Muassasalarga esa oliy o’quv yurtlari, kasalxonalar, kinoteatrlar va boshqalar kiradi. Korxonalar esa maxsulot ishlab chiqarish uchun tuziladi va davlatning xujalik faoliyatini mustaxkamlaydi. Masalan, fermer va tadbirkorlar xujaligi, turli firmalar, kontserilar, zavod fabrikalar va boshqalar. Davlat apparati asosan qonun chiqaruvchi xokimiyat, ijro etuvchi xokimiyat (boshqaruv organlari va sud xokimiyati, xuquqni muxofaza qiluvchi) organlardan iborat.

Davlat organlari bir qancha belgilardan iborat. *Birinchidan,* davlat nomidan uning vazifa va funktsiyalarini amalga oshiradi. *Ikkrinchidan,* xokimiyat vakolatiga ega, bu bilan davlat korxonalari va muassasalaridan farq qiladi. U*chunchidan, t*egishli

kompetentsiyaga ya'ni vazifa, funktsiyalarga, xuquq va majburiyatga ega. To*’rtincidan,* ma'lum ma'muriy tuzilishiga va xududiy faoliyatga ega qonunga asosan tashqil topadi va yuridik akt chiqarib ishontirish va majburlash choralarini qo’llaiydi.

**Davlat xokimiyatini amalga oshirish usullari ikki xil bo’ladi.** *Ishotirish* va *majburlash* usullari, ishontirish usulida davlat xokimiyati maksadi, moxiyati va funktsiyalarini kishilarning ongi, erki, axloqi va goyaviy tushunish asosida olib boradi. Bu usul jamiyatdagi barcha mafko’raviy, ijtimoiy-ruxiy krashlar har bir fuqaroning shaxsiy va ko’pchilik jamoa ongini rivojlanishi orqali olib boriladi. Jamiyatda davlat xokimiyatini amalga oshirish uchun ikkita mafko’ra mavjud. Birinchisi, diniy mafko’ra, bu diniy ma'lumotga asoslanadi. Bunga asosan davlat xokimiyatnini amalga oshirishda diniy qarashlarga asoslanadi. Ikkinchisi, bu dunyoviy mafko’ra davlat xokimiyatini amalga oshirishda jamiyatdagi xukmron nazariya, urf-odat va aqloqiy qoidalarga asoslanadi. Masalan, kelgusida farovon komunistik jamiyat kurishi, Amerika namunasidagi gullagan kapitalistik jamiyat kurish xaqidagi g’oyalarni amalga oshirish uchun jamiyatdagi bir qism aholi davlat xokimiyatidan foydalanilmoqda.

Majburlash usulida davlat manfaatini amalga oshirish maqsadida davlat xokimiyati tomonidan kishilarga moddiy, ruxiy va jismoniy ta'sir etadi. Majburlash usuli xuquqiy va noxuquqiy usullar orqali amalga oshiriladi. Noxuquqiy usul – bu davlat xokimiyatini amalga oshirishda xuquqiy normalarga amal qilishdir. Davlat xokimiyatini amalga oshirishlik uchun qonuniylik va adolatli siyosiy usulni nazorat qiladi. Qonuniylik buzilgan holda davlatni xuquqni muxofaza qiluvchi organlari ximoya qiladi. Davlat xokimiyatini amalga oshirishning xuquqiy usuli demokratik siyosiy tartibdagi davlatlarda kafolatlangan bo’lib, bu shu davlatda xuquqiy tizimning umumiy tamoyillari bilan, davlat xududida barcha fuqarolar uchun yagona va umumiyligi, davlatni zo’rlik kuchi orqali amalga oshirilishi, taraflarga xuquq va burch belgilanishi bilan belgilanadi.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.

1.Davlat mexanizmi nima

2.Davlat mexanizmining qanday belgilari mavjud

3.Davlat organi nima va uning qanday belgilari bor

4.Davlat organlari tavsiflanishiga  ko’ra qanday turlarga bo’linadi

5.Davlat apparati nima

6.Davlat xokimiyati nima

7.Davlat xokimiyati tuzilishiga ko’ra qanday turlarga bo’linadi

8.O’zbekistonda davlat xokimiyati yangilanishi va rivojlanishi qanday asosiy negizlarga asoslanadi

9.Davlat xokimiyatini qanday usullar yordamida amalga oshiriladi

## Xuquqning tushunchasi va moxiyati.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga xuquqning tushunchasi, moxiyatini, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni, axamiyatini o'rgatish orqali xuquqiy ongini oshirish va xuquqiy madaniyatini yo'qsaltirish xamda xuquqiy davlatni bunyod etishda faol ishtirok qiladigan xuquqiy bilimga ega komil insonni tarbiyalash.

**Darsning ko'rgazmasi:** Xuquq va davlat, xuquq belgilari, aqloq va xuquq, xuquqning funktsiyalari,xuquq printsiplari chizmasi.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalari:** Xuquqni normativ tushinish, ob'ektiv xuquq, sub'ektiv xuquq, tabiiy xuquq, pozitiv xuquq, xuquq tamoyillari,statistik, dinamik,negativ, tarbiyaviy funktsiyalar.

Reja:

1. Xuquqning mohiyati tushunchasi,belgilari, xususiyatlari.
2. Xuquqning asosiy tamoyillari.
3. Xuquqning funktsiyalari.
4. Xuquqning moqiyati xaqida turli xil nazariyalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar


1.Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning xuquqiy kafolatlari T.O'zbekiston. 1992 yil.

2.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T. : O'zbekiston, 1997.28-bet.

3.Tojixonov U. Isthlolimizning xuquqiy negizi. T. 1994 yil.

4.Xuquqiy demokratik isloxotlar. T. O'zbekiston. 1997 yil.

5.Odilqoriev X.T. O'zbekiston respublikasida qonun chiqarish jarayoni.T.O'zbekiston. 1995 yil.

6.Djonkorov A.T.Xuquq normalari. T. IIV Akademiyasi 1994 yil.

7. Saidov A.,TojixonovU. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2. Xuquq nazariyasi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y.

8.Saidov A.Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002 yil 30-33 bet.

9.Holmo'minov H.T. Davlat va xuquq nazariyasi. O'huv qo'llanmasi. T. 2000. - 11

10. Abdullayev M.I. Teoriya gosudarstva i prava: Uchebnik.-SPb.: Piter, 2003. -397 s.

## 1. Xuquqning moqiyati tushunchasi,belgilari, xususiyatlari.

Xuquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm sifatida insoniyat jamiyati taraqqiyoti qonunlariga muvofh ravishda rivojlanadi, takomillashib boradi.

Xuquqning asosiy moqiyati muayyan jamiyatda kishilar o’rtasida kelishuvni ta'minlash, ayrim fuqarolar asoyishtaligini saqlashga ko’maklashish, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy soqalarda davlat ishlab chhqan siyosatni amalga oshirilishi orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

Xuquq - bu qonunlar yig’indisi, muayyan xatti-qarakat qoidalari sifatida turli davrlarda va jamiyatlarda o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’ladi. xuquqning shakllariga, demokratik yoki muattasib, unga ijtimoiy adolat qoyalari qay darajada mujassamlashganligiga milliy an'analar, muayyan tarixiy sharoit davlat tepasidagi shaxslar va boshqa ko’pgina omillar ta'sir qiladi.

Xuquq - bu kishilarni ijodiy imkoniyatlarini qo’llab-quvvatlash
vositasida jamiyatning gullab-yashnashiga ko’maklashuvchi, kishilar xamkorligi uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi, yovo’z kuchlarni jilovlab turuvchi, bu kuchlarni fuqorolar, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon etkazishlariga yo’l qo’ymaydigan vositalar yhindisi bo’lmoqi kerak.

Xuquq shunchalik keng (buyuk) murakkab va ijtimoiy muxim bo’lgan fenomen bo’lib, uzining butun amaldagi faoliyatida unga nisbatan bo’lgan ilmiy qiziqish nafakat tugaydi, balki oshishi kuzatiladi.

Xozirgi yuridik fanlarda «xuquq» termini bir necha axamiyatga egaligi xakida suz yuritiladi va ulardan foydalaniladi.

1-dan, kishilarning ijtimoiy xuquqiy intilishlarini xuquq d-i, masalan, yashash xuquqi, xalklarning uz-uzini tanish xuquqi va x.k. bu intilish va bog’liqliklarning kishilarning va jamiyatning  tabiatidan kelib chiqib, tabiiy xuquq deb xisoblanadi;

2-dan, xuquq deb yuridik normalar tizimi tushuniladi. Bu xuquq ob'ektiv ma'noda quyidagicha tushuniladi, ya'ni xuquq normalari ba'zi bir shaxslarning erkiga bog’liq bo’lmasdan yaratiladi va xarakatda bo’ladi.

3-dan, bu atama orqali yuridik, fizik shaxslar yoki tashqilotlarning rasmiy tan olingan imkoniyatlarini belgilashadi;
4-dan, «xuquq» atamasini barcha xuquqiy xodisalarning tizimini belgilash uchun ishlatiladi (jumladan, tabiiy xuquqni ob'ektiv va sub'ektiv ma'nodagi xuquqni xamrab olgan xolda)

Xuquq – ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga soluvchi tizim bo'lib, asosiy qism qonunchilikda uz ifodasini topadi, rasmiy manbalarda normativlilik va rasmiy aniqlikka ega bo'lib, adolatparvarlik va erkinlik goyalariga suyanadi (tayanadi).

Xozirda xuquq tushunchasi va moxiyatini anglashda 3 xil yonlashuv mavjud bo'lib, ularga:

normativ yondashuv (podxod);

sotsiologik yondashuv;

falsafiy yondashuvlar kiradi.

Xuquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi maxsus tizimini xarakterlovchi muxim xususiyatlarni quyidagilar tashqil etadi.

Normativlik, xuquqning intellektual-erkiy xarakterdaligi, davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanishi, rasmiy aniqlik, tizimga egaligi va bshkalar..

Xuquq murakkab tizimiy tashqiliylikdan iborat bo'lib, uni tushunishning uchta elmentga bo'linishi katta axamiyat kasb etadi, ya'ni xuquqni tabiiy, pozitiv (ijobiy) va sub'ektiv xuquqlarga bo'linishidir.

A) tabiiy xuquq - bu inson va jamiyatning tabiati bilan shartlangan xuquq va erkinliklarning yigindisidir. Tabiiy xuquqning muxim qismidan biri bu inson xuquqidir.
B) pozitiv xuquq – bu davlat tomonidan qabul qilingan normalarda, qonunchilikda va boshqa manbalarda uz ifodasini topgan xuquqdir.
V) sub'ektiv xuquq – bu pozitiv xuquq normalariga asosan yuzaga keladigan, uning egasi manfaatlari va talablarini kanoatlantira oladigan individual imkoniyatlardir.

Yuqoridagi uchta elementlardan bittasining yukligi xuquqni muvozanatini buzadi (deformatsiya), ijtimoiy munosabatlarni va kishilarning xulqini tartibga solishdagi regulyatorlik xususiyatini yukotishga olib keladi.

Tabiiy xuquq nazariyasining asoschisi Gollandiyalik yurist olim Gugo Gratsiy bo’lib. Uning 1625 yilda yozilgan «Xuquq xaqida urush va tinchlik» kitobiga asoslanib berilgan. Bu nazariyaga asosan tabiiy xuquq insonga tabiat tomonidan berilgan bo’lib, bunga insoniyatning turmushi va yashashi xuquqi, ozodlik va tinchlik xuquqi, mulkka egalik xuquqi uning xayoti va sogligini jamiyat va davlat tomonidan qo’riqlash xuquqlari kiradi. Bu tabiiy xuquqlar O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining bir qancha moddalarida mustaxkamlangan. Masalan, yashash xuquqi har bir insonning o’zviy xuquqidir. (24 modda). Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik xuquqiga ega (25 modda). Xususiy mulk va boshqa barcha mulk shakllari teng xuquqli bo’lib, daxlsiz va davlat ximoyasidadir.(53 modda).

Xuquq jamiyat a'zolari xatti-qarakatlarini me'yorga soluvchi vositalar sifatida davlat xokimiyat va boshqaruv organlar tomonidan chiqariladigan omillar va boshqa xuquqiy xujjatlarda ifodalanadi.

Xuquq jamiyatda normativ belgilar yig’indisi bo’lib insonning ozodlik va adolat g’oyalariga asoslangan kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, barcha kishilar uchun umummajburiy bo’lgan turmush qoidalarining yig’indisidir.

Jamiyatda xuquq quyidagi vazifalarni bajaradi.

1) Kishilar o’rtasida turli iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

2) Xuquqbuzar shaxslarga nisbatan davlat tomonidan javobgarlik belgilanar ekan, bu bilan yangi munosabatlarni ximoya qiladi;

3) Xuquq jamiyatda kishilar o’rtasida xulq-atvor qoidalarini mustaxkamlaydi;

4) Xuquq kishilarning umuminsoniy axloqqa qarshi xatti-harakatlarini tugatishda muxim rol o’ynaydi.

| | Xuquq | Axloq |
|---|---|---|
| shakkllanish usullari<br>(***) | Davlat tomonidan urnatiladi (ishlab chiqiladi) | Stixiyali yuzaga keladi |

| Amal qilish shakli | Yozma manbalarda | Kishilar ongida |
|---|---|---|
| Ta'minlash usullari (uslub, yo’li) | Davlat tomonidan ta'minlanadi. | Jamiyatning ta'sir kuchi bilan kullab-kuvvatlanadi. |
| Ta'sir etish xarakteriga ko’ra | Tartibga solish mexanizmi orqali | Beovsita ong оркали |
| Xarakat etish doirasi | Davlat nazorati ostida bo’lgan munosabatlar | Davlat nazoratida bo’lmgan munosabatlar |

Xuquq normalari yuridik xamda qonunchilik amaliyotida yoki davlat va jamiyat tegishli institutlarinining amal qilish jarayonida yuzaga keladi.

Axloq normalari esa jamiyatning ma'naviy doirasida shakllanadi, jamiyatning tuzilishi (struktura)si va tashqilotlari bilan bog’liq bo’lmasdan, uni ijtimoiy ongidan ajratib bo’lmaydi.

Xuquq normalari xujjatlar ko’rinishida (akt normalari, normativ aktlar, sud karorlari, normativ shartnoma va b.) va kattik mustaxkamlangan bo’ladi.

Axloq normalari jamiyatchilik ongida mustaxkamlangan bo’lib, printsip, tushunchalar, goyalar, baxolar va x.k.lar ko’rinishida amal qiladi.

Axloq (ma'naviyat) – ijtimoiy normalarning turi bo’lib, jamiyat xayotini barcha tomonlarini xamrab oladi va tegishli baxo beradi. Xuquq normalari (yoki xuquq) bilan tartibga solingan bir qator ijtimoiy munosabatlar axloq tomonidan xam tartibga solinadi.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish doirasi yuzasidan xuquq va axloq o’rtasida umumbirlik xamda farklar mavjud. Ularning birligi (umumiy tomonlar)quyidagilarda ko’rinadi:

1-dan, ularning ikkalasi xam ijtimoiy normalarni ifoda etadi;

2-dan, falsafiy nuqtai nazardan xuquq va axloq kategoriyalar bo’lib, ko’rinishida iqtisodiy, madaniy va boshqa faktorlar bilan shartlangan bo’lib, ularni ijtimoiy bir xil tipda ko’rsatadi.
3-dan, ulardan bir butun siyosiy asos ( fundament), ya'ni xalk xokimligi, demokratizm davlatchilik mavjud bo’lib, ular butun xalkning manfaatlarini ifodalaydi;
4-dan, xuquq va axloqning ob'ektlari bir xil bo’lib, ularni amaldagi ijtimoiy munosabatlar tashqil etadi;
5-dan xuquq va axloq normativ xodisalar ko’rinishda kishilarning zarur va mumkin bo’lgan (qiliklari)ning chegaralarini anpiklaydi va x.k.
6-dan, inson faoliyatining regulyatori ( tartibga soluvchi turuvchisi) sifatida, ular indevitning erki va irodasiga asoslanadi;
7-dan, xuquq va axloq oxir natijada bitta masalaga qaratiladi ( ko’zlaydi), ya'ni ijtimoiy xayotni tartibga solishga, takomillashtirishga, shaxsning shaklanishi yoki rivojlanishiga, adolat printsiplarini urnatishga va b. qaratiladi;
8-dan, xuquq va xuquq kabi tarixiy fundamental kategoriya sifatida va jamiyatning ijtimoiy xamda ma'naviy taraqqiyoti ko’rsatgichlari sifatida yuzaga chiqadi.
Biroq yuqorida o’tilganidek xuquq bilan axloq o’rtasida ancha farklar bo’lib, ularga quyidagilar kiradi: (tabl.)
1.Xuquq va axloq urnatilishi, shaklanishi va manbalariga ko’ra ;
Xuquq nafakat xalkning erkini, balki davlatning erkini xam ifodalaydi, u nafakat oddiy regulyativ (t.s.) sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarning tartibga solishning davlat tomonidan amalga oshirishni bildiradi.

2.Xuquq va axloq ularni ta'minlash usullariga ko’ra; 1-sining davlat tomonidan urantilishi, ta'minlanishi, kuriklanishi va ximoyalanishini ko’rsak;
2-si esa davlat apparatining kuchiga suyanmasdan, jamiyatchilik fikriga tayanadi.
Xuquq va axloq ifoda etish shakliga ko’ra ;

Xuquq normalarini davlatning yoki jamoat tashqilotlarining maxsus yuridik aktlarida mustaxkamlanib, tegishli kodekslar tizimi, ustav va b. xujjatlar ko’rinishida ifoda etilsa, axloq normalari yoki printsiplari jamiyatning turlicha gurux va

qatlamlarida ma'lum ijtimoiy sharoitlar ta'siri ostida yuzaga kelib, keyin tarqaladi va xulqning barkaror qoidasi va motivi sifatida mustaxkamlanadi.

Xuquq va axloq kishilar ongiga ta'sir etish xarakteri va usullariga ko’ra; agarda, xuquq sub'ektlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni yuridik nuqtai nazardan tartibga solsa, (ya'ni ularning yuridik xuquq majburiyatlari ko’rinishida), axloq esa insonlarning xulqi (qiliklar)iga yaxshilik va yomonlik, to’g’risuz va noto’g’rilik, arzigulik yoki irgimaslik, umuman vijdon, idrok, erk va burch pozitsiyalari nuqtai nazaridan yondoshadi.

Xuquq va axloq yo’l qo’yilgan xato (kamchiliklarga) nisbatan javobgarlikning xarakteri va tartibiga ko’ra;

1-si qonunda belgilangan yuridik javobgarlikka tarbiyasi (belgilansa),

2-si konkret protseduraga ega emas, bunda fakat ijtimoiy (axloqiy) ta'sir ko’rsatiladi.

xuquq va axloq insonning xulqiga nisbatan qo’yiladigan talablarga ko’ra;

albatta bu masalada axloqning darajasi ancha yuqori bo’lib (yuridik qonunga nisbatan), u xar kanday shakldagi yolgon, noto’g’rilik, aldash, tuxmat va boshqalarni ashaddiy ravishda koralaydi, xuquq esa ularning birmuncha xavflilarini ta'kib etadi xolos.

Xuquq va axloq ta’sir doirasiga ko’ra;

Axloqning ta'sir doirasi xuquqqa nisbatan ancha keng (dustlik, o’zaro yordam, moda, qiziqish, mexribonlik va x.k) bo’lib, xuquq insonlarning bu munosabatlar doirasini barchasini xamrab ololmaydi va dalat nuqtai nazaridan bunga xojat xam yuk. Qolaversa, bu demokratiya va gumanistik qoidalarga to’g’ri kelmaydi. Biroq unutmaslik kerakki, xuquq va axloq ba'zi xollarda bir-biriga mos kelmaydi.  Boshqa masalalarda ular bir-birini doimo qoplaydi.

Bu nisbatni quyidagicha talqin etish mumkin:

xuquq tomonidan tartibga solinadigan barcha narsalar, axloq tomonidan xam tartibga solinadi. Biroq axloq bilan tartibga solinadigan narsalarning barchasi xam xuquq tomonidan tartibga solinavermaydi.

Filosofik nuqtai nazardan farklar shundaki, axloq ijtimoiy ongning bir shakli sifatida yuzaga chiqsa, xuquq fakat xuquqiy ong ko’rinishida yoki xuquqqa bo’lgan qarashlar ko’rinishida bo’ladi.

Xuquq va axloqning turlicha tarixiy taqdiriga ko’ra; - axloq xuquqqa nisbatan ancha oldin qadimdan yuzaga kelgan va amal qila boshlagan. Xuquq esa ijtimoiy evolyutsion jarayonning ma'lum bosqichida yuzaga kelgan.

Xuquq va axloqning yuqoridagi umumiy va fark qiluvchi tomonlari xususiyatlari) doimiy uzgarmasdan koladi deyish unchaldik to’g’ri bo’lmaydi. Chunki, jamiyat taraqqiyotining u yoki bu shaklda uzgarishi bilan bog’liq xolda ular xam uzgarishi mumkin.

Xuquqning paydo bo’lishida odatning ijtimoiy norma tizimidagi axamiyatli urni to’g’risida xam aytib o’tilgan edi.

Odat – bu shunday xulq qoidalari bo’lib, ular ma'lum ijtimoiy muxitda mujassamlanadi, avloddan-avlodga utadi, kishilarning tabiiy xayotiy talablari bo’lib, yuzaga chiqadi va natijada kup marotabalab takrorlanish asosida ular uchun odat shakliga aylanadi.

Odat axloqka nisbatan xuquq bilan kamrok boglangan. Xuquq normalari va odatlar barcha ijtimoiy normalarga tegishli belgilarni uzlarida mujassamlashtiradi: kishilarning xulqi qoidalarini umummajburiyligi yuzasidan, ya'ni ular kanday bo’ladi va bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi.

Jumladan, odat va xuquq normalari bir-biridan kelib chiqishiga ko’ra, ifodalanish shakliga ko’ra, tadbik etilish usullariga ko’ra fark qiladi. (axloqka uxshash bo’lgan analogik farklar).

Ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga solishning tarkibiy qismlaridan bo’lgan korporativ normalar yoki jamoat tashqilotlarining normalari xam mavjuddir. Bu normalar xam ijtimoiy normalarning turlaridan biri bo’lib xisobalanadi.

Korporativ normalar urnatilgan xuquq qoidalari bo’lib, ular jamoat tashqilotlarining ma'lum maksadlariga amal qilishiga qaratilgan va ustav, qoida, karorlarda mujassamlashgan normalardir.

Korporativ normalar fakat jamoat tashqilotlariga tegishli bo’lgan ichki munosabatlarni tartibga soladi.

Bu normalar uz navbatida xuquqiy va xuquqiy bo’lmagan normalarga bo’linadi (1-siga davlatning topshirigiga ko’ra chiqarilgan, bu kam xollarda sodir bo’ladi).

Xuquqning xususiyatlari uning quyidagi umumiy va maxsus ijtimoiy belgilarida ko’rinadi. Xuquqning umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

1)Xuquq normativ harakterga ega, ya'ni u jamiyatda kishilarni yashash qoidalarini belgilaydi, o’zgartiradi va bekor qiladi. Shuning uchun xuquq jamiyatda kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2)Jamiyatda xuquq insonning ozodlik va adolat to’g’risidagi goyalarini o’zida aks ettiradi. Ijtimoiy adolat tamoyili xuquq soxalarida ijtimoiy muosabatlarini tartibga solishda turli shaklda ko’rinadi. Masalan, mexnat xuquqida fuqarolar mexnat qilib, uning soni va sifatiga qarab ish xaqi olishligi. Fuqarolik xuquqida etkazilgan moddiy zararni undirilishi. Ijtimoiy ta'minot xuquqida-fuqarolar mexnat staji va oylik ish xaqiga qarab pensiya olishlik.

3)Xuquq davlat tomonidan chiqariladi va uning bajarilishi davlatning zo’rlik kuchi bilan amalga oshiriladi.

4)Xuquq jamiyatda kishilarning turmush qoidalarini tartibga soladi. Xuquqning bu xususiyati fuqarolari xayotni barcha soxalarida tenglik va ozodligini ta'minlaydi.

Xuquqning maxsus belgilari quyidagilardan iborat:

1)Xuquq irodasining qonunda ko’tarilgan erkidir. Bu erkda ularning turmushini barcha jabxasidagi faoliyati ya'ni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy soxalari xuquq oraqali tartibga solinib mustaxkamlanadi.

2)Xuquq yozma ravishda qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa normativ xuquqiy xujjatlar shaklida davlat tomonidan belgilab qo’yiladi.

3)Xuquqni tartib bilan joylashtirilishi. Davlat konstitutsiyasi, turli kodekslar, qonunlar tuplami boshqalar.

4)Xuquq dinamikasi – ya'ni davlatni vazifasiga qarab o’zgarib turishi. O’zbekiston bozor iqtisodiga o’tayotgan vaqtda iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy soxalarda isloqotlar o’tkazilayotgan vaqtda eski xuquqiy normalar bekor qilinib, yangilari qabul qilinadi.

## 2. Xuquqning asosiy tamoyillari

Xuquqning printsiplari- xuquqning mazmuni, moxiyati va djamiyatdagi urni ( vazifa)sini xarakterlovchi eng asosiy qarashlari, goyalar va qoidalardir.

Xuquq printsiplari, xuquq normalarini takomillashtirish yo’llarini aniqlaydi, qonunshunos uchun bosh goyalar ko’rinishida yuzaga chiqadi.

*Xuquq printsiplari xuquq uchun xos bo’lgan quyidagi qismlarga bo’linadi:

*umumxuquqiy;

*soxalararo ( javobgarlikning mukarrarligi, oshkorolik va boshqalar)

*soxaviy (fuqarolik xuquqi- mulkiy munosabatlarda tomonlarning tengligi, JPKda- aybsizlik prezumptsiyasi);

*umumxuquqiy printsiplarga quyidagilar kiradi;

*adolatparvarlik;

*inson xuquqlarini xurmat qilish,

*teng xuquqlilik,

*qonuniylik,

*gumanizm,

*fuqarolarning qonun oldida tengligi va b.

Xuquqshunos olim Z.Islomov xuquqning priniplarini quyidagi turlarga bo’ladi.

1. Xuquq barcha  xalqning xokimiyatini mustaxkamlaydi. Bu tamoyil O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 7-moddasida belgilangan bo’lib, xalq davlat xokimiyatining birdan bir manbaidir. O’zbekiston davlat xokimiyati  xalq manfaatlarini ko’zlab va Respublika  Konstitutsiyasi xamda uningasosida  qabul qilingan qonunlar vakolat beorgan idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

2.Mulkning turli shakllarini qo’riqlash va mustahkamlash Konstitutsiyaning 53-moddasiga asosan: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O’zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashqil etadi. Davlat iste'molchilarning xuquqi ustunligini xisobga olib,iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mexnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng xuquqliligini va xuquqiy jixatdan bab-baravar muxofaza etilishini kafolatlaydi».

3.Demokratiya tamoyili. Xuquq jamiyatda barcha kishilarning irodasini ifodalaydi. Xuquqiy normalarni muxofaza qilish, qabul qilish va qo’llaishda barcha O’zbekistonda yashaydigan xalq ularning kasbi, jinsi va millatidan qat’iy nazar teng katnashadi.

4.Xuquqning baynalminal tamoyili. Bu tamoyil demokratik O’zbekistonning moxiyatidan, uning siyosiy tizimini baynalminalligidan, barcha fuqarolarning qonun bilan tengligidan kelib chhadi. Konstituttsiya ning 18- moddasiga binoan barcha fuqarolarning nasl-nasabidan , ijtimoiy va mulkiy holatidan, irki va millatidan, tili va dini, kasbi, yashash joyi va boshqa holatlaridan xamma soxalarida teng xuquqliligini ta'minlaydi.

5. Qonuniylik va uning ustunligi ham xuquqning muhim tamoiylidir.

Konstituttsiyaning 15- moddasiga binoan; «O’zbekiston Respublikasida Konstituttsiya va qonunlarining ustunligi so’zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstituttsiyasi va qonunlarga muvofik ish ko’radilar.»

6. Xuquqning insonparvarlik tamoyili, O’zbekistonda barcha xuquq normalari har bir inson to’g’risida gamxurlik qiladi.Bu tamoyil xuquqbuzarlarga jazo ko’llash, ularni kayta tarbiyalash va tuzatish ishlarini xam o’z ichiga oladi.

## 3.Xuquqning funkstiyalari

Xuquqning funktsiyalari kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy tartibga solish va ularni rivojlantirish bilan bog’liq asosiy vazifldardan kelib chiqadi.

Xuquq funktsiyalari- bu avvvalom bor, uning maxsus xususiyatlari, belgilarning yuzaga chiqishida ko’rinadi. Funktsiyalarda xuquqning erkinligidan ( mustaqilligidan) kelib chiqadigan belgilari mujassamlashadi.

Shuning uchun xuquq funktsiyalari ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishning asosiy yuknalishlari xarakterlovchi belgilarini ajratib ko’rsatish mumkin.

Xuquqiy funktsiyasining belgilarining quyidagilarini ko’rsatish mumkin:

Xuquq funktsiyalari uning moxiyatidan kelib chiqib, jamiyatda xuquqning vazifasi bilan aniqlanadi;

Xuquqiy funktsiyalari- bu ijtioiy munosabatlarga ta'sir etish yunalishlari bo’lib, uning amalga oshirishga bo’lgan talab, xuquqni ijtimoiy xodisa sifatida zarurligini bildiradi;

Xuquqiy funktsiyalarining eng muxim tomonlarini ko’rsata turib, xuquqni rivojlantirish bosikichidagi uning oldida to’rgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan;

Xuquqiy funktsiyalari ijtimoiy munosabatlarning ma'lum turlarini tartibga solishga qaratilgan uning aktiv xarakatlari yunalishidir;

Xuquqiy fuknktsiyalari uzining doimiyligi xamda uzluksiz xarakatdaligi bilan ajralib turadi.

Xuquq funktsiyalari tizimini 5 ta guruxga bo’lish mumkin:

Umumxuquqiy funktsiyalar, (barcha xuquqiy soxalariga taalukli);

O’zarosoxaviy funktsiyalar (ikkita va undan kup, ammo barcha xuquqiy soxalariga emas);

Soxaviy funktsiyalar (konkret xuquq soxasiga taalukli);

Xuquq institutlari funktsiyalari (konkret xuquqiy institutga);

Xuquq normasi funktsiyalari (konkret xuquqiy normasining turga taalukli).

Xuquqiy funktsiyalarni 2 xil nuqtai-nazardan tasniflash mumkin:

A) maxsus yuridik funktsiyalar regulyativ va kuriklovchi funktsiyalarga bo’linadi.

Regulyativ funktsiyalar – xuquq funktsiyalari tizimida bosh va asosiy urinni egallaydi, chunki xuquqning asosiy ijtimoiy vazifasi xam ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Regulyativ funktsiyalar uz navbatida: statik va dinamik funktsiyalarga bo’linadi.

Statik funktsiya amaldagi ijtimoiy munosabatlarni mustaxkamlashga xizmat qiladi;

Dinamik funktsiya ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi va uzgartirish kiritadi.

Qo’riqlovchi xuquqiy funktsiyalari – xuquqiy ta'sir etish yunalishlari bo’lib, umumaxamiyatga ega bo’lgan, birmuncha muxim bo’lgan iqtisodiy, siyosiy, milliy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni kuriklashga qaratilgandir.

B) umumijtimoiy funktsiya (iqtisodiy, siyosiy, tarbiyaviy, ekologik funktsiyalar va b.). jumladan, dikkatni yana bir masalaga qaratish zarur bo’ladi, ya'ni kuriklovchi funktsiyalarni regulyativ funktsiyalarga karama-qarshi quyish kerak emas. Fakat

kuriklovchi funktsiya – bu negativ funktsiya bo’lib, takiklash, sanktsiya, javobgarlik kabilarni uz ichiga olsa, regulyativ funktsiya pozitiv funktsiya bo’lib, xuquq sub'ektlarining ijobiy faoliyatini muvofiklashtirishga yunaltirilgandir.

Xuquq funktsiyalari tadbik etishning 3 ta shakli mavjud bo’lib, ularga:

Informatsion, yunaltirilgan (orientirovanno`y), xuquqiy shakllar kiradi.

Xuquqshunos olim Z.Islomov xuquqning funktsiyasi to’qrisida quyidagi fikrlarni bildirgan. Xuquqning funktsiyalari uning fazifalaridan kelib chhadi. Xuquqning vazifasi davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va mafko’raviy vazifalarini amalga oshiradi. U shulardan kelib chhadigan kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Xuquqning funktsiyalari:

statistik ( mustaxkamlovchi)

dinamik (rivojlantiruvchi),

qo’riqlovchi (negativ) va tarbiyaviy funktsiyalarga bo’linadi.

Statistik funktsiyada xuquq kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustaxkamlaydi. Masalan; (kishilar o’rtasidagi karz va oldi sotdi shartnomalari tuzish)

Xuquq kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirib tartibga solsa bu xuquqning dinamik funktsiyasi bo’ladi. Masalan; O’zbekiston Respublikasi mexnat kodeksining 259 – moddasiga asosan mexnat nizolarining xal qilinishi. Huquq kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni ximoya qilsa-bu xuquqning qo’riqlovchi (negativ) funktsiyasi bo’ladi. Bunda xuquqni turli soxalarida qarab, ijtimoiy munosabatlar ximoya qilinadi. Turli xuquqbuzarliklarning jamiyat uchun yetkazgan moddiy va ma'naviy oqibatlariga qarab , intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy va boshqa jazo choralari belgilangan. Bo’lardan tashkari xuquq tarbiyaviy funktsiyaga ega. Xuquq kishilarga goyaviy ta'sir ko’rsatib, ularning jamiyat uchun zararli bo’lgan harakat va harakatsizliklarini qilmaslikni talab qiladi. Agar fuqarolar tomonidan xuquqbuzarliklar sodir etilsa, ularga jazo choralari belgilab ularni tarbiyalaydi.

Davlat va xuquqning vazifasi (moxiyati) ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ko’rinadi va kishilarning normal xayotiy faoliyatini ta'minlashga qaratilgan bo’ladi.

Davlat va xuquq paydo bo’lgani vaqtidan boshlab o’zaro mantiqiy bog’liq bo’lib, bir-biriga ob'ektiv ravishda, «suyangan» bo’ladi, va ular ajralgan xolda bo’la olmaydi xamda amal qila olmaydi.

Shu bilan birga davlat va xuquq – nisbatan mustaqil bo’lgan xodisalar bo’lib, ularni bir-biri bilan kushib yuborish to’g’ri kelmaydi, chunki ular o’rtasida doimo ma'lum bir distantsiya saqlanib koladi.

M.A. Arjanovning ifodalashicha, ulardagi xar bittasining uz xayoti, uz maksadlari, vazifalari va usullari bo’lib, ular o’zaro xarakatda bo’ladilar, lekin «korishib» va «eyishib» ketmaydilar.

Umuman, davlat va xuquqning o’zaro xarakatlarini muxim tomonlari ular amal qilayotgan jamiyatning xarakteriga bog’liq bo’lsa kerak, ya'ni bu jamiyatning demokratik yoki totalitarligi, xuquqiy va xuquqiy bo’lmaganligi, fuqarolik yoki fuqarolik jamiyati bo’lmaganligiga.

Xozirgi zamon adabiyotlarida xuquq bilan davlat o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning mumkin bo’lgan 3 ta modeli to’g’risida gapiriladi (ko’rsatiladi), ularga:

Totalitar davlat xuquqdan yuqori turadi va u xuquq bilan bog’liq emas;

Liberal modeli (xuquq davlatdan yuqorida bo’ladi);

Pragmatik modeli (davlat xuquqni yaratadi va unga bog’liq).

Masalan, Uzbekiston Respublikasi (davlati) – pragmatik modeliga to’g’rirok keladi, chunki bu model bugun amalga oshirilish mumkin bo’lgani uchun xam.

Xuquqning ijtimoiy statusi – ijtimoiy munosabatlarni davlatning regulyatori sifatida tartibga solishdan iborat. Ikkinchi tomondan davlatning faoliyati xuquqiy xarakterga egadir. Shuning uchun xam, ulardan kaysi biri muximrok degan savolni quyishning uzi urinli bo’lmaydi yoki ulardan kaysi biri 1 yoki 2 degan printsip to’g’ri bo’lmaydi.

Shuning uchun ikkala intitutning xam ublishi muxim bittasi – «kuchni tashqil etish» sifatida, ikkinchi – erkni ifoda etish shakli sifatida. Ularning mantiqan bog'liqligida nafakat xuquq balki davlat xam katta axamiyat kasb etadi.

Biroq, davlat bilan xuquq o'rtasida karama-qarshiliklar, kelishmovchiliklar (maksadlarida, usullarida, intilishlarida) bo'lishi mumkin, ularning munosabatlaroi xar doim tekis bo'lavermasligi kuzga tashlanadi.

Xokimiyat xech kim tomonidan cheklanmaslik xamda xech kimning nazorati ostida bo'lmaslik tendentsiyasiga ega, xuquq bo'lsa uni «uz joyiga (urniga) quyishga» intiladi, yuridik ramkaga kiritishga xarakat qiladi.

Ammo, xuquq fakat printsip nuqtai nazaridan xokimiyatni cheklashi, tarkoklik (uzboshimchalik)ka yo'l kuymasligi mumkin, amalda esa bu kamdan-kam erishilishi mumkin bo'lgan xol (agarda xokimiyatning uzi unga moyil bo'lmasa).

Biroq, bu xokimiyatning xuquqqa buysunishi mumkin emasligini bildirmaydi, chunki bu degani inson xuquqlari xamda qonunlarga xurmatsizlik bilan karalganligieni bildiradi.

Shunday qilib, xuquq va davlatning munosabati uchta bosh aspektni xamrab oladi: Birlik; - farqlar; - o'zaro xarakat.

A) birligi – ularning ishlab chiqishida, tipologiyasida, anglanishi(ifodalanishi)da, iqtisodiy yoki madaniy sharoitlarga bog'liqligida namoyon bo'ladi;

B) farqi – ularning tushunchalarini ifodalashning xar xilligida. Xar bittasining ijtimoiy axamiyati xamda rolining farqida. Ularning xar bittasi real borlikni uzlaricha ifoda etadi, ijtimoiy ong tomonidan turlicha baxolanadi va qabul qilinadi..

V) o'zaro xarakati – ularning ikkalasi xam bir-biri bilan bog'langan xolda (aralashgan) ifoda etiladi. Davlatning xuquqqa ta'siri, xuquqni davlat tomonidan yaratilishi, o'zgartirlishi, takomillagshtirilishida va xuquqni ijtimoiy talab ko'rinishi davlat tomonidan tan olinishi va xuquq ijodkorligini amalga oshirilishida ko'rinadi.

Shu bilan birga, xuquq nafaqat xokimiyat o'rnatiladi, balki u jamiyat tomonidan xam yaratiladi.

Demak, davlatning xuquqqa ta'siri absolyut ( cheklanmagan) tarzda emas.

Xuquqning yordamida davlatning ichki tashqiliyligi, tuzilishi, shakli, boshqaruv mexanizmi ( apparati), statusi, turli organlarning va mansabdor shaxslarning vakolatlari xkoimiyatlarning taksimlanishi printsiplari, zarur institutlar mustaxkamlanadi.

Shunday qilib, xuquq bilan davlat o’rtasida murakkab, k’p qirrali bog’liqliklar amal qilib, bu aloqalarni ushbu institutlarni nazariy tushunishda xam amalda sodir bo’layotgan demokratik jarayonlarni to’g’ri fikrlashda ( baxo berishda) albatta e'tiborga olish darkor.

Xuquq va iqtisodning bog’liqligi.

Barcha boshqa ijtimoiy o’zaro bog’liqlar kabi iqtisodiy munosabatlar normativ shaklda (ko’rinishda) mustaxkamilangan bo’lsagina, barqaror amalda bo’lishi mumkin. Normativ shakllar xilma-xil bo’lib, ularning orasida faqat xuquq iqtisodiy munosabatlarning moxiyatiga, ularning bozor bilan bog’liq tabiatiga javob bera oladi.

Barcha iktsodiy munosabatlar tsiklining yuridik asosi sifatida mulkka egalik xuquqi yuzaga chiqadi.

Xuquq iqtisodiy uz-uzini boshqarish usulidir. Bozor iqtisodiyoti davrida mol yoki xizmat talabdan kelib chiqkan xolda tartibga solinadi. Buning uchun esa barcha mulk egalari yuridik jixatdan erkin bo’lishlari zarur, chunki ularning uzlari mustaqil ravishda qancha ishlab chiqish kerakligini va kaysi baxodan sotishini va b. echishlari darkor. Yuridik erkinlik – iqtisodiy zaruratni anglashning muxim shartlaridan biridir.

Xuquq va siyosat.

Xuquq siyosatga bir qancha yunalishlar buyicha ta'sir ko’rsatadi, jumladan: ommaviy xuquqvositaligida (Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy qonunlar) jamiyatning siyosiy tizimi mustaxkamlanadi; saylov tizimining amal qilish mexanizmi (saylo xuquq, xokimiyat taksimlanishi va x.k.) va fuqarolarning siyosiy erkinligi ta'minlanadi.

Xokimiyatga qarshi xarakat xuquqqa qarshi xarakat deb xisoblanadi.

Xuquq insonlarning xuquqiy erkinliklarini ta'minlaydi, kafolatlaydi, tadbik etadi.

Xuquq va madaniyat.

Xuquq ijod uchun, madaniy boyliklarni yaratish uchun, insonning madaniyatini rivojlantirish uchun optimal sharoit yaratadi.

Xuquq asosida xuquq madaniyati shakllanadi, uning (tarkatuvchilariya) tashuvchilari bo’lib jamiyat, davlat organlari, mansabdor shaxslar, ijtimoiy guruxlar, siyosiy vaqillar va fuqarolar yuzaga chiqadilar.

4. Xuquqning moxiyati xaqida turli nazariyalar.

Xuquq va uning kelib chiqishi xakidagi, shuningdek, uni normativ  tartibga solish tizimi to’g’risidagi qarashlar jamiyatning rivojlanish jarayoniga karab, xuquq xakidagi ilmning usishiga karab xamda ob'ektiv va sub'ektiv faktorlarning ta'siriga karab uzgarib to’rgan.

Xuquq to’g’risidagi tushunchalar ma'lum ilmiy yunalishlar, maktablar buyicha tasniflanadi:

Tabiiy xuquq nazariyasi (maktabi);
Tarixiy xuquq nazariyasi
Real xuquq nazariyasi;
Normativ xuquq yunalishi nazariyasi;
Sotsiologik (ijtimoiy) xuquq nazariyasi.
Psixologik nazariyasi.
Materialistik xuquq nazariyasi
Teologik xuquq nazariyasi va  b.

Teologik nazariya. Uning vaqillari Aristotel, Akvinskiy va boshqalar. Bu ta'limot xuquqning paydo bo’lish va moxiyatini xudoga bog’lab iloxiylashtiradi. Xuquq fuqarolarga xudo tomonidan berilgan, u abadiy uni bajarish barcha uchun majburiydir.

Realistik xuquq maktabi. realistik xuquq maktabi vaqillari xuquq tashqi faktorlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi deyishadi. Bunday faktor bo’lib manfaatlar xisoblanadi (asoschisi tanikli yurist Rudholf Ieringdir). Shuningek, bu nazariya xuquq davlat tomonidan qabul qilingan va barcha uchun umummajburiy bo’lgan normalar yig’indisi deb ko’rsatiladi. Uning vaqillari  nemis, olimi R.Cherving, rus olimi D.A.Muromtsev, AQSh olimlari D.Frank, K.Levillin va  boshqalar.

Psihologik xuquq maktabi. psixolgik nazariya – XX asr boshlarida tarqalgan nazargiya bo’lib,uning vaqillari nemis olimi L.Knapp, Frantsiyalik G.Tard, rus olimlari va  Karkunov bo’lgan. Bu ta'limot xuquqning paydo bo’lishi va moxiyatini

insonning psixikasiga bog'lab, xuquq - bu kishlarning kechinmalari, o'ylanish fikrlaridan iborat deb, xuquqning tabiiy va pozitivligini uning jamiyatning moddiy xayoti bilan boq'liqligini tan olmaydi.Uning asoschilari L.I.Petrojitskiy, Dyugi, Merill, Ross va b. xuquq turmush xodisalarining psixik dunyosi bilan bog'liqdir deyishadi.

Markcha-Lenincha xuquqiy nazariya materialistik ta'limotga asosan ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi bilan xususiy mulk paydo bo'lib, jamiyat qarama-qarshi sinflarga bo'linishi sababli xuquq paydo bo'lgan. Materialistik xuquq nazariyasi ularning fikricha, xuquq iqtisodiy xukmron sinflarning erkini ifodalanishi va mustaxkamlanishi.

Tabiiy xuquq nazariyasining mazmuni shundan iboratki, ya'ni davlat tomonidan yaratiladigan pozitiv xuquq boshqa undan yuqoriroq turadigan xamda xamma uchun umumiy bo'lgan tabiiy xuquqdan iboratdir. (yashash xuquqi, erkin rivojlanish, mexnat qilish, jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etish va b. xuquqlari).

Uning asoschilari Lokk, Russo, Monteske, Golbak, Radishev va boshqalardir.

(Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 moddasida yashash xuquqi «kishining ajralmas xuquqi» sifatida mustaxkamlangan).

Tarixiy xuquq nazariyasi – bu nazariya vaqillari xuquqni xalqning ruxiy ifodasi deb qarashgan, ya'ni bu tarixiy jarayon davomida sekin-asta yig'ilib shakllangan (qonunchilik xokimiyati va davlatga bog'liq bo'lmagan xolda) deyishadi.

Qonunshunos xuquq sifatida shakllangan xolatni qayd qiladi xolos deb qarashadi.

Normativ yunalish nazariyasi – vaqillarining fikricha xuquqni ijtimoiy xayotni tashqaridan turib kishilarning talablarini qondirish maqsadida tartibga solishdir deyishadi.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.

1.Xuquq nima

2.Xuquqning belgilarini anhlang

3.Ob'ektiv xuquq va sub'ktiv xuquq nima

4.Xuquqning moxiyati nimada

5.Davlat va xuquqning o’zaro munosabatlarini anhlang

6.Xuquq va axloq o’rtasida qanday farqlar borh

7.Tabiiy va pozitiv xuquq nima

8.Xozirgi vaqtda xuquqning moqiyati qanday qarashlar mavjud

9.Xuquqqa extiyoj nima sababdan paydo bo’ladi

10.Xuquqning vujudga kelishi to’qrisidagi qanday nazariyalar mavjud

11.Xuquqning kelib chhishiga doir nazariyalarning xilma-xilligining sababi nimada

XUQUQ IJODKORLIGI

Reja:

1.Xuquq ijodkorligi tushunchasi.
2.Qonun qabul qilish bosqichlari.
3.Normativ xuquqiy xujjatlarni vaqt, xudud va shaxslarga nisbatan harakat qilishi.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar**: Xuquq ijodkorligi, referendium tashabbuskorlik, normativ xuquqiy xujjat, qonun, kodeks, asosiy qonun, joriy qonun

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1.Karimov I.A. O'zbekiston XX2 asrga intilmokda Toshkent. O'zbekiston. 1992 yil.
2.Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istikbolining asosiy tamoyillari.T., 1995 y. 25 bet.
3.Tojixonov U. O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning xuquqiy-ma'naviy muammolari. T., 1996 73- bet.
4.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 7- moddasi. T.O'zbekiston . 2003 yil.
5.O'zbekiston Respublikasining «qonunchilik palatasi to'g'risida »gi qonuni Xalq so'zi 2002 yil 28 dekabr
6.O'zbekiston Respublikasining «Senat to'g'risida» gi Konstitutsiyaviy qonun. Xalq so'zi. 2002 yil 28 dekabr.
7.Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. Ikki palatali parlament. T. O'zbekiston Respublikasi IIV. 2005. 77-151 bet.
8.Saidov A., Tojixonov U. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2.Davlat nazariyasi.O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2001
9.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy xuquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997 yil betlar.
10. Gavrilov A.A. Strategiya pravotvorchestva i sotsialnoe prognizirovanie.M., 1993. S.5.
11.Saidov A.Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002 yil 30-33 bet.
12. Fayziyev SH. Qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishning ayrim masalalari. Fuqarolik jamiyati-Civil society.№1 (9) 2007.44-51 betlar


Nazorat savollari.

1.Xuquq ijodkorligi nima
2.Xuquq ijodkorligining qanday turlari mavjud
3. Xuquq ijodkorligining eng asosiy turi
4. Xuquq ijodkorligining asosiy bosqichlari
5. Xalqning xuquqni ijod qilishi nimalarda ko'rinadi
6.qonunlar qachondan boshlab kuchga kirad
7.Referendium nima

1.Xuquq ijodkorligi tushunchasi.

**Qonun ijodkorligi – davlatning xuquqiy normalarini yaratishga qaratilgan eng muxim faoliyat yo’nalishlaridan biridir.** Qonun va qonun chiqarish faoliyati bilan bog’liq ishlar jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muxim urin tutgan.

Qonunlarning eng asosiy ijtimoiy vazifasi – jamiyatda tartib, intizom va barkarorlikni ta'minlashdan iborat. Qonunchilik siyosati – davlat siyosatining bir bo’lagi bo’lib, unda ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy tartibga solishning asosiy yunalishlari, printsiplari, maksadlari uz ifodasini topadi. Xuquq ijodkorligi faoliyati natijalariga karab, ya'ni qonunlar va boshqa normativ aktlarga karab, davlat to’g’risida, uning demokratligi darajasi, madaniyati va sivilizatsiyasi darajasiga baxo beriladi.

Xuquq ijodkorligining eng muxim xarakteristikasidan biri bo’lib, uning davlat yoki davlat organlari faoliyati ekanligi xisoblanadi.

Qonun ijodkorlik faoliyati – uz vakolatli davlat organining qonunlarni ishlab chiqishi va qabul qilishga qaratilgan, aniq maksadga yunaltirilgan irodaviy faoliyatidir. Mazkur faoliyat ijodiy jarayon bo’lib, bunda xalkning irodasi aniqlanadi, shakllantiriladi va belgilangan tartibda qonun darajasiga kutariladi.

Qonun chiqarish faoliyati (xuquq ijodkorligi faoliyati) uzining mas'uliyatliligi va murakkabligi bilan fark qiladi. Respublika shaklidagi demokratik davlatlarda qonun chiqarish faoliyati, an'anaga ko’ra, aloxida saylab qo’yiladigan tashqilot tomonidan amalga oshiriladi. Bunday tashqilot turli mamlakatlarda turlicha nomlar bilan (AKShda – kongress, Frantsiyada – milliy majlis, Angliyada – parlament, Germaniyada – Bundestag, Eronda – majlis, Rossiyada – federal majlis (Duma), Uzbekistonda –Oliy Majlis, Polsha, Litvada – Sem, Shvetsiyada – Riksdag va x.k) atalib umumiy qabul qilingan yagona nom parlament iborasi bilan ifodalanid.

Xuquqiy adabiyotlarda qonun ijodkorlik faoliyati iborasi qonun chiqarish faoliyati, qonun yaratish faoliyati, qonunchilik, xuquq ijodkoriligi kabi iboralar bilan sinonim sifatida kullaniladi.

Xuquq ijodkorligi jarayoni (qonun yaratish) uta mas'uliyatli, serkirra va murakkab jarayon. Qonun kuichga kirgan xar bir yuridik xamda ijtimoiy

munosabatlaroni tartibga solshida kat'iy kuchga aylanadi. Bu jarayon muntazam va muvofiklashtirilgan ketma-ketlikda ruy beruvchi bosqichlarning yigindisi sifatida mavjud bo’luvchi aniq xuquqiy mexanizmdir. Bunda ish tegishli xuquqiy munosabatlar soxasini xuquqiy tartibga solish zaruriyatini o’rganishdan muammoli vaziyatni atroflicha taxlil etishdan boshlanadi: sungra tajriba umumlashtirilib, ilmiy asoslangan materiallar tuplanadi; navbatdagi vazifa rejalashtirilayotgan qonunning ilmiy goya (kontseptsiyasi) va dastlabki loyixasini ishlab chiqishdan iborat bo’ladi; qonun loyixasi qonun chiqaruvchi idora tomonidan o’rganiladi, muxokama etiladi va nixoyat qonun qabul qilinadi.

Qonunchilik jarayoni bu davlat oliy vaqillik organining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga kushimcha va uzgartirishlar kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi xarakatlari yigindisi bo’lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo’lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyixasini tayyorlash, uni muxokama etish va qabul qilishni uz ichiga oladi.

Qonun ijodkorligining quyidagi turlari ajratib ko’rsatiladi:

Vakolatli davlat organlarining xuquq ijodkorligi faoliyati;

Xalkning bevosita referendum orqali xuquq ijodkorligi.

Masalan:

1) Uzbekistonda qonunning parlament tomonidan qabul qilinishi

2) Umumxalk ovoz berish yo’li bilan qonun qabul qilish.

Qonunosti xuquq ijodkorligi. Bunday xollarga, ba'zida davlat oliy vaqillik organlariga kirmaydigan davlat organlari tomonidan xuquq normalari qabul qilinadi va xarakatga keltiriladi. Bunday qonun osti aktlari qonunni qabul qilishni ta'minlash uchun muxim xisoblanadi.

Qonun osti xuquq ijodkorligi sub'ektlariga – Prezident, Xuquqmat boshqa oliy davlat organlari kirib, ular qonunga binoan yuridik normalar va normativ aktlarni qabul qilish xuquqiga ega. Qonun osti xuquq ijodkorligining uziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud:

Ijobiy tomonlariga – uning tezkorligi, rasmiyatchilikning kamligi, tegishli organlarning kompitsentligi, xujjat qabul qilinishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaxshi bilishlari kerak;

Salbiy tomonlari – xuquqiy karorning qabul qilinishi jarayonining yashirinligi, normativ aktlarning kupligi kullashni kiyinlashtiradi. Ular jamiyat a'zolari tomonidan nazorat qilishni murakkablashtiradi.

Jamiyatda xuquq normalarining yaratilishi, davlatning ijodkorlik yoki xuquqiy tashabbuskorlik faoliyati orqali amalga oshiriladi. Davlatning xuquq ijodkorlik faoliyati-bu xuquq normalarini yaratish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida yaratgan xuquq normalari turli normativ xuquqiy xujjatlarda qonun, qaror, farmon, farmoyish va boshqalarda ifodalanadi. Normativ xuquqiy xujjatlarni qabul qilish-ya'ni xuquqiy normalarni yaratish quyidagi 2 bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich normativ xuquqiy xujjatlarni loyixasini tayyorlash: a)shu xujjatni loyixasini tayyorlash uchun qaror qabul qilish; b) loyixani tayyorlash; v) loyixani muxokama qilish; g) loyixaning kamchiliklarini tuzatish; d) loyixani qayta ishlash.

Ikkinchi bosqich- normativ xuquqiy xujjatlarni nashr etish: a)loyixani tashabbuskor davlat organlariga muxokama qilish uchun kiritish; b)loyixani tashabbuskor organga muxokama qilish; v)normativ xuquqiy xujjatlarni qabul qilish; g)uning xalqka e'lon qilish (nashr etish).

Davlatning xuquq ijodkorlik faoliyatida normativ xuquqiy xujjatlarning loyixasini tayyorlash,xalq o'rtasida muxokama qilish va qabul qilib nashr etish muxim masaladir. O'zbekistonda bu ish bilan Respublika qonun chiqaruvchi oliy organi Oliy Majlis, davlat boshlhi Prezident, Vazirlar Maxkamasi va boshqa davlat organlari shugullanadi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining HII chakirik HI sessiyasida 1992yil 8 dekabrdagi Mustaqil O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Shu kuni Oliy Kengash maxsus qaror bilan Konstitutsiyani kuchga kiritib, Oliy Kengash Rayosati Respublika qonunlarini Konstitutsiyaga moslashtirish ishlarini belgilab berdi.

Xuquq ijodkorligi jarayoni printsiplapriga quyidagilar kiradi:

Qonuniylik, adolatparvarlik, xalkchillik, ilmiylik, demokratizm, oshkoralik va x.k

Qonuniylik printsipi – kat'iy belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan xar kanday normativ xujjatning qabul qilinishi; yoki bu xujjatning mazmuni uzidan oldingi qabul qilingan va nisbatan yuqori darajadagi yuridik kuchga ega bo'lgan normativ xujjatga qarshi bo'lmasligi zarur va x.k

Adolatparvarlik printsipi – barchaning qonun oldida tengligidan kelib chiqadi; Ilmiylik printsipi – mutaxassislarning ilmiy asoslariga, fikrlariga asoslangan xolda xuquq ijodkorligi faoliyatini olib borish;

Demokratizm printsipi – xuquq normativ xujjatlarni qabul qilishda xalkning ishtirokini ta'minlash;

Oshkoralik printsipi – xuquq ijodlkorligi natijalarining fuqarolarga etkazilishi

Xozirgi vaqtda O'zbekiston davlatining xuquq ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda katta e'tibor berilmokda: 1)O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi asosida qonunlarni, xuquq soxalarini va kodekslarni yangilash; 2)mustaqillik bilan boqlh bo'lgan qonunlar va boshqa normativ xuquqiy xujjatlarni qabul qilish va ularni nashr qilish; 3)amaldagi normativ xuquqiy xujjatlarning bajarilishini ta'minlash; 4)ularning bo'zilishining oldini olish va bo'zilganda belgilangan jazo choralarini qo'llaish.

Xuquqshunos olim Z.Islomov xuquq ijodkorligining turlari quyidagicha ta'riflaydi:

1. Davlat organlarining xuquq yaratish ijodkorligi. Konstitutsiyaga asosan barcha davlat organlari o'z vakolati doirasida xuquq ijodkorligiga ega bo'lib, ular turli normativ xuquqiy xujjatlar qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 83-moddasiga asosan Oliy Majlis qonunlar, qarorlar va boshqa xujjatlar qabul qiladi. Oliy majlisning raisi farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Maxkamasi qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Maxalliy davlat xokimiyat vaqillik organlari joylarda-viloyatlar, tumanlar va shaharlarda(tumanga buysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashkari) xokimlar boshchilik

qiladigan xalq deputatlari Kengashlari qaror va farmoyishlar, xokimlar esa qarorlar chiqaradi.

2. Jamoat birlashmalarining xuquq yaratish ijodkorligi. Bo’lar xam o’z vakolat doirasida xuquq ijodkorligiga ega bo’lib, tegishli normativ xuquqiy xujjatlar qabul qiladiyu Masalan, O’zbekiston Respublikasi kasaba uyushma federatsiyasi, Respublika yoshlar ittifoqi bilan birgalikda kushma korxonalar qabul qiladi.

3.Bevosita xalqning xuquq yaratish ijodkorligi. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 9-moddasiga asosan jamiyat va davlat xayotining eng muxim masalalari xalq muxokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga qo’yiladi. Buning o’tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi. Referendum xalqningxuquq yaratish ijodkorligi bo’lib uning natijasida tegishli xuquqiynormalar qabul qilinidi. O’zbekiistonda keyingi referendumOliy Majlis tashabbusi bilan Prezident I.A.Karimov muddatini 1997 yildan 2000 yilgacha o’zaytirish to’g’risida o’tkazildi. O’zbekiston xalqi yakdillik bilan bu tashabbusni qo’llaib ovoz berdi.

Demak, davlatning xuquq ijodkorlik faoliyati muxim bo’lib, unda amaldagi qonunlarni vaboshqa normativxuquqiy xujjatlarni yangilash, nashr etish, eskiorgan xuquq normalarini bekor qilish, xuquqdagi kamchiliklarni tuldirib jamiyatda kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarningtartibga solish uun xizmat ki ladi.

## 2.Qonun qabul qilish bosqichlari.

Qonunchilik jarayoni xakida batafsil tasavvur xosil qilish uchun uning mazmunini tashqil etuvchi bosqichlarni chukur taxlil etish kerak.

Aksariyat xuquqshunos olimlarning va amaliyot xodimlarining fikriga ko’ra, qonunchilik jarayoni quyidagi bosqichlarlan iborat:

Qonunchilik tashabbusi;

Qonun loyixasini muxokama qilish;

Qonunni kabul qilish;

Qonunni e'lon qilish.

Qonun yaratishdan oldin jamiyatda shunday qonun vujudga kelishiga extiyoj bormi, degan savolga javob berish lozim. Qonun ishlab chiqishga kirishishdan avval mavjud ijtimoiy voqelik, xayot, muammoli vaziyat atroflicha o’rganib chiqiladi.

Shunday qilib, u yoki bu qonunning yaratilishiga bo’lgan extiyojni o’rganish – qonunchilik jarayonining boshlang’ich nuqtasidir. Qonunchilik faoliyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, sotsial-madaniy, jugrofiy, demografik, ekologik, milliy, ilmiy-tashqiliy va x.klar

Qonunchilik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar muayyan mexanizm asosida xarakatlanadi.

Qonunni yaratish jarayoni, ya'ni qonun chiqaruvchi organ doirasida bevosita faoliyat qonunchilik tashabbusi ruyo bo’lishidan boshlanadi. Qonunchilik tashabbusi xuquqiy muammolari magzini anglab etish uchun uning quyidagi muxim jixatlarini puxta mushoxada etish talab qilinadi:

Qonunchilik tashabbusi xuquqi tushunchasi va moxiyati;

Qonunchilik tashabbusi amalga oshirilishi natijasida vujudga keladigan xuquqiy munosabatning mazmuni;

Qonunchilik tashabbusi xuquqning sub'ektlari doirasi xamda ularnin uziga xos xususiyatlari va b.

Davlatni xuquq ijodkorlik faoliyatini asosini qonunlarni qabul qilish tashqil qiladi Chunki qonunlar barcha normativ xujjatlar ichida birinchi o’rinda turadi.Shuning uchun qonunlar maxsus tartibda qabul qilinadi. Qonunni qabul qilish jarayoni quyidagi 4 ta bosqichdan iborat:

1.Qonun tashabbuskorligi – bu davlat organlari, jamoat birlashmalari yoki fuqarolarning davlatni oliy qonun chiqaruvchiorganiga yangi qonun chiqarishga,amaldagi qonunni tuldirish yoki bekor qilish xaqida kiritgan taklifidir.Bu taklif qonun chiqaruvchi oliy organ tomonidan qabul qilish va qilmasligi muxokama qilinadi.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 82-moddasiga asosan Oliy Majlisga qonun loyixalarini taklif qilish qonunchilik tashabbusi xuquqiga O’zbekiston Respublikasi Prezidenti o’z davlat xokimiyatining oliy organi orqali Qoraqolpog’iston

Respublikasi,Oliy Majlisning deputatlari, respublika Vazirlar Maxkamasi, Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xujalik sudi, Bosh Prokurori egadirlar.

2.Qonun loyixasini muxokama qilish. Qonun loyixasini muxokama etish (***) – qonun yaratish jarayonining muxim bosqichidir. Bu bosqich qonun chiqaruvchi organga qonun loyixasi takdim etilgach va u sessiya kun tartibiga kirgach boshlanadi. Shakllangan tajribaga ko’ra, qonun loyixasi ikki xil ko’rinishda muxokama qilinadi. 1-xolda, qonun loyixasi aksariyat umumiy qoidaga binoan parlament (Oliy Majlis) tomonidan uning yigilishida muxokama etiladi. 2-xolda, mamlakat xayotining uta muxim masalalarini tartibga solishga qaratilgan qonunlar loyixasi parlament karori bilan keng xalk muxokamasiga takdim chiqariladi.

Qonun loyixasi moddama-modda, bo’limlar va boblar buyicha yoki yalpi muxokama qilinadi.

Qonunni qabul qilish bosqichining axamiyati va mas'uliyati shundaki, bunda qonun loyixasiga rasmiy yuridik kuch baxsh etiladi, u qonunga aylanadi. Parlamentda ba'zi jiddiy masalalarni xal etish uchun deputatlar malakali kupchiligining ovoz berishi lozim bo’ladi. Deputatlar umumiy sonining malakali kupchiligining Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofik jami deputatlarning 2G`3 qismi tashqil qiladi. Deputat ovoz berish uchun boshqa deputatni vaqil qilish mumkin emas. Ovoz berish ochiq, yashirin va nomma-nom bo’lishi mumkin.

3.Qonun qabul qilish bosqichi qonun loyixasini maqullab Oliy Majlis deputatlarining ko’pchiligi ovoz bersa qonun qabul qilinadi.

4.Qonuni matbuotda e'lon qilish bosqichi. qonun qabul qilingandan keyin, uning matbuotda yoki O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasida tegishli ma'sul shaxslarning imzosi bilan e'lon qilinadi.
O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qabul qilingan qonunlar, Oliy Majlis raisining imzosi bilan yoki muxum qonunlar Prezidentning imzosi bila n o’zbek va rus tilida bosib chiqariladi.

## 3.Normativ xuquqiy xujjatlarni vaqt, xudud va shaxsga nisbatan harakat qilishi.

*Xuquq ijodkoriligi faoliyatining natijasi xar xil normativ aktlarni qabul qilish bo'lib xisoblanadi.*

*Normativ-xuquqiy aktlar – qonun ijodkorligi bilan shugullanuvchi sub'ektlarning uzida yuridik normalarni mujassamlashtiruvchi ko'rsatmalardir.*

*Normativ aktlar xuquq ijodkorligi vakolatiga ega organlar tomonidan kat'iy belgilangan tartibda ishlab chiqiladi.*

*Yuridik kuchga egaligiga ko'ra, barcha normativ aktlar ikkita guruxga bo'linadi:*

*Qonunlar;*

*Qonunosti aktlari.*

*Qonun – bu normativ akt bo'lib, qonunchilik xokimiyati organi yoki referendum (umumxalk ishtirokida) orqali maxsus belgilangan tartibda qabul qilingan, xalkning irodasini ifodalaydigan, oliy yuridik kuchga bo'lgan va birmuncha muxim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi xujjatdir.*

*Qonunning turlariga Konstitutsiya, Oliy Majlis qonunlari kiradi (Uzbekistonda).* Jamiyatdagi eng muqim ijtimoiy munosabatlar qonunlar yordamida tartibga solinadi. Ular boshqa xuquqiy normativ aktlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo'lib, Davlat qokimiyatining doimiy ishlaydigan qonun chiqaruvchi organi - Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadi. qonunlar - Buyuk sotsial boylikdir. qonunlarda davrning qoyalari va talablari mujassamlashgan. qech kimga, u qanday lavozim yoki mavqe egasi bo'lishidan qat'iy nazar, qonunlarni chetlab o'tish xuquqi berilmaydi. Binobarin, fuqorolarda qonunni qurmatlash qissigina emas, balki qonunga e'thod tuyqusini xam shakllantirish lozim.

qonunlar o'z mazmuniga ko'ra Asosiy qonunga ya'ni konstitutsiyaga va oddiy yoki kundalik qonunlarga bo'linadi.

Davlatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyaning mazmuni oddiy va xorijiy qonunlar mazmunida shu bilan farq qiladiki, unda asosiy, eng barqaror ijtimoiy munosabatlar, o'zoq davrga mo'ljallangan bosh printsipial qoidalar mustaqkamlanadi

va bu printsipial qoidalar bevosita amal qilib, boshqa qonun chiqarish aktlari rivojlantiriladi va konkretlashtiriladi. Shu sababli Konstitutsiya asosiy qonun doirasiga shmaydigan bir qancha qoidalarni o'z ichiga olmaydi. Konstitutsiya asosida zaruriyatga ko'ra boshqa qonunlar va xuquqiy normativ aktlar, shu jumladan Asosiy qonunning o'zida ko'zda to'tilgan xuquqiy aktlar ishlab chhiladi va rivojlantiriladi. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega bo'lib, unga barcha qonunlar va qonunosti aktlar muvofh kelishi lozim. qukumat qarorlarining O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga qat'iy muvofh bo'lishini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaviy nazorat komiteti ta'sis etildi va uning qolati O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunida Konstitutsiyaviy nazorat komiteti to'qrisidagi qonun bilan belgilanadi. Bundan tashqari Konstitutsiyaning Asosiy qonun sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u aloxida tartibda o'zgartiriladi, ya'ni Asosiy qonunga binoan, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalq deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismini tashqil etgan ko'pchilik qabul qilgan qaror bilan o'zgartiriladi.

Joriy qonunlar Konstitutsiya asosida qabul qilinib, xo'jalik ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy soqalardagi munosabatlarni tartibga soladi. Joriy qonunlarga Davlat korxonalari to'qrisidagi qonun, Kooperatsiya to'qrisidagi qonun singari qonunlar misol bo'la oladi.

qonunlar amal qilish vaqtiga ko'ra doimiy, muvaqqat va favqulotda qonunlarga bo'linadi. Doimiy qonunlar biron-bir vaqt bilan chegaralanib qo'yilmagan bo'ladi. Bunday qonunlarga Konstitutsiya, turli kodeks va qonunlar misol bo'la oladi. Agar qonunda u muayyan vaqt davomida amal qilishni ko'rsatilgan bo'lsa, bunday qonunga muvaqqat qonun deyiladi. Davlat byudjeti to'qrisidagi qonun bunga yaqqol misoldir, chunki u harajatlar yili o'zgarib turadi. Favqulodda qonunlar Uluq Vatan urushi yillarida qabul qilingan edi.

qonunlar asosida chiqarilgan barcha xuquqiy normativ aktlar qonunosti aktlari deb ataladi. Davlat qokimiyati organlaridan tashqari xamma davlat organlari qonun ostida yoki qonunlarni ijro etish yuzasidan ko'plab qonunosti aktlari qabul qilinadi. Bu aktlar o'zining yuridik kuchi jhatidan qonunlardan past turadi. Qonunosti aktlari ko'pincha qaror va farmoyishlar deb nomlanadi.

Davlat boshqaruv organlari bo’lgan davlat komitetlari va vazirliklar doirasida xalq xo’jaligining turli tarmoqlarini boshqarishga qaratilgan buyruq xamda instruktsiyalar qabul qilinadi.

Qonun osti aktlari – yuridik normalarni uzida mujassam etuvchi, qonun asosida chiqarilgan va uni bajarishga qaratilgan aktlardir.

Qonun osti aktlariga Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasi (xuquqmat) karorlari va farmoyishlari, vazirliklar, davlat kumitalarining buyruklari, ko’rsatmalari, qoidalari va x.k. kiradi. Jumladan, davlat xokimiyati maxalliy organlarining karorlari, nodavlat organlarining normativ aktlari va b.lar kiradi.

Xuquq manbai - davlat idorasini muayyan xuquqiy normativ aktlarda ifodalash, bayon qilish usuli va shaklidir. Xuquqiy normativ aktning muqim xususiyati - bu uning qaysi davlat organi chiqaorganiga qarab ma'lum yuridik kuchga ega bo’lishi va xuquq manbalari tizimida muayyan o’rinni egallashidir. Harajatlar bir vakolatli davlat organi qatiy belgilangan xuquqiy normativ aktlarini chiqarish xuquqiga egadir. Bu xuquq Konstitutsiya va boshqa qonunlarda maxsus mustaqkamlangan. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O’zbekiston Oliy Kengashining qonunlar va qarorlar qabul qilish xuquqi belgilab berilgan.

Xuquqiy normativ aktlar qaysi davlat organi tomonidan qabul qilinganligiga qarab muayyan tizimni tashqil qiladi. qozirgi paytda O’zbekistonda xuquqiy aktlarning quyidagi turlari bor: qonunlar, qonun asosida chiqariladigan normativ aktlar.

Maqalliy qokimiyat va uning apparati o’z vakolati va xududiy doirasida qonunosti aktlarini chiqaradi.

Qonunlarni tubdan qayta ko’rib chhish va sistemaga solish xuquqiy isloqotning ajralmas qismidir.

**Tizimga solish** - bu davlat organlari tomonidan qonunlar va qonunosti aktlarini muayyan tartibga solish faoliyatidir. Tizimga solish xuquqiy normativ aktlardan to’la foydalanish, qonunlarni qayot talablariga mos ravishda yangilashni ta'minlaydi, xuquqiy normativ aktlardagi eski normalardan, qarama-qarshiliklari va boshqa kamchiliklardan holi etadi.

xuquqiy normalarni tizimga solishning kodifikatsiya va inkorporatsiyadan iborat ikki turi mavjud.

**Kodifikatsiya** - qonunlari kodekslar bilan ishlab chiqarish yo’li bilan tizimga solishdir. U xuquqiy normalarni mazmunga qarab qayta ishlab chiqarishni va ularni yangi qonunlar ilmiy asoslangan tartibda izoqlashni nazarda tutadi. Kodifikatsiya xamma vaqt amaldagi qonunlarning mazmunini qayta ko’rib chhish bilan boqlh bo’lib xuquqiy normalardagi eski qoidalarni, qarama-qarshiliklarni, kamchiliklarni tugatishga qaratilgandir.

**Inkorporatsiya** - bu amaldagi qonularni va boshqa xuquqiy normativ aktlarni bu aktda ma'lum xronologik, alfavit va yoki boshqa tartibda joylashtirishdir. Bunda tizimga solinadigan aktlar mazmuni o’zgarmaydi. Ular to’plamga izoqsiz kiritiladi. Inkorporatsiyaning rasmiy va norasmiy shakllari bo’ladi**. Rasmiy korporatsiya** - bu mazkur aktlarning ularni chiqaorgan organ tomonidan tizimga solinishidir. Norasmiy inkorporatsiya esa aktlarni maxsus vakolatga ega bo’lmagan organlar shuningdek xususiy shaxslar tomonidan tizimga solishdir.

Normativ aktlarning vakt buyicha xarakati (amal qilishi) uning qabul qilinishi xamda uz kuchini yukotishi shartlangandir. Bunda uchta axamiyatli tomoni e'tiborga olinadi:

1) qonuniy uchga kirish momenti;

2) uni xarakat vaktining tugashi;

3) normativ akt asosida o’rnatilgan yuridik normalarning, ushbu aktni kuchga kirguniga qadar yuzaga kelgan munosabatilarga nisbatan qo’llanishi.

Qabul qilingan yoki urnatilgan normativ aktlarni xayotga tadbik etishning muxim shartlaridan biri uning amal qilish doirasini aniq qilib belgilab quyishdadir.

Normativ-xuquqiy aktlarning kuchga kirishi va amal qilish doirasi shu normativ aktlar uchun tegishli bo’lgan maxsus aktlarda ko’rsatiladi.

Shu asosda qaysi normativ aktlar kaysi xududda kuchda bo’lishi va qaysi shaxslarga nisbatan amalda bo’lishi va qaysi munosabatlarga nisbatan muljallanganligi belgilanadi.

Qonunlar, farmonlar va boshqa normativ aktlarning kuchga kirish vaqti ko’rsatilgan bo’lsa, ana shu belgilangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.
Masalan: jinoyat kodeksi (Uz. JK) qabul qilingan vakti 1994. 22. 9.da bo’lsa, kuchga kirish vaqti 1.4.1995y

Normativ-xuquqiy aktlar uz kuchini quyidagi xollarda yo’qotishi mumkin:

-Normativ akt muljallangan ma'lum belgilangan muddatning o’tishi bilan;

-Normativ aktni urnini bosuvchi yangi aktning qabul qilinishi natijasida;

-Muayyan organning ushbu normativ aktni bekor qilishdagi ko’rsatmasi bo’yicha va x.k.

Normativ-xuquqiy aktlarning shaxslar bo’yicha amal qilishi – bu aktlarning barcha fuqarolarga, fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga, davlat organlariga, jamoat tashqilotlariga, chet el fuqarolariga tegishliligi tushuniladi.

Davlat normativ xuquqiy xuujjatlar qabul qilgandan keyin,uni turmushga qo’llaishning muxum talablaridan biri ularning harakat doirasini belgilashdir. Ularning kuchga kiritish va harakat doirasinibelgilash maxsus qarorlar bilan ko’rsatiladi. Bunda normativ xuquqiy xujjatlarning vaqt bo’yicha harakatda bo’lishi, kachon qabul qilingan qonun va kachon o’z kuchini yo’qotish vaqti belgilanadi. O’zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonun va boshqa normativ xuquqiy xujjatlarni vaqt bo’yicha kuchga kirishishni quyidagi tartibda belgilangan;

1)O’zbekiston Respublikasining qonunlari «O’zbekston Respublikasini Oliy Majlisining Axborotnomasi»da gazeta, televideniya va radioga e'lon qilingandan keyin 10 kundan keyin Respublika xududida kuchga kiradi. 2)Agar ularning matnida yoki maxsus qaror bilan kuchga kirishish muddati ko’rsatilga bo’lsa, shu ko’rsatilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Masalan; O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992 yil 14 yanvarda «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida» qonun qabul qildi. Oliy Kengash shu kuni maxsus qaror chiqarib, bu qonun matbuotda e'lon qilingan kunidan bolab kuchga kiradi deb ko’rsatdi. 3) O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisini qabul qilgan qarorlari, Prezident farmonlari, farmoyishlari va qarorlari matbuotda e'lon qilinmasdan, ular amal qilish lozim bo’lgan korxonalar, muassasalar, tashqilotlar, davlat organlari, jamoat birlashmalari va tegishli shaxslarga yuborilsa, bu holda ular

olgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. 4) O’zbekiston Rnspublikasi Vazirlar Maxkamasining qabul qilgan qaror va farmoishlari, vazirliklar, davlat kumitalarining buyruq, qo’llainmalari, yuriknomalari, nizomlarning kuchga kirish muddati agar ularning matnida ko’rsatilgan bo’lsa-yu shu ko’rsatilagn muddati dan kuchga kiradi. Agar korxona, muassasalar va tashqilotlarga yuborilgan bo’lsa, ular olgan vaqtdan kuchga kiradi. 5) maxalliy xokimiyat organlari viloyat, shahar va tuman xalq depuatlari kengashlarining qaror va farmoishlari, ularni boshqaradigan xokimlarning qarorlari qabul qilinganidan keyin ularning matnida kuchga kirishi ko’rsatilgan bo’lsa, shu ko’rsatilgan vaqtdan, ko’rsatilgan bo’lmasa ular bu xujjatlarni olgandan boshlab 15 kundan keyin kuchga kiradi va kishilar o’rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Normativ xuquqi xujjatlarni xudud bo’yicha harakat qilish, ularni shu davlat xududida harakat doirasini belgilaydi. O’zbekiston Respublikasining normativ xuquqiy xujjatlari uning barcha xududida-qo’riqlikda, suvda va fazoda harakat qiladi. Maxalliy xokimyat organlarining normativ xuquqiy xujjatlari, tegishli tuman, shahar va viloyatlarning xududida harakat qiladi.

Normativ xuquqiy xujjatlarning shaxsga jismoniy shaxs-fuqarolar va yuridik shaxsga nisbatan harakatda bo’lishning asosiy talabi davlat organlari, jamoa birlashmalari,mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan harakat doirasini belgilaydi. O’zbekiston qonunlari va boshqa normativ xuquqiy xujjatlari uning xududidagi barcha fuqarolarga, davlat organlari, jamoa birlashmalariga O’zbekiston fuqarosi bo’lmagan respublikada yashamaydigan chet el fuqarolariga nisbatan harakatda bo’ladi.

O’zbekiston respublikasi xududid barcha chet el fuqarolari barcha chet el fuqarolari, diplomatik daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslardan tashkari, sodir qilgan jinoyati uchun Respublika jinoyat kodeksiga asosan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Chet el xududida yashaydigan chet el) fuqarolarning qonunlarga amal qilish, shu chet davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshiriladi. Bu ko’rsatilgan umumiy qoidalardan ayrim istisnolar bor. Masalan, O’zbekiston respublikasida yashaydigan chet el fuqarolari sudga majburiy tartibda kurgazma berish uchun keltirilgan bo’lsa, ammo u deplomatik daxlsizlik xuquqidan foydalansa ular ular

deplomatik yo'l bilan xal qilinadi. O'zbekistonda yashovchi barcha chet el fuqarolari, diplomatik daxlsizlikdan foydalanuvchi shaxslardan tashqari, sodir qilgan jinoyati uchun Respublika jinoyat kodeksiga asosan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Chet el xududida jinoyat qilgan O'zbekiston fuqarosi shu chet elning tegishli qonunlariga binoan javobgarlikka tortiladi.

Qonunchilik texnikasining axamiyati.

Qonun yaratishni rejalashtirish va prognozlash.

Qonunchilik texnikasi – xuquq ijodkorligining muzxim nazariy-amaliy masalalaridan biridir.(KT). Qonunchilik faoliyatining sifati, samaradorligi va batartib tashqillashtirilishi kup jixatdan KTga bog'liqdir.KTsini xuquqiy aktlarni rasmiylashtirishning usuli (yo'l-yuriklari) sifatida talqin etish normativ aktlarning tili, uslubi, tuzilishi, xuquqiy qoidalarni shakllantirish xamda bayon etish masalalarini chukur o'rganish uchun asos bo'lib xisoblanadi.

KT – bu normativ-xuquqiy aktlarning loyixasini shaklan ifoda etish, kofiyalashtirish usul va uslublari, shuningdek, ularni tayyorlash ishlarini tashqil etish qoidalarini xamrab oluvchi komleks tushuncha bo'lib, unda normativ aktlar tayyorlashning tashqiliy-texnikaviy metodlari va ularni rasmiylashtirishning metodologik usullari uzviy birikib ketgan.

*KTsining muxim axamiyatga molik jixatlaridan biri qonunning tili, ifoda uslubi masalasidir.

Qonun tili – davlat xokimiyati uz fuqarolari bilan aloka boglaydigan rasmiy tildir.M: (Uzbek qonunchilik tilining kashshoklashib kolganini aytishimiz mumkin: «organ», «sessiya», «kontrakt», «byudjet», «sanatsiya», «sanktsiya» va x.k)

Shunday qilib, qonunlar til ifodasi jixatdan mukammal va aniq bo'lishi, turlicha talqin etiilishiga yo'l qo'yilmaydigan bo'lishi lozim.

# XUQUQ NORMALARI.

Reja:

1.Xuquq normalarining tushunchasi, belgilari va tuzilishi.

2.Xuquq normalarining turlari.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar:** norma,tizim, soxa, xuquqiy tartibga solish mexanizmi, tarmoq va institutlar, ta'sis etish, gipoteza, dispozitsiya, sanktsiya, blanket, imperativ, dispozitiv.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1.Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. Xalq so'zi. 2002.5 aprel.

2.Islomov Z.M. Teoriya gosudarstva i prava ch.1.11. T., 1997 yil

3.Karimova O., Gafforov Z. Davlat va xuquq asoslari T., 1995 y.

4.Saidov A., Tojixonov U. Davlat va xuquq nazariyasi: T.2.Davlat nazariyasi.O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2001 y. 94-121 betlar

5.Saidov A.Tojixonov U. Davlat va xuquq asoslari. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002 yil 30-33 bet.

6.Muxtorov N.,Mirzaliyev M. Yangi qonunlar mohiyati. Fuqarolik jamiyati-Civil society. №1 (9) 2007.38-43 betlar

7.Islomov Z.M. Davlat va xuquqning umumnazariy muammolari: xuquqni tushunish, xuquqiy ong va xuquq ijodkorligi. – T.: TDYuI. 2005**.**

8. Najimov M.K, Soburov N. «Davlat : asosiy tushuncha va atamalar». T. 2002 yil.


## 1.Xuquq normalarining tushunchasi, belgilari va tuzilishi.

Xuquq normalari ( norma so'zi lotincha bo'lib qoidadir). Har bir davlatning xuquq tizimi xuquq normalaridan, xuquq institutlaridan va xuquq soxalaridan iborat.

Xuquq normasi, bu xuquq tizimining dastlabki elementi xisoblanib, u barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solmay, balki ma'lum bir munosabatlarni tartibga soladi. xuquq normasi xuquq tuzilmasi ichida dastlabki element bqlib, yaxlit xuquqda bo'ladigan o'garishlarni u qzidan qtkazadi. Shu bois uning boshqa xuquq tizimi

tuzilmalariga ta'siri katta bqlib, agar ta'bir joiz bqlsa, uni xuquqning o’lchov birligi deyish mumkin.

Xuquq normalari bu davlat tomonidan ishlab chiqaridigan va qo’riqlanadigan qoidalar yhindisi bo’lib, bu normalarning o’zaro bog’lh va kelishilgan tizimi ma'lum tartibda guruxlarga ajratiladi.

Xuquq tizimi o’zining birligi, farqliligi, ob'ektivligi, kelishilganligi, bir-biriga ta'sir etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. xuquq normalarining birligi quyidagilarda ko’rinadi:

birinchidan, davlat erkining ifodalanish birligi bilan;

ikkinchidan, ular mavjud bo’lgan va faoliyat yuritadigan xuquqiy tizimning birligi bilan;

uchinchidan, xuquqiy tartibga solish mexanizmining birligi xususiyati bilan;

to’rtinchidan, qal qiluvchi vazifalar va maqsadning birligi xususiyati bilan.

Shu bilan birga, xuquq normalari o’zining konkret tartibi, harakat doirasi, tartibga solish predmeti va usuli, sanktsiyalari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli xam ular aloxida qismlarga, ya'ni tarmoq va institutlarga tasniflanaadi. Katta qajmdagi xuquq normalarida aloxida qolliziyalar, ajralishlar yuzaga kelishi mumkin, yaxlit olinganda ular ichki qonunchilik va tendentsiyalarga bo’ysunuvchi yagona xuquqiy mavjudlikni o’zida aks ettiradi.

Xuquq tizimi xuquq normalari o’zining ob'ektiv tabiatiga ko’ra, qonun chiqaruvchining erkini bo’qib qo’ymaydi, ya'ni qonun chiqaruvchi tomonidan o’zgartirilishi, unga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritilishi mumkin, lekin bu bilan qonun chiqaruvchiga xuquq tizimini bekor qilish yoki qaytadan tashqil etish xuquqini bermaydi. Muqim qilib ajratib kqrsatib bo’ladigan narsani muqim qilib kqrsatish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, davlat, qokimiyat, xuquq tizimining rivojlanishiga, mukammallashishiga ma'lum chegaralarda turtki berishi mumkin. Davlat va qokimiyat o’zining xoxishi yoki yangi dekretlari bilan istalgan xuquq tizimini ta'sis eta olmaydilar.

Xuquq normalari bu davlat tomonidan chiqarilgan bajarilishi barcha kishilar uchun majburiy bo’lgan, kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga

soluvchi qoidalar yhindisidir. Xuquq normalari tabiiy xuquq va pozitiv xuquqlardan iborat. Tabiiy xuquq insonga tabiat tomonidan beriladi. Masalan, insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik xukklari, Pozitiv xuquq esa davlat tomonidan qabul qilinadi. Xuquq normasi bu aloxida olingan turmush qoidasidir. Masalan; O'zbekiston Respublikasida xuquqning asosini O'zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi tashqil qiladi. Konstituttsiyaning har bir moddasi aloxida olinganda xuquqiy normadir.

Xuquq normalarining belgilari quyidagilardan iborat;

1) Xuquq normalari avlat tomonidan urnatiladi va barcha xalqning qonuniy irodasini ifodalaydi;

2) uning mazmuni jamiyatning ikisodiy tuzilishi bilan belgilanadi;

3) ularning bajarilishi barcha kishilar uchun umummajburiydir;

4) davlatning zo'rlik kuchi bilan amalga oshiriladi;

5) kishilar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.;

6) fuqarolarga xuquq vaburch belgilaydi.

7) uzoq muddat qo'llainiladi va talabga javob bermasa davlat vakolati organlari tomonidan bekor qilinadi.;

8) vakolat beruvchi, majbur etuvchi va tuldiruvchi harakterda bo'lishligi;

9) xuquq tizimida qonunlar, farmonlar,farmoishlar, qarorlar va boshqa shakldа faqat yozma holda qabul qilinadi;

10) xuquq normalari bir-biri bilan o'zviy boqlh bo'lib, davlatning yagona xuquq tizimini tashqil qiladi.;

11) davlat tomonidan qabul qilinadi va qo'rhlanadi, xuquqbuzarlik oqibatiga qarab qabul qilinadi va qo'riqlanadi, xuquqbuzarlik oqibatiga qarab turli jazo choralari qo'llainiladi.

XN ning xarakterli jixatlaridan biri – bu uning uzoq muddat davomida takror-takror qo'llanilishidir.

XN lar quyidagi xususiyatlarga ega:

xalqning irodasi sifatida amal qiladi;

davlat nuqtai nazaridan eng muxim deb hisoblangan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

ko’p marotaba qo’llaniladi va uzoq muddat amalda bqladi;

xalq manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy munosbatlarni qo’riqlaydi;

bir-biri bilan uzviy bog’liq va yagona XN lar tizimi ko’rinishida mavjud bo’ladi va amal qiladi;

lozim bo’lganda davlatning zo’rlik kuchi bilan ta'minlanadi;

aniq va qat'iy shaklga ega va x.

Xuquqiy normalar shakliga qarab quyidagi turlarga bo’linadi:

konstitutsion normalar;

-Qonunlar;

-farmonlar;

-xukumat qarorlari va farmoyishlari;

-vazirliklar va davlat qo’mitalarining buyrug’ va yo’riqnomalari;

-maxalliy organlarning qaror va farmoyishlari;

jamoat tashqilotlarining davlat tomonidan ma'qullangan normativ aktlari;

xuquqiy odat va normativ shartnomalar va x.

XN tuzilishi xaqidagi tushuncha (bilim)ni bilish nafaqat xuquq ijodkorligi bilan shug’ullanuvchi organlar, balki xuquqni qo’llash organlari uchun ham muxim rol o’ynaydi. Birinchisiga bu bilimlar yuridik qaror (ko’rsatma)larni to’g’ri talqin qilishga yordam bersa, ikkinchisiga esa ularni o’z o’rnida ishlatishga yordam beradi.

XNlari o’zining bir butunligi, birligi, bo’linmasligi bilan ajralib turadi. Uning uchun aloxida tuzilish ham xos bo’lib, elementlarning o’zaro aloqasi va maxsus mazmunga ega ekanligi bilan farqlanadi. xuquq normalarining tuzilishi deganda uning ichki tuzilishi va elementlari birligi tushuniladi.

Xuquq normasining tuzilishi – uning yuridik faoliyati erkinligini ta'minlovchi o’zaro bog’liq bo’lgan zarur elementlarning majmui yoki birligi tushuniladi.

Har bir xuquqiy normaning tuzilishi 3 qismdan ; gipoteza, dispozitsiya va sanktsiyadan iboratdir.

Gipoteza (grekcha faraz qilishdir) xuquqiy normaning birinchi qismi bo’lib, u qo’llainiladigan shart-sharoit vaqtni bildiradi. Gipotezaning ikki turi mavjud bo’lib,

aniqlangan gipoteza va to’la aniqlanmagan gipotezadir. Aniqlangan gipoteza xuquqiy normada ko’rsatilgan xuquq va majburiyatlarning paydo bo’lishi, o’zgarishi yoki bekor bo’lishi aniq ko’rsatiladi. To’la aniqlanmagan gipotezada xuquqiy normaning kuchga kirishi va qo’llash tartibi ko’rsatilmaydi.

Dipozitsiya (lotincha so’z bo’lib, mazmun degan ma'noni bildiradi. Bu xuquq normasining ikkinchi qismi bo’lib, unda xuquq normasining mazmuni, qo’llaish tartibi va xuquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflarnin xuquq va burchlari ko’rsatiladi;

Dispozitsiyaning quyidagi turlari bor; 1) imperativ (aniq ko’rsatilgan) dispozitsiya- bunda xuquqiy normaning matnida dispozitsiya aniq ko’rsatiladi. Masalan; O’zbekiston Respublikasi Jkning maxsus qismidagi moddalar, 97-modda kasddan odam uldirish,118-modda nomusga tegish, 164-modda boskinchilik va boshqalar; 2) nisbiy belgilangan dispozitsiya. Bunda xuquqiy normaning mazmunini taraflar aniqlaydi va o’zgartiradi. Jumladan O’zbekiston Respublikasi Mkning 228-moddasida xomilador ayollarni, bola emizuvchi va uch yoshga tulmagan bolasi bor ayollarni ularni roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashkari ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborilmaydi deb ko’rsatilgan; 3) dispozitiv (kayta tiklovchi) yoki vakolat beruvchi dispozitsiya bunda xuquqiy norma tomonlarga o’z xuquq va burchlarini belgilab olish vakolatini beradi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Mkning 72- moddasida «Mexnat shartnomasi xodim bilan ishni mexnat tartibiga bo’ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mexnat to’g’risidagi qonunlar va boshqa normativ xujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida xaq evaziga bajarish xaqidagi kelishuvlar" »eb ko’rsatilgan; 4) blanket dipozitsiyasi - –unda xuquqiy normalar tegishli organga xulq atvor qoidasini belgilash xuquqini beradi. Jumladan; O’zbekiston Rnspublikasi Mkning «Mexnat xaqining mikdorini ish beruvchi bilan xodim o’rtasidagi kelishuvga asosan belgilanadi. Mexnat xaki qonun xujjatlari bilan belgilangan eng kam mikdordan oz bo’lishi mumkin emas va uning eng ko’p miqdori biron-bir tarzda cheklanmaydi» deb ko’rsatilgan. Bo’lardan tashqari xuquqiy norma dispozitsiyasining xavola qiluvchi, to’la aniqlanmagan va aniqlangan dispozitsiya turlari mavjud.

Xuquq normasining uchinchi qismi sanktsiyadir (sanktsiya-lotincha chora degani)

Sanktsiyada xuquq normalari talablariga rioya qilmaslik natijasida davlat tomonidan qo'llaniladigan majburiy choradir. Sanktsiya xuquq normasining yuridik kuchini barcha fuqarolar uchun majburiyligini ifodalaydi. Sanktsiyalar xuquq normalarining harakteriga qarab intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, minoiyqxuquqiy va boshqa sanktsiyalarga. Xodimlar mexnat intizomini buzganlik uchun ish beruvchi intizomiy jazo choralarini qo'llaydi. Ma'muriy xuquqbuzarlik sodir qilganda O'zRMJTKning ko'rsatilgan jazo choralarini beradi. Jinoyat sodir qilganda O'zRJKda belgilangan jazo choralari qo'llaniladi. Fuqarolik xuquq normalari buzilganda yetkazilgan zararni undirish, tuzilgan shartnoma va bitimlarni qonunsiz deb topish choralari belgilangan.

Sanktsiyalar xuquq normalarining ifodalanishiga qarab quyidagi uch turga bo'linadi; Nisbiy belgilangan sanktsiyalar (masalan,6 oydan 25 yilgacha ozodlikdan maxrum qilish), absolyut (mutloq) belgilangan sanktsiya (70000 sum jarima), alternativsanktsiya (masalan, moddada yo ozodlikadan maxrum qilish yoki kamok ijazosi belgilangan), Bitta yuridik moddada xuquqiy norma tuzilishining uchala qismi bo'lmasligi mumkin. Modda bilan xuquq normasi o'rtasida farq bor. Chunki xuquq normasining tuzilishi deganda bu uch qismning kaerda va kay darajada ifoda etilishidan qat'iy nazar, ular o'rtasidagi mantiqiy boglanish va uning mazmuni tushiniladi.

Xuquq normasining mantiqiy tuzilishi bu obektiv xodisadir. Chunki har bir xukk normasi kishilar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun tegishli qoidalarni belgilab ularni kishilardan bajarilishini talab qiladi.. Xuquq normasining tuzilishi uch qismdan-gipoteza,, dispozitsiya va vanktsiyadan tashqil topishi amaliy ishda ishlovchi xuquqshunos xodimlarni barcha harakatdagi normativ xuquqiy xujjatlarni atroflicha analiz qilishni talab etadi, qonun va xuquqiy normatif xujjatlarni xayotga qo'llai uchun mavjud bo'lgan sharoitni, uning mazmunini bilishni va ularga rioya qilinmasa xayotda ishlar noto'g'ri xal qilinadi.

Xuquq normasining har bir elementi xuquq normasi tuzilishida o'zining o'rniga ega bo'lib, asosiy rol o'ynaydi, ya'ni yuridik fan nuqtai nazaridan gipotezasiz – normaning

bo'lishi o'zining ma'nosini yo'qotadi, dispozitsiyasiz norma bo'lmaydi va sanktsiyasiz norma kuchga ega emas.

2.Xuquq normalarining turlari.

Xuquq normalarini tasniflash (klassifikatsiya) xuquqni tartibga solish tizimida yuridik normalarning o'rni va ahamiyatini to'qri va aniq belgilashga yordam beradi.

XNlarini quyidagi belgilarga qarab tasniflash mumkin:

funktsional ahamiyatga qarab boshlanqich normalar, umumiy normalar va maxsus normalarga bo'linadi.

Boshlang'ich normalar - ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning asosini, ularning maqsadi, vazifasi, chegarasi va yo'nalishini ifodalaydi.

umumiy normalar - u yoki bu soxa xuquqining umumiy qismiga taalluqli bo'lib, tegishli xuquq yo'nalishi institutlarining butun yoki keng qismiga joriy qilinadi.

maxsus normalar – u yoki bu xuquq soxasi yo'nalishining aloqida institutga tegishli bo'lib, ma'lum bir yondosh (yaqin) ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tartibga soladi.

Ma'lum soxaga tegishliligiga qarab, konstitutsiyaviy, fuxarolik, ma'muriy va x.

Xarakteriga qarab: moddiy, protsessual (jinoyat protsessi, fuxarolik protsessi)

xuquqni tartibga solish usuliga qarab:

* imperativ (hokimiyatlilik xarakteriga faromoyishlarini mujassamlashtiruvchi);
* dispozitiv (mustaqil xarashlarni mujassamlashtiruvchi);
* raqbatlantiruvchi (ijtimoiy foydali yurish-turishlarni);
* tavsiyanoma ko'rinishidagi normalarga bo'linadi.
* xarakat qilish vaqtiga qarab:
* doimiy va vaqtinchalik (Prezident farmonlari favqulotda xolat qaqida).

xar qanday xuquq normalari shaxsga ma'lum xarakat (xulq) shaklini ko'rsatib beradi, shunga ko'ra ularni:

majburiy yuklovchi (obyazo`vayuqie);

taqiqlovchi (zaprehayuhie);

vakolat beruvchi, ya'ni  ba'zi xatti-xarakatlarni, yuridik oqibatlarni bajarishga mikoniyat berishga (upolnomachivayuhie).

Jamiyatda ijtimoiy xayotning barcha tamoillarini tartibga soluvchi xuquq normalari quyidagi belgilarga asosan turlarga bo'linadi.

Birinchidan, xuquq normalari jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga solish predmeti va usuliga qarab, turli xuquq soxalariga bo'linadi.Masalan,Konstitutsiyaviy xuquq normasi,ma'muriyxuquq normasi,fuqarolik xuquq normasi,jinoyat xuquq normasi,mexnat xuquq normasi,moliya xuquq normasi va boshqalar.

Ikkinchidan,xuquq normalari qaysi davlat organi chiqarishiga ya'ni sub'ektga qarab qonunlarga (davlat Konstituttsiyasi va joriy qonunlar) va qonun osti aktlariga (farmon, qaror, farmoish va boshqalar) ajratiladi. O'zbekiston Rnspublikasi qonun chiqaruvchi oliy organ O'zbekiston  Respublikasi Oliy Oliy Majlisi bo'lib, u faqat kounun qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi xokimiyat boshlhi budib, qarorlar, farmonlar va farmoishlar qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasining turli vazirliklari, boshqarmalm davlat kumitalari buyruq qo'llainma, yuriknoma va nizomlar, viloyat, shahar va tuman deputatlari Kengashlari qaror va farmoishlar, ularning boshqaruvidagi xokimlar esa qarorlar chiqaradi.

Uchinchidan, xuquq normalari mazmuniga ko'ra kishilarning majbur etuvchi, man etuvchi va vakolat beruvchi normalarga bo'linadi. Majbur etuvchi xuquq normalari bu normalarning  bajapishga majbur etadi.  Masalan;  O'zR oila Koeksining 39-moddasiga asosan «Xotinining xomiladorligi aktida va bola tugilgandan keyin bir yil mobaynida er-xotining roziligisiz nikoxdan  ajratish to'g'risida ish ko'zgatishga xakli emas», deb ko'rsatilgan. Man etuvchi xuquq normalari kishilardan xuquq normasida ko'rsatilgan qoidalarni man etadi. Jumladan, O'zR Jkning 50-moddasiga asosan, ayblonuvchi suddan ximoyachini talab qilishga xakli, sud unga ximoyachi tayinlashga majbur. Vakolat beruvchi xuquq normalari kishilarga tegishli vakolatlar beradi.  O'zFKnig 164- moddasiga binoan, mulk egasiga qonun asosida mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish xuquqlapri berilgan.

To'rtinchidan, xuquqiy normalar ularda bayon etilgan qoidalarning mazmuni va harakteriga qarab qat'iy (imperativ) va dispozitiv (tuldiruvchi) xuquq normalarida xuquqiy qoidaning talabi qat'iy tarzda ifodalanadi. Masalan; O'zxFKning 23-moddasida «Fuqarolarning xuquq layokati yoki muomila layokatidag to'la yoki qisman voz kechish va xuquq layokati yoki muomila layokatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan xakikiy jmasdir», deb ko'rsatilgan. Dispozitiv ( tuldiruvchi) xuquq normalarida taraflar kelishb o'z xuquq va burchlarini xal qiladi. Masalan, O'zR Fkning 547-moddasida, agar qonun xujjatlari yoki shartnomada boshqacha tartibda nazarda to'tilmagan bo'lmasa , ijaraga beruvchi jaraga topshirilgan mol-mulkni o'z xisobidan karital ta'mirlashi shart deyilgan.

Beshinchidan, xuquq normlari xaqiqat qilish vaqtiga qarab doimiy va vaqtinchalik normalarga bo'linadi. Doimiy xuquq normalari deganda, harakatda bo'lgan barcha xuquq normalari vakolatli davlat organi rasman bekor qilingunga qadar amalda bo'lgan xuquq normalariga aytiladi. Vaqtinchalik xuquq normalari urush vaqtida, tabiiy ofatlar yoki maxsus masalalar bo'yicha qabul qilingan normalardir.

Oltinchidan, xuquq normalari harakat etish joyiga qarab O'zbekiston Respublikasi va maxalliy joylar xududida amal qiluvchi xuquqiy normalarga bo'linadi.

Ettinchidan, xuquq normalari ijtimoiy munosabatlarni mustaqkamlashga qarab, regulyativ (tartibga soluvchi) va iztimoiy munosabatlarni qo'riqlovchi normalarga bo'linadi. Regulyativ normalarga ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga xuquq va burch beruvchi xuquq normalari kiradi. Ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlovchi normalarga xuquqiy javobgarlik va subektiv xuquqlarni ximoya qiluvchi xuquq normalari kiradi. Bunga O'zbekiston Respublikasi jinoyat xuquq normalari kiradi.

## Huquqiy munosabatlar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga huquqiy munosabatlar, turlari, tuzilishi, mazmuni, ob'yektlari to'g'risida tushinchalar berish. alabalarda huquqiy munosabatlarga kirishish va ushbu jarayonda huquq va burchlarni ongli ravish-da bajarish tuyg'larini shaqillantirish.

**Darsning ko'rgazmasi:** Huquqiy munosabatlar, huquqiy munosabat belgi-lari, turlari, tuzilishi, mazmuni chizmalari.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar:** Huquqiy munosabatlar, turlari, mazmuni, ob'yektlari, nisbiy, mutlaq, moddiy huquqiy,protsessual, yuridik faktlar.

Reja:

1.Huquqiy munosabat va uning turlari.
2.Huquqiy munosabatларning tuzilishi.
3.Yuridik fakt va uning klassifikatsiyasi

### Foydanalingan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.,O'zbekiston.1998 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.T., 1996 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.T., 1996 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.T., 1998 yil
5. . O'zbekiston Respublikasining Jinoyat prostetsiysual kodeksi. 1995 yil.
6. Saidov A., Tojihonov U. Davlat va huquq nazariyasi.T.,2. Xuquq nazariyasi. Adolat, 2001. 254-278 bet.
7. . O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.T., 1995 yil.
8. Saidov A., Tojihonov U. Davlat va huquq asoslari. T., Adolat 2002 yil. 43-45 betlar
9. Islomov Z. Davlat va huquq: Umumnazariy masalalar.T., Adolat 2000 yil.

## 1. Huquqiy munosabat va uning turlari.

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlar- bu kishilar o'r tasidagi turli iqtisodiy, madaniy, siyosiy, mafko'raviy va goyaviy munosabatlarning yig'indisidir. Bu ijtioiy munosabatlar ikki guruhga bo'linadi, ya'ni iqtisodiy va gryaviy munosabatlar. Jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning asosini iqtisodiy yoki moddiy munosabatlar tashqil qiladi. Iqtisodiy munosabatlarga jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va qurollari kiradi. Iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy qonunlar bilan tartibga solinadi.

Xuquqiy munosabatlar nazariyasi xuquq ilmi soxasiz uzok muddat davomida ishlab chiqilmokda va o'rganilmokda. Birinchi etapi N.V.Kro`lenko, P.I.Stuchki, E.B.Pashukanislar nazariy faoliyati bilan bog'liq.

Xuquqiy munosabatlar mavzusiga kushimcha tezislar:

Xuquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning xar xil ko'rinishlari, shuningdek, kishilar o'rtasildagi ijtiomiy alokalar xisoblanadi. Ular individlarni faoliyatiga va yashashlariga ko'ra birlashtiradilar.

Xar bir yangi avlod ob'ektiv ravishda mujassamlashgan va mukammallashgan aloka va munosabatlar tizimiga duch keladi, uz navbatida bu avlod ushbu tizim bilan albatta xisoblashishga (tan olishga) majburdir va x.k

Bu alokalar va munosabatlar vakt utishi bilan evolyutsion yoki revolyutsion yo'l bilan uzgarishi mumkin, ularning urnini esa, yangi ijtimoiy munosabatlar egallaydi.

Jumladan, fan va texnikainng usishi ishlab chiqish taraqqiyoti oldin uylamagan imkoniyatlarni yuzaga keltirishi mumkin (tovarning xilma-xilligi, xizmat turlarining vujudga kelishi va x.k). lekin, bo'lar uz navbatida tabiiy resurslarni kamayishini, atrof-muxitni ifloslanishini takozo etadi.

Demak, xar kanday ko'rinishdagi ijtimoiy munosabatlari insonning ma'lum darajada erkin rivojlanishi masshtabi bilan birgalikda ma'lum cheklanishlar xam mavjud ekan.

Agarda bo'lar (aytilganlar) shaxs va davlatning manfaatlarini ifoda etasalarda, biroq muayyan ijtimoiy munosabatlar, xuquqiy t.s. doirasiga tushadi va tegishli ravishda

yuridik xarakter kasb etadi. 1-si (erkinlik) – sub'ektiv xuquqqa aylansa, 2-si (cheklanish) – majburiyga aylanadi.

Sub'ektiv xuquq – xuquq normalarida kuzda to’tilgan xuquqiy munosabat ishtirokchilarining mumkin bo’ldgan doiradagi xulqi va xulq-atvori bo’lib, sub'ektning uz shaxsiy manfaatlarini kondirishiga imkon beradigan yuridik choralardir. (bu qonun bilan cheklanmagan xuquq, ya'ni sub'ekt bu xuquqdan uz xoxishiga ko’ra foydalanishi mumkin).

Xuquqiy munosabatlarning (klassifikatsiyasi).

Xuquqiy munosabatlarning (klassifikatsiyasi) tasnifi turli xil asoslarga ko’ra amalga oshiriladi.

xuquq tarmok (soxa)larga mansubligiga ko’ra (davlat, fuqarolik, Konstitutsion xuquq);

mazmunining xarakteriga ko’ra (umumregulyativ, regulyativ, kuriklovchi xuquqiy munosabatlar);

xuquqiy munosabatlarning sub'ektlariga ko’ra (nisbiy, absolyut, umumiy);

majburiyatlarning xarakteriga ko’ra (passiv va aktiv tipdagi xuquqiy munosabatlar);

ma'nosiga ko’ra (oddiy va murakkab xuquqiy munosabat).

Huquqiy munosabatlarning turlari quyidagiarldan iborat.( sxemaga qarang)

1. 40-50 yillarda xuquqiy munosabatlar bilan xuquqiy normalar o’rtasidagi o’zaro alokalarning chukurlashuvi xakidagi qarashlar yuz beradi.
2. 60 yillardan boshlab olimlarning dikkati bu muammolarning aloxida tomonlarini chukurrok o’rganishga va ishlab chiqishga, ayniksa xuquqiy munosabatlarning boshqa xuquqiy xodisalar tizimida tutgan urnini bilishga qaratiladi.
3. Bugungi xuquqiy munosabatlar tushunchasi, uning tasnifi (klassifikatsiyasi) tushunchasi chukur munozaralarga sabab bo’lib kolmokda. Jumladan, nisbiy va absolyut xuquqiy munosabatlar masalasi, xuquqiy munosabatlar ob'ekti, sub'ektiv xuquq va yuridik majburiyatlarning mazmuni masalalariga va b.

4. Ma'lumki, xuquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Natijada ular xuquqiy shaklga ega bo’ladilar, ya'ni xuquqiy munosabatlar bo’lib, yuzaga chiqadilar.
5. Ijtimoiy munosabatlar, biz bilamizki, - bu kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonidagi ular o’rtasidagi alokalardir.
6. Ijtimoiy munosabatlarning sub'ektlari bo’lib, ijtimoiy jamoalar (xalk, millat, jamoa va b.) xamda tashqilotlar (davlat tashqilotlar, xususiy va jamoat), aloxida shaxslar xisoblanadilar.
7. Xuquq kuchli tashqiliy faktor sifatida yuzaga chiqib, jamiyat va davlat xayotiga tegishli aniqlik va mukarrarlik kiritadi. «xuquq munosabatlar» kategoriyasi kishilarning xulqiga xuquqning ta'siri kanday bo’ladi, degan savolni tushunishga yordam beradi.
8. Xuquqiy munosabatlar bu – xuquqning ijtimoiy munosabatlarga bo’lgan real ta'siri bo’lib, uning ishtirokchilari tegishli ravishda sub'ektiv xuquq va yuridik majburiyatlarga egadir.
9. Xuquqiy munosabatlar bu –xuquqiy normalar yordamila tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir.
10. Xuquqiy normalar uzgalarning vazifa va funktsiyalarini xuquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradilar, xuquqiy munosabatlarni tartibga solish bilan xuquq turmushiga tadbmik etiladi. Unda kuzda to’tilgan norma amalga oshiriladi.
11. Xuquqiy munosabatlar bu – uning mub'ektlari o’rtasidagi aloka bo’lib, xuquqiy normalarga asosan yuzaga keladi, sub'ektiv xuquq va yuridik majburiyatlar uning asosiy mazmunini biliradi.
12. Xuquqiy munosabatlarning quyidagi belgilari mavjud:
13. bu ijtimoiy munosabatlar bo’lib, ijtimoiy sub'ektlar o’rtasidagi alokani belgilaydi.
14. U xuquq normalari asosida paydo bo’ladi;
15. Bu sub'ektiv xuquqlar va yuridik majburiyatlar vositasida shaxslar o’rtasidagi alokalar;

16. Bu erkiy munosabatlar bo’lib, uning paydo bo’lishi uchun ishtirokchilarning erki (irodasi) darkor;
17. Bu munosabatlar davlat tomonidan kuriklanadigan va uning tarkibida davlat majburlov kuchi bo’lishi zarur bo’ladi.
18. Xuquqiy munosabatlarning elementlariga quyidagilar kiradi:
19. xuquq ob'ekti (ashyolar, munosabatlar);
20. xuquq sub'ekti (yuridik va jismoniy shaxslar – xuquqiy layokati muomala layokati)
21. yuridik fakt (xarakat va xodisalar)

1.Jamiyatda ijtimoiy munosabailarning tartibga solish predmeti va usuliga qarab turli huquqiy munosabatlarga va har-hil sohalariga bo’linadi. Masalan; Konstitutsion huquqiy munosabatlar- Konstitutsiyaviy huquq bilan, ma’muriy huquqiy munosabatlar – ma’muriy huquq bilan fuqarolik huquqiy munosabatlar_ fuqarolik huquqiy bilan, jinoiy huquqiy munosabatlar_ jinoiy huquq sohalari bilan tartibga solinadi.

2.Jamiyatda huquqiy munosabatlar turli huquqiy normalar bilan kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning regulyativ va qo’rhlovchi turlariga bo’linadi. Regulyativ huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflar o’z huquq va burchlariga qat’iy amal qilishi kerak. Masalan; fuqarolik huquqi bo’yicha oldi-sotdi, qarz shartnomalarini amalga oshirilishi. Huquqiy qo’rhlovchi ijtimoiy munosabatlar davoatning zo’rlik qismidani moddalar ya’ni 97-modda kasddan odam uldirish, 210-modda pora olish, 277- modda bezorilik va boshqalar.

3.Huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi sub’yektlarga qarab huquqiy munosabatlar nisbiy ( masalan oldi-sotdi shartnomasida da’vogar va javobgar ), mutloq huquqiy munosabatlarga (masalan, O’zrning Konstitutsiyas asosan har bir fuqaro mehnat q’ilish, ilm olish va ijtimoiy ta’minot olish huquqlariga) egadirlar.

Jamiyatda huquqiy munosabatlarning o’ziga hos hususiyatlari va belgilari mavjud;

1) huquqiy munosabatlar huquqiy normalar orqali paydo bo’ladi, o’zgaradi va bekor bo’ladi. Huquqiy normalar orqali, davlatning zo’rlik kuchi bilan huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning erki irodasi amalga oshiriladi.

2) Huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflar ongli ravishda katnashib, ular huquq va burchlarga qat'iy amal q'ilishi kerak.

3) Huquqiy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy tuzilishi bilan o'zviy bog'liq bo'lib, undan yuqori bo'la olmaydi. O'z navbatida jamiyatning iqtisodiy tuzilishini rivojlantirishga katta yordam qiladi.

4) Huquqiy munosabatlar jamiyatdagi diniy, falsafiy, urf-odat , ahloqiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

| № | Мезонлар | Турлари | Мисоллар |
|---|---|---|---|
| 1. | Хукук сохаларига кура | Конституциявий, маъмурий, жин. Хукук, мехнат, оила х… | К)фукаролик муносабатлари! Ж) угирлик учун жавобгарлик! |
| 2. | Мазмунининг характерига кура | Умумрегулятив<br>Регулятив<br>курикловчи | Конкрет шахснинг мехнатга булган конституциявий хукуки! Шартномага асосан мехнат хукуки ва мажбуриятлари! Содир килинган жиноят учун жиноий жавобгарлик! |
| 3 | Хукукий муносабатларнинг субъектларига кура | Абсолют<br>Нисбий умумий | Мулкчилик хукукий муносабатларнинг олди-сотди хукукий муносабатларнинг |
| 4 | Мажбуриятлар характерига кура | Пассив типдаги<br>Актив типдаги | Мулкчилик хукукий муносабатларинин солик муносабатлари |

## 2.HUQUQIY MUNOSABATNING TUZILISHI.

Xuquq ikkiyoklama xarakterga ega bo’lib, ular yuridik xamda faktik mazmunga ega bo’ladi.

Xuquqiy munosabatlarning yuridik mazmuni – vakolat yoki majburiyat olgan shaxslarning ma'lum xarakatlari bo’lsa;

Xuquqiy munosabatlarning faktik mazmuni – xuquq va majbukriyatlar tadbik etiladigan xarakatlarning uzidir.

Masalan, o’rta ma'lumotga ega shaxsning sub'ektiv xuquqini mazmunini xamrab olgan imkoniyatlarning kengligi (bir necha vuzlarga nisbatan) bo’lsa, biroq uning bitta vuzga kirib ukishi mumkinligi, ya'ni uning sub'ektiv xuquqining tadbik etishining fakat bitta varianti mavjudligidir.

Xuquqiy munosabatlarning mazmuni – bu sub'ektiv xuquq va yuridik majburiyatlardir.

Xuquqiy alokalarning ikkita tipi mavjud bo’lib, ularga
nisbiy alokalar ( xuquq sub'ektlari o’rtasidagi)
absolyut alokalar( xuquq sube'ti bilan jamiyat o’rtasidagi) kiradi.

Sube'ktiv xuquq- yuridik jixatdan mumkin bo’lgan xulq-atvor yoki sub'ektning uz shaxsiy manfaatlarini kondirishga imkon beradigan yuridik choralardir.

Sub'ektiv xuquqning quyidagi belgilari mavjud:

- sub'ektiv xuquq- bu imkoniyat darajasidagi xulqning ko’rinishi (chegaraviy)
- sub'ektiv xuquq- bu mumkin bo’lgan xulq, ya'ni uning tashuvchisi uchun xar doim tanlash imkoniyati mavjud: ma'lum tartibda xarakat qilish yoki qilmaslik;

Taxlil qilinayotgan xuquqning mazmuni xuquq normalari va yuridik faktlar tomonidan urnatiladi.

Sub'ektiv xuquqning amalga oshirilishi boshqa (2-chi) tomonning majburiyatlari bilan ta'minlanadi; ba'zi xollarda 2-chi tomonning bu majburiyati sub'ektiv xuquqni buzuvchi xarakatlaridan saqlanishini takozo etsa, ba'zi boshqa xollarda esa aksincha, ya'ni u shaxs tomonidan olingan majburiyatlarini bajarilishini takozo etadi.

Sub'ektiv xuquq vakolatli shaxsga uning manfaatlarini kondirish uchun beriladi.;

Ushbu xuquq (s.x.) nafakat imkoniyat (yoki yuridik choralar) dan, balki vakolatli shaxsning yuridik yoki faktik xulqidan iborat bo'ladi.

Sub'ektiv xuquq – murakkab xodisa bo'lib, uz ichiga bir qator xuquqiy vakolatlarini xamrab oladi. Bo'larga:

Shaxsiy faktik xarakatlarga nisbatan bo'lgan xuquq (xuquq ob'ektining ijobiy xususiyatlaridan foydalanishga yunaltirilgan xuquq xarakatlar); mulkdor uz narsasini uz urnida ishlatilishi.

Yuridik xarakatlarga nisbatan bo'lgan xuquq (yuridik karorni qabul qilish (mulkdorning uz narsasini olib quyishi, sotishi, sovga etishi va x.k.).

Talab qilish xuquqi (ikkinchi tomondan uz majburiyatlarini bajarilishini talab qilish, ya'ni begona xarakatlar nisbatan talab qilish xuquqi. Karz beruvchining karz oluvchidan karzini kaytarishni t.k.).

Kuch ishlatishga moyillik xuquqi (pryatyazanie) (ya'ni majburiyatli shaxsga nisbatan uning tomonidan ushbu majburiyatni bajarishiga qaratilgan xuquqiy xarakatlar).

Yuridik majburiyatlar – bu vakolatli shaxsning manfaatlaridan kelib chiqib, majburiyat olgan shaxsga qaratilgan va davlatning majburlov kuch tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan zaruriy xulqiy xarakatlar yoki yurish – turishdir (chora-tadbirlar).

YuM – bu XM ishtirokchilarning tegishli xuquqiy normaga asosan uzlarining burchi bo'lgan xarakatni amalga oshirishlari va muayyan xarakatlarni sodir etishdan uzlarini tiyishlaridir.

Yuridik majburiyatlarning quyidagi majburiyatlari mavjud:

Bu zarur xulqiy choralardir;

-U xuquq normalari talablariga ko'ra yoki yuridik faktlar asosida urnatiladi;

-Bu majburiyat vakolatli tomonning (shaxs, jamiyat, davlat) manfaatlarini kuzlab urnatiladi;

-Majburiyat – nafakat majburiy xol bo'libgina kolmasdan, balki u majburiyat olgan shaxsning real faktik xulqidir;

Majburiyatga ega shaxsning oldida tanlash imkoniyati bo'lmaydi (bajarish va bajarmaslik majburiyatlari o'rtasida). Yuridik majburiyatni bajarmaslik yoki uni tula bajarmaslik xuquqni buzish xisoblanadi, davlat tomonidan choralar kurishni takozo etadi.

- Yuridik majburiyatlar 3 ta asosiy shaklga ega:
- Takiklangan xarakatlardan uzini tutish (passiv xulq);
- Muayyan (konkret) xarakatlarni sodir etish (aktiv xulq);
- Tashqiliy, mulkiy va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan xuquqlardan chegaralanish (kanoatlanish)lik.

Shunday qilib sub'ektiv xuquq va majburiyatlar bir – biri bilan uzliksiz bog'liqdir. Ya'ni xech bir sub'ektiv xuquq yukdirki, u majburiyat bilan ta'minlanmagan bo'lsa, va aksincha, xech bir majburiyat yukki, u xuquqqa mos kelmaydigan.

Huquqiy munosabat 4 ta o'ismdan iborat. Bo'lar huquqiy munosabatlarning sub'yekti, ob'yekti, huquq va burchdan iborat. Sub'yekt huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi shahslardir. Bu shahslar 2 ga bo'linadi. Jismoniy shahslar, fuqarolar va yuridik shahslar. Fuqarolar (jismoniy shahslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatning va fuqaroligi bo'lmagan shahslar tushuniladi..

Yuridik shahslar deb o'z mulkiga ho'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan, mulkiy yoki nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan shahslarga aytiladi. Yuridik shahslarga davlat organlari, muassasalar, korhonalar va jamoat birlashmalari kiradi.

Sub'yektlar ya'ni fuqarolar va yuridik shahslar huquqiy munosabatda ishtirok etishi uchun huquq layokati va muomila layokatiga ea bo'lishi kerak. Ular bir vaktda o'z huquqini va burchini bajarishi kerak. Fuqaroning huquqiy layokati u tugilgan paytdan paydo bo'ladi. va vafot etishi bilan tugaydi. Bazan huquqiy layokat fuqaro tugilmasdan oldin ham bo'ladi. Masalan; O'zbekiston Respublikasi Fuqarolir kodeksiningning 1135-moddasiga asosan meros qoldiruvchining vafotidan keyin tugilgan bolalari qonun buyicha vorislik bo'ladi..

Muomila layokati shahsning (fuqarolar, yuridik shahslar) o’z harakatlari bilan fuqarolik huquqi  olish va o’ziga yuridik burch tugdirish va huquqbo’zarlik uchun javob berishligidir. Fuqarolarning huquqiy layokati ularning tugilish vaktidan boshlansa, muomila layokati ma’lum yoshdan qisman 13-16 yoshdan, to’la 18 yoshdan boshlanadi. Yuridik shahslarning huquqiy layokati va muomila layokati ular tashqil etilishi bilan paydo bo’lib, tugatilishi bilan bekor bo’ladi.Fuqarolik Kodeksining 27, 28, 29, 30, 31, 32 – moddalarida uz ifodasini topgan. Muomala layokati sud tomonidan cheklanishi mumkin.

Xuquq sub'ektlari bo’lib fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo’lmagan shaxslar, tashqilotlar, ijtimoiy birikmalari xisoblanishi mumkin.

Huquqiy munosabatning ob’yekti bu huquqiy munosabatlar qanday ijtimoiy munosabatlarga qarshi qaratilgan bo’lishligidir.. O’z FK ning 81- moddasiga asosan fuqarolik huquqlarining ob’yektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli koglzlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va hizmatlar, ihtirolar, sa’at na’munalari, fan, adabiyot san’at asarlari va intelektual faoliyatiing boshqa natijalari, shuningdek shahsiy nomulkiy  huquqlar va boshqa moddiy  hamda nomoddiy boyliklar kiradi. Masalan, mexnat xuquqiy munosabatlarda kishilar o’rtasidagi ijtimoiy mexnat munosabati (ob'ekt).

Ob'ektlar bo’lib xuquqiy sub'ekti uchun kadriyatli bo’lgan turli xil predmetlar xam bo’lishi mumkin.

Xuquqiy munosabatlarning sostavi (tarkibi) (oldi-sotdi xuquqiy munosabatlar misolida)

Yuridik fakt           XMlar sub'ektlari

Yuridik mazmuni   Faktik mazmuni narsa (berish )

XM ob'ektlari         pul (olish)

Huquqiy munosabatlarning tuzilishini 3- qismi unda ishtirok etuvchi bir tarafda huquqning mavjudligidir. Huquq bu  uning ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan unda belgilangan harakat va harakatsizlkni amalga oshirishini talab qiladi. Masalan; uyni sotgan mulkdor uning narh-pulini talab q’ilish huquqiga ega.

Huquqiy munosabatni tuzilishini 4- qismi unga ishtirok etuvchi ikkinchi tarafda burch yoki majburiyatning mavjudligidir. Burch huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi shahsning huquq talab qilgan narsani bajarishdir. Masalan; uy oldi-sotdi artnomasida uyni sotib olgan taraf uy narhini- pulni to'lash uning burchidir.

## 3.YURIDIK FAKT VA UNING KLASSIFIKATSIYASI

Bu huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi faktlardir. Yuridik faktlar huquqiy tartibga solish mezanizmida muhim rol o'ynaydi. Ular huquqiy normalar bilan alohida huquqiy munosabatni bog'laydi. Yuridik faktlar ijtimoiy munosabatlarning turiga qarab ko'p turlidir. Shuning uchun bir necha asoslarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi. Yuridik faktlar harakteriga ko'ra oddiy va murakkab yuridik faktlarga bo'linadi. Oddiy yuridik faktga magazindan kerakli tovarlarni sotish natijasida haridor va sotuvchi o'rtsida huquqiy munosabatning paydo bo'lishidir. Murakkab yuridik faktlar sababli paydo bo'ladigan huquqiy munosabatlar bir necha yuridik fakt bo'shligini talab qiladi. Masalan; Karilik pensiya olish uun quyidagi yuridik faktlarni tasdiklovchi hujjatlar kerak; mehnat staji, ma'lum yoshga yetishi, pensiya tayinlashni surab yozilgan ariza va pensiya tayinlash tugrsidagi ijtimoiy ta'minot organlarining qarori.

Yuridik fakt inson irodasiga bog'liq yoqibog'liq emasligiga qarab ikki guruhga bo'linadi;yuridik hodsalar va yuridik harakatlar. Hodisalar sababi paydo bo'ladigan yuridik faktlar insonga bog'liq bo'lmagan holda tabiat va jamiyat kuchlari tufayli paydo bo'ladi. Masalan; bolaning tugilishi, insonning vafoti, yer kimirlashi, yongin va boshqalar. Bo'larning natijasida jamiyatda moddiy va ma'naviy zarar yetkazilsa, bo'lar yuridik faktlar bo'lib, tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinib huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Yuridik harakatlar natijasida paydo bo'ladigan faktlar 2 guruhga qonuniy va qonunsiz harakatlarga bo'linadi. Amaldagi huquqiy normalar asosida paydo bo'lgan va tartibga solinayotgan harakatlar qonuniydir. Masalan; turli shartnomalar va bitimlarning qonun asosida amalga oshirilishi. Huquqiy normalarnin talabiga zid, ularni bo'zish orqali sodir qilingan kishilarning harakat va harakatsizligi sababli paydo bo'lgan

huquqiy munosabatlar qonunsiz isoblanadi. Bo'lar intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy qonunsizliklarga bo'linib, ularga nisbatan tegishli jazo choralari belgilangan.

Demak ko'ramizki, jamiyatdagi huquqiy munosabatlar kishilar, davlat va jamoat birlashmalari o'rtasidagi hatti-harakatlarni, turli huquqiy normalar bilan huquqiy munosabatlar orkli tartibga solib qonuniy va huquqiy tartibotni mustahkamlaydi.

Xuquq munosabatlar – dinamik xodisa (jarayon). Ular yuzaga keladi, uzgaradi, tamom bo'ladi, tadbik etiladi. XMlarning dinamikasi real xayotiy xolatlar bilan bog'liq bo'lib, ya'ni ular yuridik faktlar bilan bog'liqdir.

Xuquq munosabatlarni vujudga keltiruvchi, uzgartiruvchi va bekor qiluvchi faktlarga yuridik faktlar deyiladi.

Kuriladigan faktlarning yuridik faktlari deyilishiga sabab, ular xuquq normalarida uz ifodasini topadi, ya'ni bevosita – gipotezada, bilvosita (yondoshgan) – dispozitsiya va sanktsiyalarda.

Kupchilik xollarda XMlarning yuzaga kelishi uchun yuridik faktlarning tarkibi talab etiladi, ya'ni 2 va undan kup yuridik faktlarning yigindisi bo'lishi darkor, ularning yigindisi yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishi zarur bo'ladi (masalan, nafaka bilan bog'liq XMlarning paydo bo'lishi uchun – belgilangan pensiya yoshiga etishi, mexnat stajining etarli bo'lishi, ijtimoiy ta'minot organining karori (pensiya berish to'g'risida) va b.).

Aybsizlik prezumptsiyasi – jinoyat jarayonida eng muxim demokratik printsipldardan xisoblanib, shaxsning xuquqini ximoya qiladi va asossiz ayblanishni yoki jazolashni takiklaydi.

Ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning qonunda urnatilgan tartibda aybdor deb xisoblanmasligi (toki uning aybi isbotlanmagunga kadar).

Xuquqdagi probel – xuquqiy tartibga solinadigan doiradagi munosabatlarni reglamentga solish uchun zarur bo'lgan konkret xuquq normalarining yukligi.

Masalan, uy-joy qonunchiligiga asosan ijarag oluvchi uchun ob'ekt bo'lib – turar joy xisoblanadi.

Ma'naviy ijod bilan bog'liq predmetlar xam xuquqiy munosabatlar ob'ektlari bo'lishi mumkin. (avtorlik xuquqi ob'ektiga – asad va x.k.).

# HUQUQ TIZIMI.

Reja:

1.Huquq tizimi tushunchasi va uning tuzilishi.

2.Huquq tizimining tuzilishi va tamoiylari.

3.O'zbekistonda huquq sohalarining yangilanishi.

4.Huquq tizimi va huquqshunoslik fanlar tizimi.

**Asosiy so'z va tayanch tushunchalar:** tizim, huquq institutlari, huquq sohasi, umumiy va mahsus qism, s'bektiv huquq va majburiyatlar, hokimiyat buyrugi usuli, yoki avtoritar usul, dispozitiv yoki avtonomiya usuli

## Huquq tizimi tushuncha va uning tuzilishi.

xuquq murakkab ijtimoiy vokelik bo'lib, ichki izchillik, bir butunlik, o'zaro alokadorlik va dialektik umumiylik xususiyatlariga ega.

xuquq tizimini xuquq normalarining oddiy yigindisi sifatida tushunmaslir kerak.Xuquq normasini tashqil etuvchi elementlar muayyan ob'ektiv boglanishga, mantiqiy alokadorlikka ega.

XNlar jamiyat taraqqiyotidagi dialektik jarayonning maxsuli sifatida xayot talablaridan elib chiqib uzgarib turadi. Yuridik normalar nixoyatda xilma - xil va keng kulamdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishiga karamasdan, ular o'zaro mutanosiblik va ichki alokadorlik qonuniyatlari asosida birlashadilar.Bu o'zaro muvofiklik va alokadorlikning jamiyat iqtisodiy tizimidan, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy xayot negizlarining yuirligidan kelibchiqadi. xuquqning bir butunligi, ob'ektiv xayotining aks etishi, maksadga muvofikligi, siyosiy yunalishi va ichki dialektikasi uning tizimida namoyon bo'ladi.

xuquq tizimi - ijtimoiy xayotning umumiy qonuniyatlari asosida shakllanadigan ob'ektiv xuquqiy xodisadir.

Yoki - bu xuquqning ichki tizimidan iborta bo'lib, o'zaro uzviy alokadorlikda va dialektik umumiylikda bo'lgan xuquq normalari, institutlari va soxalaridan tashqil topadi.

xuquq tizimining belgilariga quyidagilar kiradi:

uning birlamchi elementi sifatida xuquq normalari namoyon bo'lib uz navbatida ular yanada keng tashqil etuvchilarga - xuquq institutlari va xuquq soxalariga birlashadilar;

elementlar bir biriga o'zaro qarshi bo'lmasdan, ichki o'zaro boglangan bo'lib, unga tukislik va birlikni baxsh etadi;

u ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy, madaniy, tarixiy faktorlar bilan shartlangandir;

xuquq tizimi ob'ektiv xarakatga ega bo'lib, u ob'ektiv mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga bog'liqdir (u shaxslarning sub'ektiv qarashlariga nisbatan tashqil etilmaydi).

Shunday qilib, xuquq tizimining tuzilishini quyidagi elementlar tashqil etadi:

xuquqiy normalar;

xuquq institutlari;

xuquq soxalari;

Huquq tizimi jamiyatning iqtisodiy tuzilishida paydo bo'lib, u bilan bog'liq bo'lgan, uni mustahkamlaydiganhar bir davlatning ichki tuzilishi bo'lib, kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquq tizimi jamiyatning siyosiy, goyaviy, ma'rifiy va boshqa ijtimoiy belgilar bilan halkning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatiga va davlatning huquq ijodkorlik faoliyatiga bo'lhdir.

Huquq tizimi jamiyatdagi barcha millat, sinf va halknin qonun darajasida kutarilgan erki-irodasi bo'lib, ular o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga huquq norialari, huquq institutlaridan va huquq sohalaridan iborat bo'lib u obъyektiv harakterga ega.

**Huquq normalari** bu huquq tiziminig eng asosiy , dastlabki tuzilishidir. Huquq normalari jamiyatning iqtisodiy tuzilishi bilan belgilanadigan barcha kishilari uchun majburiy bo'lgan, ijtimoiy iunosabatlarni tartibga soluvchi turmush qoidalaridir. Masalan; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining har bir moddasi huquqiy norma bo'lib, bo'lar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansador shahslar va fuqarolar uchun amal q'ilish majburiy bo'lgan normalardir.. Huquq normalari barcha aholi uchun umumiy va majburiydir. Bo'lar doimiy qo'llaniladigan bo'lib, unda kishilar

uchun bajarish shartlari, sub'yektlar o'rtasidagi taribga solinadiagan ijtimoiy munosabatlar, taraflarnig huquq va burchlari huquqbo'zarliklar uchun jazo choralari belgilanadi.

**Huquq institutlari** -huquq sohasida bu o'zaro boglangan jamiyatda kishilar o'rtasidagi bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qancha huquq normalaridan iborat. Huquq institutlari huquqning asosi hisoblangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham mavjud. Masalan,»Inson va fuqarolaring asosiy erkinliklari, huquqlari va burchlari», «jamiyat va shahs», «ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi» va boshqalar.

Huquq institutlari huquqninп barcha sohasiga taalluqlidir. Jumladan, fukoralik huquqi sohasida mulk huquqi instituti, jinoyat huquqi sohasida davlatga qarshi institut mavjud. Bu huquq institutlari, tegishli huquq sohalarining ichki tarkibiy qismini tashqil qiladi. O'z navbatida birinchisi- mulkiy munosabatlarni, ikkinchisi davlatga qarshi qaratilgan jinoyat q'ilishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalardir.

Huquq normalarini institutlarga bo'lishdan maksad hayotda iavjud bo'lgan, juda ko'pgina huquq normalari bilan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, ularni huquq sohlariga birlshtirib amaliyotda huquq normalaini to'g'ri tadbik qilib foydlanishdir.

**Huquq sohasi** - hayotda o'ziga hos bir turdagi ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi mahsus huquq normalari va huquq institutlarining yig'indisidir. Masalan; moiyaviy munsabatlar ioliya huquqi sohasi bilan, mehnat huquqi sohasi bilan esa mehnat munosabatlari tartibga solinadi.

Huquq sohasi- hukuk tizimining asosiy qismi va mustaqil bo'ginidir. Har bir huquq sohasi umumiy va mahsus qismdan iborat bo'ladi. Bo'lardan shu sohaga tegishli ijtimoiy munsabatlarni tartibga solishning umumiy va mahsus tamoiylari bayon etiladi. Huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalari birlashib-huquq tizimini tashqil qiladi. Huquq tizimi huquqning mohiyati bilan ya'ni tabiiy huquq tabiat tomonidan berilgan, Masalan; insonning yashash huquqi, har bir shahsning mulkdor bo'lishlik huquqi va pozitiv huquq davlat tomonidan chiqarilgan huquq bilan belgilanadi.

Huquq tizimi O’zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiga utish vazifalariga, jamiyatning siyosiy tizimini mustahkamlab, demokratiyai amalga oshirishda va huquqiy davlat kurish uchun hizmat qiladi.

Demak, huquq tizimi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tuzilishi bilan belgilangan, ob’yektiv harakterga ega bo’lgan, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga soluvchi huquq normalari, huquq institutlari va ukuk sohalarining tartib bilan to’g’ri joylashtirilishidir.

Xozirgi zamon jamiyati xuquq tizimi quyidagi soxalarni birlashtiradi:

- davlat(konstitutsiyaviy) xuquqi - davlatning ijtimoiy va davlat tizimi asoslarini mustaxkamlaydi, fuqarolarning xuquqiy xolatlari asoslarini, davlat orgnlari tizimi asoslarini va ularning vakolatlarini mustaxkamlaydi;

- ma'muriy xuquq- davlat orgnlarining faoliyatini amalga oshirish jarayonida mujassamlashadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

- fuqarolik xuquqi - mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi;

- mexnat xuquqi- kishilarning mexnat faoliyatlari bilan bog’liq munosabatlarni tartibga soladi;

- oila xuquqi- oila,nikox munosabatlarini tartibga soladi va xakozo.

- 6,7,8,9,10,11) er xuquqi, fuqarolik-protsessual, jinoyat xuquqi, jinoyat-protsessual xuquqi, jinoyat ijroya xuquqi va boshqa tegishli munosabatlarni tartibga soladi.

## HUQUQ TIZIMINING TAMOYILLARI.

Huquq tizimi tarixi ob’yektiv shakllanuvchi hodisa bo’lganligi sababli, uning huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalariga ajratish ham ob’yektiv timoiyillri bu jamiyatda har bir huquq sohasi bilan kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabalarni tartibga solishdir. Bu ijtimoiy munosabatlar o’zining mazmuni va davlat boshqaruvining qaysi sohasiga tegishli ekanligi bilan farq qiladi. Jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy tuzilishidan kelib chiqqan hilma-il ijtimoiy munosabatlar shu munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarining turini belgilab beradi..

Shuning uchun ham huquq institutlar va huquq sohalariga hamda huquq nurmalariga, huquq tizimiga bo’lishning bosh asoslaridan biri bu huquq bilan tartibga

solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Bu ijtimoiy munosabatlar huquqiy tartibga solish predmeti deb ataladi. Huquqiy tizimining ikkinchi asosiy belgisi huquqiy tartibga solish usulidir. Bu esa davlat organlari tamonidan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llaniladigan huquq usullarining yig'indisidir. Bunday huquqiy usullar yuridik faktlarning paydo bo'lishida, huquqiy munosabatlarning sub'yektlarini va ularning huquqiy holatii aiklashda, tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilarning huquq va burchlarini belgilashda davlat organlari tamonidan qo'llaniladi. Huquqiy tartibga solish usuli quyidagi uchta holat bilan belgilanadi. a) sub'ektiv huquq va majburiyatlarni - yuridik majburyatlarni belgilash tartibi.

b)Su'bektlar harakati darajasini belgilash:

v) Su'bektiv huquq va majburiyatlarini ta'minlash ykllari bilan. Huquqiy tartibga solish usuli huquq sohalarini takkoslaganda yakqol namoyon bo'ladi. Chunonchi jinoyat huquqida bu usul buyicha «kattik» huquqiy tartibga solish ko'rinadi. Masalan; bezorilik, ugirilik, vrachning kasalga o'z vaktida yordam bermaslik jinoyatlarida.

xuquq tizimini soxalarga bo'lish asoslarining kriteriyasi (mezoni) bo'lib nima xizmat qiladi degan savol tugiladi.Xozirgi zamon yuridik fan nuqtai nazaridan bunday asos bo'lib xuquqiy tartibga solishning predmeti va xuquqiy tartibga solishning metodi xisoblanadi.

xuquqiy tartibga solishning predmeti va metodi - bu xuquqni soxalarga ajratishning bir muncha to'g'rirok asosi bo'lib xisoblanadi.xuquqiy tartibga solishning predmeti - bu xuquqning nimaga ta'sir etishini ko'rsatadi.

Xar kanday xuquq soxasi shunday xuquqiy normalarni birlashtiradiki, ular uz navbatida ijtimoiy munosabatlarning aynan, sifatan aniq turlarini tartibga soladi.xuquq normalari va xuquq soxalarining birlashuvi xuquq ijodkorligi xoxish irodasiga bog'liq bo'lmagan xolda ob'ektiv sabablar asosida yuzaga keladi.

Bir xuquq soxasining ikkinchi xuquq soxasidan farqining asosiy faktori bo'lib, tegishli xuquq soxalari tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning uziga xosligidir.Bu xoslik ularning maksad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Masalan, ma'lum xuquqiy munosabatlarning fuqarolik xuquqiy (mulkiy va nomulkiy) munosabatlaridan farklari.

xuquqiy tartibga solishning predmeti - bu ma'lum xuquq soxasi normalari ta'sir qiladigan sifatan bir xil turdagi ijtimoiy munosabatlardir.

xuquq normalarini xuquq soxalariga bo’lishda xuquqiy tartibga solish predmeti bosh rolni uynaydi.

Xar kanday xuquq soxasi uziga xos bo’lgan xuquqni tartibga solish usuliga (metodiga) ega.Ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etish usullarining uziga xos xususiyatlariga xamda ular o’rtasidagi farklarni belgilovchi tomonlariga ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining uziga xos xarakterga egaligi ta'sir etadi.

Ma'lum xuquq soxalarida xokimiyatlilik asosidagi majburlash usuli bo’lsa, boshqalarida tomonlarning tengligi asosidagi usul va uchuinchisida esa, cheklangan xarakatlarni takiklash usuli yuqorida bo’ladi.

xuquqiy tatibga solish metodi - bu xuquq soxalarining tartibga solish predmeti bo’lib xisoblangan ijtimoiy munosabatlarning ma'lum turlariga ta'sir etish usullaridir.

xuquqiy tartibga solish usuli bevosita xuquqiy tartibga solishning predmeti bilan belgilanadi(aniqlanadi).xuquqiy tartibga solish ususlining asosiy xarakteristikalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

xuquqiy munosabatlar ishtirokchilarining mavkei (polojenie), xarakteri va ular o’rtasidagi o’zaro xuquq va majburiyatlarning taksimlanishi;

xuquqiy munosabat ishtirokchilarining o’zaro sub'ektiv xuquq va majburiyatlarining yuzaga kelish asoslari tartibi (ya'ni zarur xuquqiy munosabatlarni yuzaga kelishi uchun asos bo’luvchi yuridik faktorlar);

sub'ektiv xuquqning buzilishi yoki sub'ektiv majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida xuquqka xilof xulqning yuzaga kelishi bilan bog’liq yuridik oqibatlarning xarakteri (xuquq normalari talablari va ularni kullashdagi xatoliklar (buzish) uchun davlatning majburlov choralarini kullash).

Shunday qilib, xuquq normalari xuquqiy tartibga solishning predmeti va usuli (metodi)ga mos xolda xuquq soxalari buyicha chegaralanadi.Davlat va xuquq

nazariyasi fanida xuquq tizimini soxalarga bo’lish asoslari muammosi xozirda xam baxsda sabab bo’lib kelmokda.

Huquqiy tpartibga solish asosan 2 usulga bo’linadi.; 1) hokimiyat buyrugi usuli yoki avtoritar usul. 2) dispozitiv yoki avtonomiya usuli. Avtoritar usulda huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflardan biri davlat bo’lib, u sub’yektlarning huquq va burchlarini paydo bo’lishligini aniq belgilaydi. U hokimiyat huquqiga ega bo’lib, «kattik tartib urnatadi. Bu usul ma’muriy, jinoiy va konstitutsiyaviy huquq sohalarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda keng qo’llainiliadi.

xatti-harakatlar sodir etiladigan doirasiga qarab iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqalar; 3) Sub’yektiga qarab fuqarolarning davlat va uning organlari, tashqilot , korxona va muassasalarning vaqillari xatti-harakatlari natijasida amalga oshiradigan huquqiy xulq; 4) Huquqiy normalarning tatbiq etish shakllari bo’yicha huquqiy xulq huquqiy normalarning ijro etish, amal qilish va ularni qo’llashga bo’linadi. O’zbekiston Respublikasi bozor ijtimoiy munosabatlariga o’tayotgan hozirgi davrda huquq sub’yektlari fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan huquqiy xulqqa ongli ravishda amal qilish huquqiy normalarni bajarish, qonuniylikka amal qilishdek, ularning huquqiy ongi va huquqiy aktivligiga bog’lik. Huquqiy aktivlik bu ularning jamiyatdagi harakatdagi huquqiy normalarni hurmat qilish va ixtiyoriy ravishda bajarishligi haqidagi ongli huquqiy faoliyatdir. Bu faoliyat fuqarolarga berilgan huquqlardan to’g’ri foydalanishda, jamiyat manfaati yoki qonun bilan qo’riqlanadigan shaxsiy manfaat yo’lida ularga berilgan burchlarni bajarishda ifodalanadi. Jamiyatda huquq fuqarolarning huquqiy aktivligini oshirishga katta ta’sir ko’rsatmoqda. Masalan; O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 32-moddasida har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o’z vaqillari orqali ishtirok etish huquqiga egadir. Bunday ishtirok etish o’zini-o’zi boshqarish, referendumlar o’tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashqil etish yo’li bilan amala oshiriladi. Bu huquq fuqarolarning hokimlar boshchilik qiladigan halk kokimiyati bo’lgan mahalliy halk deputatlari Kengashlariga, oliy davlat vaqillik organi, qonun chiqaruvchi hokimiyat O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga va boshqa saylab qo’yiladigaan davlat organlariga saylash va saylanish huquqi, muhim davlat masalalarida referendumlar o’tkazishda katnashish imkoniyatlarining yaratib berilishi bilan ta’minlanadi.

Huquqbuzarlik bu shaxslarning huquqqa qaratilgan jamiyat uchun havfli harakat yoki harakatsizligi bo’lib, buning natijasida ayb sodir qilinadi.

Demak, huquqbuzarlik qonun va boshqa huquqiy normalarga rioya qilmaslik natijsaida jismoniy fuqarolar va yuridik shaxslarning kasddan yoki ehtiyotsizlik sababli bo’lib jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga moddiy yoki ma’naviy zarar yetkazadi. Huquqbuzarlik jamiyatga havflilik darajasi va harakteriga qarab ikki turga bo’linadi ; jinsi yva nojuya ish Jinsiy huquqbuzishlik jamiyat uchun havfli bo’lgan kishilarning

aybli ijtimoiy qilmisht (harakat va harakatsihligi) bo'lib, O'zRJK normaari bilan tartibga solinib, tegishli jazo choralari qo'llaniladi. Nojuya ish huquqbuzarlikning ko'p tarqalgan turi bo'lib, ular bir-birlaridan jamiyat uchun qancha havfliligi, xatti-harakatining harakteri, oqibatlari va qo'llaniladigan jazo choralari bilan fark qiladi. Nojuya ish huquqbuzarlik ijtimoiy munosabatlarning turiga va ularning tartibga solish predmetiga qarab fuqarolik –huquqiy, protsessual-huquqiy va boshqa huquq sohalariga bo'linadi.

Fuqarolik huquqiy bo'yshishlik O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksida mustahkamlangan huquqiy normalarning buzish bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlaridir. Masalan; tug'ilgan shartnoma talablarini va turli majburiyatlarni bajarmaslik mulk huquqi, ashyoviy huquqlarni buzib zarar yetkazish va boshqa mulkiy, u bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni buzishdan kelib chiqadi. Fuqarolik huquqiy normalar buzilganda u tiklanadi, yetkazilgan zarar undiriladi. Ma'muriy huquqbuzarlik bu O'zbekiston Respublikasining MJTKdagi davlatni boshqarish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarn buzish bilan bog'liq bo'lgan xatti – harakatlaridir. Mehnat huquqbuzarlik bu O'zbekiston Respublikasining MKsida belgilangan huquqiy normalarni buzishdir. Jumladan, bozor iqtisodiy munosabatlariga o'tish davrida mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar, muassasalar, tashqilotlar, fuqarolar tomonidan mehnat shartnomasi kontrakt bajarmaslik boshqa korxona bilan hodim o'rtasidagi mehnt munsabatlarini buzishdir.

Huquqbuzarlik belgilari quyidagiarldan iborat.

1.Huquqbuzarlik bu, jamiyat, davlat va shaxslar uchun havflidir. Chunki ularning manfaatlariga moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi. Barcha huquqbuzarli davlat tomonidan belgilangan amaldagi qonun va huquqiy normalarni buzadi, buning uchun ularga tegishli jazo choralari belgilangan. Ba'zi hollarda nojo'ya ishga jinoiy ishga nisbatan qattiqroq jazo choralari qo'llaniladi.. Masalan; jinoiy ish sodir qilganligi uchun, jinoiy jazo chorasi sifatida jarima, jamoat izzasi qo'llainilsa, ma'muriy huquq buzishlik uchun bir oygacha kamok jazosi qo'llaniladi.

2. Huquqbuzarlik bu harakatdagi qonun va huquqiy normalarga qarshi qaratilgan bo'lishi kerak. Huquqbuzarlik jamiyat uchun havfli bo'lib, kishilarning harakat yoki harakaisizligi sababli sodir qilinib huquqbuzarlikka kasddan odam uldirish, harakatsizlik

sababli huquqbuzarlikka bemorning chaqirig’i bo’yicha vrachning o’z vaqtida yetib kelmasligi, natijasida bemorning vafot etishi.

3. Huquqbuzarlikning faqat inson sodir qiladi. Huquqbuzar shaxs aqli raso o’z harakat va harakatsizligini tushunadigan, unga javob beradigan, huquqiy va muomila qobiliyatiga ega bo’lishi kerak.

Huquqbuzarlik bu kishilarning huquqka qarshi qaratilgan harakat va harakatsizligi bo’lib, buning natijasida ayb sodir qilib, ular huquq sohalarining tegishliligiga qarab tegishli jazo choralari belgilab javob berishi kerak.

Huquqbuzarlik natijasida kishilarning ayblari bo’lishi kerak. Agar shaxs huquqni buzgan bo’lsa, bunda uning aybi bo’lmasa, uni javobgarlikka tortib bo’lmaydi. Masalan; yuqorida keltirilgan misolda huquqbuzarlikka bemorning chaqirig’i bo’yicha vrachning kasalligi sababli kelmasligi natijasida bemorning vafot etishi. Bu holda vrachning aybi yo’q.

Jamiyatda huquqbuzarlik shaxsning harakat va harakatsizligi tufayli sodir qilinib, unda yuridik jihatidan quyidagi turt guruhga bo’linishi kerak; Huquqbuzarlikning obьyekti, subьyekti, obьyektiv tomoni va subьyektiv tomoni. Har bir huquqbuzar shaxsni javobgarlikka tortish uchun shu turtta tarqib bo’lishi kerak. Agar shulardan bittasi bo’lmasa huquqbuzarni javobgarlikka tortib bo’lmaydi.

Huquqbuzarlikning oby’ekti bu kishilar tomonidan huquq normalari bilan tartibga solinadigan va qo’riqlanadigan turli ijtimoiy munosabatlarning buzilishidir. Bu ijtimoiy munosabatlar O’zbekistonning ijtimoiy yoki davlat to’zimini, davlat hujalik to’zimi, turli mulk shakllari, mehnat qilish, siyosiy, tabiatni muhofaza qilish, shaxs va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdir. Huquq bilan qo’rhlanadigan bu ijtimoiy munosabatlar shaxslar tomonidan buzilib, moddiy va ma’naviy zarar yetkaziladi.

Xuquqbuzarlikning ob’yektiv tomoni bu shaxsning harakat va harakatsizligi natijasida huquqning buzilishidir. Kishilarning harakat va harakatsizligi huquqka qarashli bo’lib, uning jamiyat uchun ijtimoiy munosabatlar buzilib jamiyatga moddiy va madaniy zarar yetkazadi. Huquqbuzar shaxsning qilmishi bilan sodir bo’lgan oqibat o’rtasida sababli boglanish bo’lib, buning natijasida ayb sodir qilinishi va huquqbuzar

tegishli huquq sohalari bo'yicha o'z qilmishi uchun jazo choralarini oladi. Ob'ektiv tomonning elementlari bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi:

Huquqqa qarshi qilmish;

Huquqqa qarshi zararning oqibati;

Huquqqa qarshi qilmish bilan zararli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'liqlik;

joyi, vaqti, usili va muxit;

Huquqbuzarlikning sub'ekti bo'lib xuquqbuzarlikni sodir qilgan yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi. Sub'ektlarning xususiyatlari xuquqbuzarlikning turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, jinoiy va ma'muriy xuquqning sub'ektlari bo'lib faqat shaxslar xisoblanadi.

Huquqbuzarlikning sub'ektiv tomoni bu shaxsning (jismoniy va yuridik) xuquqqa karishi qaratilgan xarakat yoki xarakatsizlikka va ulardan kelib chiqadigan xafvli qilmishga nisbatan psixik ongli ko'rinishdagi munosabatidir. xuquqbuzarlik sub'ektiv tomonining zaruriy belgisi aybdir. Ayb - xuquqbuzarning xuquqqa xilof xati - xarakatiga va ularning ijtimoiy xafvli oqibatiga nisbatan yoki extiyotsizlik shaklidagi munosabatadir.

Qasd - shaxsning xuquqqa xilof xatti-xarakatini sodir qilayotgan paytida, bu xarakatning xuquqqa xiloflilgini, unung oqibatini anglash yoki tushunishidir(to'g'ri qasd) yoki bu xatti -xarakatining ma'lum oqibatni keltirib chiqarishiga ongli ravishda yo'l qo'yishidir(egri qasd).

Extiyotsizlik - shaxsning xati - xarakatlari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarning oldini olishni nazarda tutib, beparvolik bilan uz-uziga ishonib xarakat qilishidir.

Xuquqbuzarlik xarakteri va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab ikki turga bo'linadi: jinoyat va nojuya ish. Jinoyat - bu ijtimoiy xavfli xatti - xarakat yoki xarakatsizlikdir. U davlatning ijtimoiy tuzumiga, uning siyosiy va iqtisodiy tizimiga, mulkka, fuqarolarning xuquq va erkinliklariga va xokozolarga xavfli taxlid solib tiruvchi qilmishdir.Nojuya ish xuquqbuzarlikning ko'p tarqalgan ko'rinishi bo'lib, ijtimoiy xavfning yukligi bilan xarakterlanadi va jazo choralarining qo'llanishiga qarab

jinoyatdan farq qiladi. Nojuya ishning qo'yidagi turlarigi mavjud : fuqarolik - xuquqiy, ma'muriy - xuquqiy va intizomiy - xuquqiy.

**2. Huquqbuzarlik sabablari.**

Uzoq asrldan buyon insoniyatning buyuk mutaffaqirlari jamiyatda huquqbuzarlikning sababini o'rganish va uni tugatish bilan shug'ullanib keldi. Bu muommo bilan kadimgi Grek faylasufi Aflotun, Arastudan boshlab to hozirga kadar barcha shark va garb donishmandlari shugullanib keldi. Bu haqda ayniqsa jinoiy huquqbuzarlikni oldini olish to'g'risida donishmand shunday deb ko'rsatadi; «Aqlli qonunchi jinoyat uchun jazolashga majbur bo'lgandan ko'ra jinoyatning oldini olishi uchun barcha chorani ko'radi.»

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida huquqbuzarlikni tugatish, va qarshi ko'rsatiish eng muhim muammodir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha «Bozor iqtisodiga o'tish obьyektiv zarurat sifatida davr takozasi bo'lib qoldi. Bozor iqtisodiyoti umumbashariy hodisa bo'lib, jahon tsivilizatsiyasi rivojlanish yo'lidagi mukarrar bosqichdir».

Hozirgi vaktda bizda birinchidan turli huquqbuzarliklar ayniqsa jinoyat sodir qiluvchilar ko'paymokda. Agar sud ko'rgan ishlarning 3 dan 2 qismi fuqarolik mehnat va 3 dan 1 qismi jinoiy ishlar bo'lsa, hozir esa sud ko'rayotgan huquqbuzarlik ishlarining ko'pchiligini jinoiy ishlar bo'lsa, hozir esa sud ko'rayotgan huquqbuzarlik ishlarining ko'pchiligni jinoiy ishlar tashqil qiladi. Bu hol huquqbuzarlikda nojuya ishlardan, jinoiy ishlarni ko'payayotganligini ko'rsatadi. Ikkinchidan huquqbuzarlikni sodir qiluvchilardan voyaga yetmagan yoshlar ko'paymokda. Bo'lar ko'pincha kvartiralarda ugrilik, talonchilik, boskinchilik va jamoat joylarida turli huquqbuzarliklarni sodir qilmokda. Uchinchidan, avval bizda ma'lum bo'lmagan huquqbuzarlikning yangi turlari paydo bo'ladi. Masalan; fuqarolik huquqida bozorga o'tish munosabati bilan bog'liq bo'lgan kimmatbaho kogozlarni sotish shartnomasini, buzish davlat mulki ob'yektlarini sotish shartnomasini buzish. Moliya huquqida fuqarolar tushgan daromaddan solik tulamaslik. Jinoyat huquqida-reket, odamlarni pul to'lash sharti bilan o'girlash va boshqalar. To'rtinchidan, jinoyat sodir qilish

professional, tashqiliy va halqaro boshqa davlat fuqarolari bilan birgalikda qiliinmoqda. Masalan; mafiya, o'girlik, banditizm va boshqa jamiyat uchun havfli bo'lgan jamyatlar.

O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarlikning sabablari quyidagilardan iborat;

**Aholi moddiy hayotining (iqtisodining) pastligi.** O'zbekiston bozor ijtimoiy siyosatiga o'tish davrida ozik-ovkat va sanoat tovarlariga narhni usib borishi.

**Fuqarolarning huquqiy madaniyatini pastligi**. Fuqarolar huquqiy ongli va madaniyatli bo'lib, amaldagi barcha huquqiy normalarni bilish va qonunlarga amal qilish kerak. Huquqiy tarbiya bu huquqbuzarlikni asosiy sababidir. Shuning uchun aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish uchun hali ko'p ish qilishimiz kerak. Shu maqsadda Prezidentimiz I.A.Karimov 1997 yil 25 iyunda «Huquqiy tarbiya yahshilik, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimining takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yahshilash haqida» mahsus farmon qabul qildi. Bu esa aholi o'rtasida huquqiy bilam va huquqiy ongni oshirish, huquqbuzarlikni kamaytirish va O'zbekistonda milliy davatchilikni rivojlantirish uchun katta hizmat qiladi. Bundan tashkari aholining huquqiy tarbiyasiga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining sessiyasida «Jamiyatda huquqiy madanyatni yuksaltirish Milliy dasturi» qabul qilindi. Aholining huquqiy madaniyatini va huquqiy savodhonligini oshirish muhim vazifadir. Bu sohada mamlakatimiz bo'yicha viloyat, shahar, tuman hokimliklari, sud, proku'ratura, ichki ishlar, notarial organlar, «Ma'naviyat va ma'rifat»» jamoatchilik markazi hodimlari bilan hamkorlikda ko'pgina ishlar olib borilmoqda.

**Ahloqni inqirozga uchrashi.** Uzoq yillar jamiyatda hukmron bo'lgan totalitar sovet davlatini ahloqi o'rnida mamlakatimizda yangi ahloq paydo bo'lmoqda. Bu yangi ahloq umumbashariyati va shark ahloq normalarini o'z ichiga oladi. Bu ahloq O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiy siyosatiga o'tish davridagi iqtisodiy, siyosiy, davlat, huquq, goyaviy hayot va boshqa ijtimoiy o'zgarishlar bilan o'zviy bo'lhdir.

**Alkogolizm va narkomaniya**. Bu jamiyatuchun juda havfli bo'lib, aholi o'rtasida keng tarqalgan bo'lib ayniqsa yoshlar buni isteьmol qilib turli huquqbuzarliklar sodir qilmokda.

**Qonunchilikni takomillashtirmaslik.** Qonunchilikni asosiy vazifasi kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, jamiyatga, adabiyotga va fuqarolar manfaatiga zarar yetkazmaslikdir. O’zbekistonda bozor iqtisodiy siyosatiga o’tish davrida barcha huquqbuzarliklarni sababini o’rganib, ularni turmush bilan bog’lab, huquqbuzar shaxslarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirib, qonunchilikni takomillashtirib borishi kerak. Shu ma’noda Prezident I.A.Karimov «Mustaqillik bu huquq inson izzatini joyiga qo’yishdir» deb ko’rsatgan edi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yahshi ishlamasligi, O’zbekistonda huquqbuzarlikka qarshi ko’rashish uchun barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabor shaxslar va fuqarolar birgalikda ishlashi kerak. Bu sohada joylarda viloyat, tuman, shaharlardagi hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari huquqbuzarlikka qarshi ko’rashish uchun muhim rol o’ynaydi. Bo’lardan tashqari O’zbekistonda huquqbuzarlikka qarshi ko’rashish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar sud, proko’ratura, ichki ishlar, milliy havfsizlik va adliya organlari yahshi ishlashi kerak.

### 3.Yuridik javobgarlik va uning belgilari.

**1.Yuridik javobgarlik huquqni buzgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan qo’llaniladigan majburiy choradir. Yuridik javobgarlik huquqni** buzuvchi kishilarga qaratilgan bo’lib, sub’yektlarnig harakat va harakatsizligi orqali sodir qilinib jamiyat, davlat va fuqarolarning manfaatlariga moddiy va mahnaviy yetkazadi. Huquqbuzuvchi shaxs o’z harakat va harakatsizligini tushunib, aqli raso bo’lib, unga javob berishi kerak. Yuridik javobgarlikning belgilari quyidagiarldan iborat;

1.Yuridik javobgarlik davlatning majburlash kuchi bilan bog’liqdir. Bu majburlash kuchi yuridik javobgarlikni mazmunini tashqil qiladi. Yuridik javobgarlikni bu belgisi turli huquq sohalarida turli shaklda ko’rinadi. Masalan; jinoyat huquqida jazo belgilash bilan, mahmuriy huquqda jarima to’lash bilan belgilanadi. Huquqning umumiy nazariyasida bu hol huquqbuzarlarga nisbatan davlat tomonidan jazo chorasi javobgarlik belgilanadi, deb yuritiladi.

2. Huquqbuzarlik shaxsning ongli harakati va harakatsizligi natijasida sodir etilib, uning irodasini talab qiladi. Huquqbuzarning aybi dalillar bilan isbotlanib, huquqiy normalar buzilganda fuqaro aybdor bo'lishi kerak.

Huquqbuzar shaxsga qo'llaniladigan chora javobgar davlatning majburlash kuchi bilan bog'liq bo'lib,bu bir qancha hususiyatlarga egadir.

Birinchidan, davlatning majburlash kuchi bilan huquq buzuvchi subyektlariga javobgarlik belgilash, davlat hokimiyati bilan bog'liqdir.

Ikkinchidan, davlatning majburlash kuchi huquqbuzar aybdorlari javobgarlikka ьortish uchun har bir huquq sohasi bo'yicha alohida jazo choralaridan iborat.

Uchinchidan, bu javobgarlik retrospektiv harakterga ega bo'lib, ya'ni huquqiy normani buzganlik uchun belgilanadi.

To'rtinchidan, yuridik javobgarlik huquqbuzar shaxsning ma'lum salbiy oqibat keltirishi bilan bo'gliqdir. Bu salbiy oqibat shaxs tomonidan tegishli huquqiy normani buzish va unga nisbatan qo'llanadigan huquqiy sanksiya bilan bog'liqdir. Masalan; Jinoiyat huquqi normalarini buzganlarga, jarima solish choralari qo'llaniladi. Shaxslar qayta tarbiyalanadi.

**4. Yuridik javobgarlik turlari.**

Shaxsni javobgarlikka tortish masalasini echishda uning qilmishida xuquqbuzarlikning tarqibini mavjudligiga axamiyat berish xal qiluvch rol uynaydi, ya'ni xuquqqa karishi qilmishning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni xamda ob'ektiv va sub'ektiv birgalikda boglangan xolda o'rganish masalaning mazmunini ochib berishga, uni konkretlashtirish va individuallashtirishga yordam beradi. Xuquq buzilishining turlariga muvofiq yuridik javobgarlik xam to'rt turga bo'linadi:

Jinoiy xuquqiy

Fuqarolik xuquqiy

Ma'muriy xuquqiy

Intizomiy xuquqiy javobgarlik.

Jinoiy xuquqiy javobgarlik fuqarolar tomonidan ijtimoi va davlat tuzimiga, mulk shakllari, xujalik tizimi, shaxslar, fuqarolarning xuquq va qonun bilan ko'riklanadigan manfaatlarga va xokozolarga karishi tajovuz qilinganda kelib chiqadi. Jinoyat Kodeksida

kuzda to’tilgan talablarni buzish jinoyat xisoblanadi va shu jinoiy xarakat yoki xarakatsizlikka nisbatan jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Fuqarolik - xuquqiy javobgarlik fuqarolarning, shaxslarning mulkiy munosabatlari va bu munosabatlar bilan bog’liq mulkiy xarakterda bo’lmagan shaxsiy munosabatlarga zarar etkazganlik xolatlarida belgilanadi. Fuqarolik - xuquqiy javobgarlik Fuqarolik kodeksi, Er kodeksi, Oila kodeksi, Mexnat kodeksi va boshqalarda nazarda to’tilgan xolatlarda qo’llaniladi.

Ma'muriy - xuquqiy javobgarlik xuquqiy munosabatlarning buzilishi bilan bog’liq bo’lib, ularga – o’rnatilgan umumtartib qoidalarni bajarmaslik, masalan, yo’l xarakati qoidalarini va jamoat tartibini buzish, tabiatni muxofaza etishga qarshi xarakatlar va boshqalar kiradi.

Ma'muriy - xuquqiy javobgarlik bo’yicha quyidagi jazo choralarini ko’rsatish mumkin : ogoxlantirish; jarima solish; predmetni musodara qilish (xuquqni buzish quroli yoki ob'ekti bo’lsa); maxsus xuquqlardan maxrum etish (ov qilish, transport vositalaridan foydalanish va x.); ma'muriy xamoq; axloq tuzatish ishlari va boshqalar.

Intizomiy - xuquqiy javobgarlikning belgilanish xolatlari Mexnat kodeksida, ichki mexnat tartibi qoidalarida xamda maxsus Nizomlarda nazarda to’tiladi. Intizomiy xuquq menat va xizmat intizomlarini, xarbiy va boshqa intizomlarini buzish bilan bog’liq bo’lib, ularga idoraning ichki tartib - qoidalarini buzish, ishga kech kelish yoki ishdan barvaqt ketish va x.kabi xollar kiradi.

Jinoiy va fuqarolik - xuquqiy javobgarlikni belgilash faqat sud va xujalik sudlari tomonidan amala oshiriladi.

Ma'muriy va intizomiy - xuquqiy javobgarlik ichki ishlar organlari, mansabdor shaxslar va tegishli vakolatga ega raxbar shaxslar (ma'muriyat) tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik javobgarlikni belgilashning asosiy maqsadi jazolash emas, balki xuquqning umum maqsadlarini muayyan ifodasiga qaratilgan bo’lib, ular ijtimoiy munosabatlarning mustaxkamlanishi, tartibga solinishi va himoyasida o’zining ifodasini topadi.Bu maqsadlar o’z navbatida xuquqning tartibga soluvchi (regulyativ) va qo’riqlovchi funktsiyalarini amalda bo’lishini belgilaydi. Yuridik javobgarlikning asosiy

funktsiyasi qonuniylik va xuquq tartibotni muxofaza qilishdan iborat. Muayyan (konkret) xuquqbuzarga nisbatan javobgarlikning qo’llanishi birmuncha tor maqsadni, ya'ni aybdorni jazolashni ko’zlaydi.Bu bilan davlat o’zining majburlov choralarini amalga oshira turib, yana boshqa bir maqsadni ko’zda tutadi - bu maqsad kelajakda xuquqbuzarlikni sodir etishni oldini olishga yoki bu xakda ogoxlantirishga qaratilgan bo’ladi.

Bu maqsadlar o’z navbatida yuridik javobgarlikning funktsiyalarini belgilab beradi. Ko’zlangan maqsadlarga erishi uchun qo’yidagi tamoyillarga amal qilinadi : qonuniylik; adolatparvarlik; maqsadga muvofiqlilik; xuquq buzilngan xolda javobgarlikning muqarrarligi; individuallik (javobgarlikni faqat xuquqbuzarga nisbatan qulanillishi).

**Qonuniylik.** Bu tamoyilning moxiyati xuquq qoidaolari talablarini katiy va aniq tatbikidan iborat  bo’lib, yuridik javobgarlikga nisbatan bu talab, uni faqat vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan asoslarda xamda urnatilgan tartibda amalga oshirilishidir.

**Adolatparvarlik.** Bu tamoyil aybdor bo’lmagan shaxslarni javobgarlikka tortilish xollariga yo’l kuymaslikni yoki sodir etilgan qilmishning isbotlanishi zarurligini talab etadi. Yuridik javobgarlikning adolatparvarlik tamoyili quyidagi rasmiy talablar tizimida uz ifodasini topadi.

-nojo’ya  qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas;

Javobgarlik ni belgilovchi va uni ogillashtiruvchi qonun orqaga kaytish kuchiga ega emas;

xuquqni buzilishi natijasida keltirilgan zararni koplash zarurati mavjut bo’lsa, yuridik javobgarlikni qo’llash orqali uning urni turdiriladi;

Xar bir buzilgan xuquq uchun faqat bitta javobgarlik belgilanadi;

xuquqbuzarlik kim tomonidan sodir etilgan bo’lsa, faqat shu shaxs javobgarlikka tortiladi;

Jazo turlari va choralari xuquqbuzarlikning darajasiga (ogir yoki egilligi ) bog’liq bo’ladi.

xuquq buzilgan takdirda javobgarlikning mukarrarligi. Yuridik javobgarlik xuquqbuzarlik bilan uzluksiz bog'liq va bu bog'liqlikdan ushbu tamoyilning moxiyati kelib chiqadi. Ya'ni sodir etilgan xar kanday xuquqbuzarlik uchun javobgarlikning qo'llanishi xamda uning mukarrarligi belgilanadi. Kishilarning ongida yuqoridagi bog'liqlikni, ya'ni xar kanday xuquqbuzarlikning jazosiz kolmasligi to'g'risidagi dunyoqarashni shakllantirish - xuquqbuzarlikning darajasini kamaytirishga qaratilgan muxim omildir.

**Maqsadga muvofiqliq.** Sodir etgan qilmishga nisbatan javobgarlikning muqarrarligi bu tamoyilning ma'nosini anglatadi, chunki belgilanadigan javobgarlik maqsadga muvofiqdir. Yoki xuquqbuzarni qonuniy asoslarsiz javobgarlikdan ozod qilishga yo'l qo'yilmaslik xam maqsadga muvofiqlilikdir va x.. maqsadga muvofiqlik talablari javobgarlikni tadbik etishda qonuniylik talablariga zid kelmasligi kerak va aksincha, maqsadga muvofiq emaslik nuqtai nazaridan qonun talablarini buzish mumkin emas.

**Individuallik.** Bu tamoyilga binoan sodir etilgan xuquqbuzarlik uchun faqat aybdor shaxsning uziga nisbatan javobgarlik qo'llaniladi. Javobgarlikni aybdor sub'ektdan boshqa sub'ektga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Masalan, ko'p xollarda raxbar xodimlarning ma'sulyatsizligi tufayli yo'l qo'yilgan xuquqbuzarliklar uchun javobgarlik korxona yoki tashqilotlarning zimmasiga yuklatilishiga xarakat qilinadi. Bu tamoyilni xayotga to'g'ri tadbik etish uchun xar bir xodimning funktsional vazifalari va uning bu vazifalarini bajarmaslik oqibatida kelib chiqadigan javobgarlik choralari doirasi qonunchilik va boshqa normativ xujjatlarda uz aksini (ifodasini) topishi zarur.

Yuridik javobgarlik xuquq normalari qoidalariga binoan xuquqni qo'llash organning qaroriga asoslanib yuzaga keladi va uning faqtik asosi xuquqbuzarlik xisoblanadi.

Shu bilan birga xuquqbuzarlik, o'z – o'zidan javobgarlikni keltirib chiqarmaydi yoki davlat majburlov choralarini qo'llashni yuzaga keltirmaydi, balki bunday qo'llash uchun asos bo'ladi xolos. Real yuridik javobgarlikni amalga oshirish uchun esa

vakolatli organnng xuquqni qo’llash akti zarur bo’ladi. Bunday aktlar sudning qarori. Ma'muriyat buyrugi bo’lishi mumkin.

Aybsizilk prezumtsiyasi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda to’tilgan tartibda iisbotlangunga va qonunda kuchga kirgan sud xukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblandi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uzining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Aybdorlikka oid barcha shubxalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo’lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo’llanilayotganda kelib chiqadigan shubxalar gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga xal qilinishi kerak. Fuqaroning aybsizilk prezumtsiyasi - shaxsning xuquq va erkinliklarini mustaxkam kafolatidir. Uzbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi aybsizilk prezumtsiyasi uzining ifodasini topgan bo’lib, unda jumladan, shunday deyiladi : " Jinoyat sodir etigan likda ayblanayotgan xar bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko’rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o’zini ximoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi…"

Bu masala Uzbekiston Respublikasi jinoyat - protsessual kodeksining 23 - moddasida o’zining yorqin ifodasini topgan.

Yuridik javobgarlik va qilmishning xuquqga xilofligini istisno qiluvchi xolatlar mavjud bo’lib, ularga qo’yidagilar kiradi :

Aklinorosolik (shaxs uzining xarakterlariga xisobot bermaydigan xollarda);

Zaruriy mudofaa (shaxs, jamiyat, davlat manfaatlar ximoyasidan kelib chiqib, zarar etkazuviga nisbatan zaruriy mudofaa doirasida qarshilik ko’rsatish yoki zarar etkazish);

Oxirgi zaruriyat (shaxs, jamiyat, davlat manfaatlari xavf tugdiradigan, bu xavfni oldini oltshga qaratilgan choralar doirasidagi xarakatlar);

Ijtimoiy xavflilik darajasi bo’lmagan xuquqbuzarliklar sodir etilganda;

Kazus va x.

## HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MEHANIZMI.

**Darsning maqsadi** Talabalarni jamiyatda kishilar o’rtasidagi ijtimoiy mynosabatlarni tartibga solish mehanizmi ysyllari bilan tanishtirish. Talabalarga xyqyq normalarini bajarish wa jamiyatda hyqyqqa amal qilish ayni waqtda byrch, ma’syliyat ekanligini teran ayglatish.

**Dars ro’rgazmasi:** O’zbekiston Respyblikasi Mehnat kodeksi, Fyqarolik kodeksi, Solh kodeksi.

**Asosiy so’z wa tayanch tyshynchalar:** Mehanizm, awtanomiya ysyli, awtoritar usul, tartibga solish elementlari.

**Reja:**

**Huquqiy tartibga solish mehanizmi tushunchasi.**

**Huquqiy tartibga solish mehanizmi va uning asosiy elementi.**

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O’zbekistonda demorratlashtirish, inson huquqlari wa boshqaruv tizimini takomillshtirish. T. 1999 y 195-bet
2. Каримов И.А. Кучли давлатдан кучли жамият сари Т., O’збекистон 1999 .
3. Каримов И.А. O’zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo’li. T. 2007
4. Saidov A. Tojinonov U. Huquq nazariyasi. T. Adolat. 2001 y. 189-bet.
5. Islomov Z. Davlat wa huquq nazariyasi T. “Adolat” 1998 y
6. Tojinonov U. Ichki ishlar idoralari faoliyatida huquqiy madaniyat wa qonynga itoatkorlik. T 1995 y.
7. Alimov H. Ma’myriy huquq. T. IIW 1995 y.

8. Зокиров Х. Одил судлов хуқуқий маданиятини юксалтиришнинг назарий муаммолари. Т., 1998
9. Одилқориев Х.Т.,Тультеев И.Т. Икки палатали парламент.Т.О’збекистон Республикаси
10.Каримова О., Гаффоров Г. Давлат ва хуқуқ асослари. Т., Укитувчи 1995

**Huquqiy tartibga solish mehanizmi tushunchasi.**

Xar bir insonning kundalik qayotida tez-tez uchraydigan savollar tuqiladi, ya'ni ishdagi ro’y beradigan xar xil situatsiya (sharoitlar)da unga qanday to’qri yondoshish, yoki jamoat joylarida, uyda va qokazo hollarda. Umuman qisqacha aytganda, davlat jamiyat va boshqa kishilarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda o’zingni qanday tutish yoki xarakatlaringni qanday kechirish zarur, degan savol tuqiladi.

Bu savollarga javobni aksariyat ko’pchilik hollarda kishilarning bir necha avlodlari tajribalaridan kelib chiqib, jamiyatda o’z shaklini topgan (yoki shakllangan) ijtimoiy (sotsial) normalardan izlash mumkin.

Lekin shuni ta'kidlash kerakki, sotsial (ijtimoiy) normalar tizimi normativ tartibga solish tizimining faqat ma'lum qismi sifatida yuzaga chiqadi. Sababi jamiyatda ikki xil normalar (xuquqiy qoidalar) xarakat qiladi, bo’larga:

a) sotsial (ijtimoiy) texnik;

b) ijtimoiy (sotsial) shaxsiy normalar kiradi.

Jumladan, normalar inson qulqining ijtimoiy munosabatlar doirasi tabiat, texnika bilan munosabatlarini tartibga solishda qo’llaniladi.

Normativ tartibga solishning tizimi - bu ijtimoy (sotsial) vormalarning majmui (yigindisi) bo’lib, jamiyatda kishilarnkng qulqi, ularning birligi, jamoatchilik ko’rinishidagi o’zaro munosabatlarini tartibga solish turadi va ularning tabiat bilan munosabatlarini shakllashtiradi (tartibga soladi).

Umuman normativ tartibga solish tizimi jamiyatda mavjud bo’lgan barcha munosabatlarni tartibini ta'minlaydi.

Sotsial-texnsh normalar insoniing meqnat kurollarri, mashinalar

bilan qanday muomalada bo'lishini, tabiatning ta'sir etuvchi kuchlariga (ta'siriga) qanday javob kerakligini ko'rsatadi.

Sotsial-shaxsiy normalar iqtisodiy tuzumning rivojlakish darajasi bilan bogliq bo'lib, insonlarning jamiyatdagi qulqini tartibga soladi.

Jamiyatda huquq kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va g'oyaviy ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun muhim ro'l o'ynaydi. Bu esa davlatning ichki va tashqi vazifalarini amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Huquq bilan kishilar o'rtasida turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mehanizmi orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibga solish mehanizmi murakkab jarayon bo'lib, huquqiy ustkurma qismlaridan-huquq normalari, huquqiy munosabatlar, subъyektiv huquq va burchlardan iborat bo'lib, «mehanizm» iborasi bilan ifodalanadi. «Mehanizm» so'zi bir nesa qismlardan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan o'zviy bog'liq holda harakat qiladi.

xuquqni tartibga solish mexanizmi - bu qukuq sub'ektlari manfaatlarini qoniqtirish yo'lida to'rgan (to'siq bo'layotgan) xarama-xarshiliklarni yo'qotish maqsadida katma-ketlik tarzida tashqil etilgan yuridik choralar tizimidir.

xuquqni tartibga solish mexanizmining maqsadi - sub'ektlarning o'z manfaatlariga erishishdagi xarakatini to'siqlardan tozalash yoki ta'minlashdir.

qukuqni tartibga solish mexanizmi - ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beruvchi, tabiatiga va funktsiyalariga ko'ra turli xil bo'lgan yuridik choralar tizimidir.

xuquqni tartibga solish mexanizmida xarakatda bo'lgan turlicha yuridik choralarga bo'lgan talab, sub'ekt manfaatlarining ma'lum maqsadga erishishdaga xar xil xarakatlari bilan yoki yo'lda to'rgan (to'siq bo'layotgan) xarama-xarshiliklarning mavjudligi bilan aniqlanadi.

qukuqni tartibga solish mexanizmi xuquq normativining (normativnosti prava) ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishdagi o'tish jarayonining funktsional tomonini ifoda etadi. Bu jarayon - uzoq davom etadigan bo'lib, u bir necha bosqichlarga (stadiya) bo'linadi, va natijada bu bosqichning xar biriga bir qancha aloqida yuridik choralar qo'llanilib, qammasi birgalikda xuquqni tartibga solish mexanizmini tashqil etadi.

xuquqni tartibga solish o'z ichiga quyidagi bosqich (stadiya) larni qamrab oladi:

1) xuquq normasini ipshab chiqish va umumiy ta'sirining belgilanishi

(ijtimoiy munosabatlarni reglamentlash);

2) sub'ektiv xuquq va sub'ektiv yuridik majburiyatlarni paydo bo'lishi;

3) sub'ektiv xuquq va sub'ektiv yurvdik majburjtlarni tadbiq etish, ya'ni ularni ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining qulqiga konkret va faktik singdirish jiqatdan;

4) xuquqni qo'llash.

Sotsial-ijtimoiy normalarning ob'ektiv xarakteri quyidagi holatlar bilan aniqlanadi:

a) ijtimoiy (sotsial) normalar sotsial tizimning o'z-o'zini tartibga solishdagi ob'ektiv talablardan kelib chiqadi (barxarorlik va tartibni ko'lab-kuvvatlash uchun);

b) ijtimoiy normalar ipshab chixarishning sub'ektiv shartli ko'rinishi kishilarning faoliyati jarayonida vujudga keladi;

v) normalar, xarakteri ishlab chixarish usuli va taqsimlash bilan aniqlanadigan munosabatlar almashuvidan ajralmagan holda bo'ladi.

Amalda bo'lishi va ta'minlanishiga qarab, sotsial normalar qukidagicha tasniflanadi:

- qukuq normalari;
- axloq normalari;
- odatlar;
- korporativ (jamoat tashqilotlari normalari) normalar.

Tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning mazmuniy doirasiga qarab sotsial normalarni quyidagacha tasniflanadi:

- siyosiy;
- tashqiliy;
- etik;
- estetik normalar.

Jumladan, sotsial normalarning tasniflashning boshqa kriteriyalari qam bo'lib, ularga quyidagalar kiradi:

- tashqil topish usuliga qarab (ongli tartibda yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladi (stixiyali);
- ifodalash yoki mustaqkamlilik usuliga qarab (yozma, oqzaki, shakl).

Jamiyatda huquqiy normalar bilan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy ta'sir etish va huquqiy tartibga solish tushunchalari mavjud. Ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir etish huquqiy tartibga solishdan keng bo'lib, u huquqiy normalardan tashkari jamiyatdagi urf-odat, ahlok va turmush qoidalari bilan tartibga solinadigan iqtisodiy, siyosiy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy tartibga solish esa bu faqat kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar orqali tartibga solinadi.

Huquqiy tartibga solish mehanizmi bu jamiyatda kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar, sub'yektiv huquqiy va burch bilan amalga oshirilishidir.

Jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mehanizmi mahsus usullar bilan amalga oshiriladi. Bu usullar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish predmetiga bo'lhdir. Bo'lar avtoritar va avtonomiya uchullaridir. Avtoritar usulda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar bilan tartibga solishda huquqiy munosabatlarda davlat buyruq berishi, ya'ni qat'iy holda amalga oshiriladi. Masalan; ma'muriy huquqiy va jinoiy huquqiy munosabatlar. Bu huquqiy munosabatlarda subьyektlaridan bir tomoni davlat nomidan tegishli davlat organlari katnashadi.

Avtonomiya usuli – kishilap o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar bilan tartibga solinganda huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflar teng huquqli bo'lib katnashadi. Masalan; fuqarolik huquqi buyicha oldi-sotdi va karz shartnomalari buyicha huquqiy munosabatlar

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiy munosabatlariga utar ekan uning yangi Konstitutsiyasi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy mehanizmini tartibga solish uchun asosiy baza bo'lib hizmat qiladi. Buning uchun O'zbekistonda barcha qonunlarni, huquqiy normalarni yaratish, huquq sohalarini yangilash muhimdir. Masalan; O'zbektson Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, soliq kodeksi va boshqalar.

O'zbekton o'z milliy davlatchiligi va huquq tiziimini bozor munosabatlariga moslab rivojlantirishga ega. Bu esa quyidagi ma'naviy huquqiy, davlatchilak tajribalariga asoslanadi; umuminsoniy davlat, huquqiy tajribalarga asoslanish;

halkimzning huquqiy-ma’naviy merosini tiklash; inson huquqlari va erknliklariga amal q’ilish; Konstitutsiya va qonun ustivorligiga amal q’ilish; milliy huquqiy va dunyoqarashni shakllantirish va boshqalar.

## 2.Huquqiy tartibga solish mehanizmi va uning elementlari.

Huquqiy tartibga solish mehanizmi jamiyatda kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy normalar bilan tarotibga soladi. Shuning uchun huquqiy tartibga solish mehanizmi davlatni huquq ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda, huquqni qo’llaishda va ularni takomillashtirishda muhim rol uynaydi.

Huquqiy tartibga solish mehanizmi to’rtta bosqichga bo’linadi. Birinchidan, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normaning yaratilishi. Ikkinchidan, amaldagi huquqiy norma asosida taraflarning huquq va burchchlarini paydo bo’lishi va huquqiy normaga amal qilshlik. Uchinchidan, huquqiy normada belgilangan holatlarda taraflarga huquq va majburiyatlar paydo bo’lganda subyektiv huquq va burchlarining amalga oshirilishi. Turtinchidan, huquqni qo’llaish.

Huquqni tartibga solishning yuqoridagi bosqichlariga tegishli holda, uning mexanizmini 4 ta asosiy elementi ajratiladi:

1) xuquq normasi;

2) xuquqiy munosabatlar;

3) xuquq va majburiyatlarni tadbiq etish;

4) xuquqni qo’llash aktlari.

**Huquq normasi** - xuquqii tartibga solishdaga boshlanqich yuridik baza sifatida yuzaga chiqadi, chunki uning dispozitsiyasida shakllangan va zarur bo’lgan qulqning modeli o’z ifodasini topadi. Huquqiy normalar halk irodasi, davlatning zo’rlik kuchi bayon etiladi, bu norma orqali urnatilgan huquqiy tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilariga yetkaziladi. Huquqiy normada, huquqiy munosabatda katnashuvchi subьyektlarni huquq va burchlari, vakolat doiralari va ularning amalga oshirilish usullari ko’rsatiladi.

Huquqiy normalarda hayotda kishilar amal qiladigan turmush qoidalari belgilanadi. Shu turmush qoidalari kishilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun asos bo’lib hizmat qiladi. Masalan; fuqarolar mehnat q’ilish huquqiga

egadir. Bu umumiy konstitutsion normadir. O'zbekiston Resaublikasi Mehat kodeksining 25-moddosidabu normaning bajarilishi ta'minlanib, holimni ishga qabul q'ilish korhona, tashqilot, muassasa rahbarlari tomonidan buyruq bilan rasmiylashtirish ko'rsatilgan. Hodimni ishga qabul q'ilish buyruq chiqqandan keyin amalga oshadi.

**Huquqiy munosabatlar** - qukuq normalarini kim tomonidan qanday bajarilishini aniqdashga yordam beruvchi bosh vosita bo'lib qisoblanadi. Huquqiy normalari hayotga huquqiy munosabatldar va uning tarkibiy qismlari subьyekti , obьyekti, huquq va burch orqali amalga oshiriladi. Huquqiy normalarning ijtimoiy munosabatlarini tartibga soluvchi. Majbur etuvchi, vakoat beruvchi va man etuvchi turlariga mos ravishda tartibga soluvchi va qo'rhlovchi huquqiy munosabatlar turldari paydo bo'ladi. Tartibga soluvchi huquqiy munosabat majbur etuvchi, vakolat beruvchi va man etuvchi munosabatlarga bo'linadi.

**Huquq va majburiyatlarni tadbiq etish** - bu sub'ektlarning faktik xulqi. Bu erda xuquqni tartibga solish: mexanizmi o'z xarkatini tugatadi, sababi sub'ektlarning faktik va real qulqi (povedenie) ta'minlanadi, sababi qonun chixaruvchining amri nimaga xaratitilgan bo'lsa, u o'z natijasiga erishadi. Bu huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning amaliy harakatlari bo'lib, unda sub'yektlarning huquq va burchlari bajarish talab qilanadi.

**Huquqni qo'llash aktlari** - qukuqiy munosabatlarning paydo bo'lishini ta'minlovchi vakolatli (kompetent) organlarning hokimiyatlilik *** bo'lib, ular qNlari talablarini qayotga tadbiq etadilar, xuquq va majburiyatlarni amalga oshishini kafolatlaydi va Bu vakolatli davlat organlarining aktidir. Bo'lar huquq norma talablarining huquqiy munosabat orqali hayotga qo'llaib tegishli ishlarni hal qiladi. Bo'lar davlatning majburlash kuchi bilan ta'minlanadi. Huquqni hayotda qo'llaib tegishli davlat organlari ishlarni hal qilgandan keyin tegishli huquqiy aktlar qaror, farmoishlar, buyruq, hukm va boshqalar chiqaradi. Bu huquqiy aktlarda huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflarning huquq va burchlari aniq ko'rsatiladi. Yuqoridagilardan hulosa qilib shuni aytish umkinkit, huquqiy tartibga solish mehanizimining hususiyatlari quyidagiarldan iborat. Birinchidan; huquqiy tartibga solish

mehanizmi faqat huquqiy normalar bilan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Ikkinchidan huquqiy tartibga solish mehanizmi kishilarni ongi orqali utib, ularni erkin ifodalaydi. Uchinchidan, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, davlatning huquqini qo'rhlovchi funksiyasini amalga oshiradi. Turtinchidan huquqiy tartibga solish mehanizmi jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solmasdan, bo'larning kuchiligi ahlok, urf-odat turmush qoidalari bilan fuqarolar o'rtasida eng muhim iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy ijtimioy munosabatlarni tartibga soladi.

Huquqni tartibga solish mexanizmining qaysi elementlari oldin yoki keyin qo'llanilishi to'qrisida aytiladigan bo'lsa, uning quyidagi ikki xili to'qrisida to'xtaladi:

a) oddiy tartibga solish - shunday jarayonki, bunda davlatning bitta hokimiyatlilik akti, ayni normativ akti qo'llanib, akt qaratilgan qukuk, va majburiyatlarning ivdividualligini sub'ektlarning o'zlari ta'minlaydilar;

b) murakkab tartibga solish - shunday jarayonki, davlat hokimiyatlilik xarakteriga ega bo'lgan ikkita akt qo'llanib ulardan bittasi normativ akt, ikkinchisi esa qukuq normalarini qo'llash akti bo'ladi.

Huquqiy ta'sir qilish mexanizmi yoki xuquqiy tartibga solish mexnizmida yuridik normalar bosh rolni o'ynaydi, chunki xuquqiy normalar qukuqiy tartibga solishning asosini shakllantiradi (tashqil etadi).

Savol tuqiladi, qaysi vaqtdan boshlab xuquqii tartibga solish yoki qukuqni tartibga solish mexanizmining xarakatga kelish sababi nimadaq degan.

Bu to'qrida xar xil fikr (javob)lar bo'lib, jumladan, P.E.Nedbaylo qisoblaydiki, yuridik normaning tartibga solish roli uning xarakatga kelish (kirish) vaqtidan boshlanadi, desa; V.Sheyndlin aytishicha, bu holat yuridik normaning bosilib chiqishi (izdanie) dan boshlanadi..

Aniqroq qilib aytganda, xukuqni tartibga solish yuridik normaning bosilib chiqish yoki kuchga kirish paytidan boshlanmasdan, balkim qukuqiy normalarida belgalangan tartibda yuridik faktlarning paydo bo'lishi vaqtidan boshlanadi.

Huquqni tartibga solish mexanizmida dinamika nuqtai nazaridan, asosiy oqirlik (nagruzka) ni konkret xuquqiy munosabatlar o'z bo'ynga oladi.

Bu erda xuquqiy munosabatlar deganda, yuridik xuquq va majburiyatlarning mavjudligi bilan xarakterlanadigan, davlatning majburlov (yoki kafolatlovchi) kuchlari bilan qo’llab-quvvatlanadigan, xuquq normalariga asosan vujudga keladigan, shaxslar o’rtasidagi individuallashgan ijtimoiy aloqalar tushuniladi.

Huquqni tartibga solish mexanizmi xuquqiy munosabatlar orqali xarakatga keladi, va uning vositaligida qukuq normalarini tadbiq etish ro’y beradi. Shaxslar o’rtasidaga (xuquqiy munosabat ishtirokchilari) aloqalar ma'lum individuallashgan xarakterga zga bo’lib, u yoki bu sub'ektlar xuquqiy munosabati ishtiroxchilari bo’lgan zaqotiyoq, ularning davlat bilan aloqasi xuquq va majburiyatlar orqali konkretlashadi.

Taraflar (ishtirokchilar) ning yuridik holati (aqvoli) yoki o’zaro aloqalari (oddiy aloqa bo’lib holmaydi, sababi birg tarafga qukuq yuklatilsa, ikkinchi tomonga xar xil majburiyat yuklatiladi) xuquq munosabatlarida xar xil (turlicha) aniqlanadi.
Lekin uning asosiy moqiyati qukuq va majburiyatlarning birligidadir.

Hukuqni tartibga solish mexanzmida xuquqnm tadbiq etish aktlari, qoq bevosita, qoq bilvosita shaklida bo’lishidan qat'iy iazar asosiy o’rinni egallaydi. Ular oxir maqsadda o’z oldiga xuquqiy ta'sir etish vazifasini oladi.
qukuqiy ta'sir etish aktlarining bevosita shakliga quyidagi shakllar kiradi:

- amal qilish;
- bajarish;
- foydalanish.

Amal qilish deganda odatda maqsulotlarni passiv xulq shaklida tadbiq etish tushuniladi.

Xuquq normasini bajarish deganda – bu majburiyatlarni shunday bajarish (tadbiq etish) shakllariki, xuquq xarakatlarida ko’zda to’tilgan majburiyatlarni sub'ektlar tomonidan faol ko’rinish (shakl) da bajarilishini talab qiladi.

Foydalanish – bu xuquqni tadbiq etishning shunday shakli bo’lib, unda sub'ektiv xuquqda mujassamlashgan imkoniyatlarning qayotga tadbiq etilishi sodir bo’ladi.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, sub'ektiv xuquq foydalanish shaklida tadbiq etilsa, yuridik majburiyatlar esa – amal qilish va bajarish shaklida tadbiq etiladi.

## Mavzu: QONUNIYLIK VA HUQUQIY TARTIBOT.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda qonyniylik wa hyqyqiy tartibot, qonynchilik tamoyillari, wazifasi, kafolatlari to’g’risida bilim wa tyshynchalar berish. Talabalarda konstitutsiya wa qonyn larga nisbatan e’thodini shaklantirish.

**Dars ko’rgazmasi: Q**onyniylik wa hyqyqiy tartibot, qonynchilik tamoyillari, wazifasi, kafolatlari chizmasi.

**Asosiy so’z va tayanch tushunchalar:**Qonunuylik,maqsadga muvofhlik, Iqtisodiy kafolat, ijtimoiy kafolat, huquqiy kafolat, ma’naviy kafolat.

**Reja:**

**1. Qonuniylik va huquqiy tartibot tushunchasi**

**2. Qonuniylik va huquqiy tartibot kafolatlari, ularning ta’minlash usullari.**

**3. Qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli.**

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: O’zbekiston, 1994. 47-bet

2.Karimov I.A. O’zbekiston: bozor mynosabftlariga o’tishning o’ziga hos yoli.T. O’zbekiston 1993, 63-bet

2.Karimov I.A. Bunyodkorlik yo’lidan T. O’zbekiston, 1996. 179-bet

3.Karimow I.A. O’zbekiston- bozor iqtisodiyotiga o’tishning o’ziga hos yoli. T. 1994, 47-bet

3.A. Temyr Temyr tuzyklari. T. Fan 1992, 9-bet

4. Tojihonov Y. Huquqiy mafko’ra va qonunga itoatkorlik. T. 1995 .

5. Boboyew H.B,Odilqoriyev H. T.Davlat ua huquq nazariyasi. T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 2000 y

6. Konstitsiya ua qonunlar ustunligi- O’zbekiston taraqqiyotining kafolati. (1999 yil 17 noyabr ilmiy amaliy konferentsiya materiallari) T., “Adolat” 2000 y.

7. Saidov A. Tojinonov U. Huquq nazariyasi. T. Adolat. 2001 y. 374-392 betlar.

8. Saidov A. Tojinonov U. Huquqiy madaniyat nazariyasi. T.IIB. “Akademiya”, 1998,57-100 betlar

## 1.Qonuniylik va huquqiy tartibot tushunchasi.

Qonuniylik  Qonuniylik bu O’zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, huquqiy hujjatlarning aniq va ogishmay bajarilishidir.

Qonuniylikning asosiy vazifasi-O’zbekistonning ijtimoiy va davlat tuzimini mustahkamlash, bozor iqtisodini siyosatiga utish uchun mulkni turli shakllarini qo’riqlash, fukoralarning huquq va burchlarini mustahkamlashdir.

1. Jamiyatda qonuniylik ikki hil ma’noda-aholining davlat tamonidan bajarilishi talab qilinadigan qonun-qoidalar tushuniladi. Bo’larga davlat tamonidan chiqarilgan konstitnsion va boshqa amaldagi qonunlar, barcha normatuv huquqiy hujjatlar kiradi. Tor manoda aytganda, qonuniylik davlat organlarining ish faoliyatida qonunlarga va boshqa normatuv huquqiy hujjatlarga amal q’ilishi kerak. Chunki O’zbekiston Respublikasida barcha davlat organlari, mansabdor shahslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstututsiya va qonunlarga asosan ish ko’radilar. Mamlakatda fuqarolik jamiyatini xamda xuquqiy davlatni shakllantirish uz navbatida jamiyatning sifatli yangi pogona (axvol) ga erishishini. Jumladan, xuquq tizimi qonuniylik va xuquqiy tartibotning xam boshqa yangi bosqichiga erishmokligini talab etadi.
2. qonuniylik va xuquqiy tartibot xuquqdan va uni tadbik etishdan ajralmagan bo’lib, xuquqni  tartibga solish solish mexanizimida ularning alokasini o’rganish nazariy izlanishlarning dikkat markazida edi.

Bugungi kunda qonuniylik tushunchasi masalasida olimlar o’rtasida ancha baxs va tortishuvlar mavjud (P. A. Fefelov, N.V. Kro`lenko, N. G. Aliksandrov, P. E. Nedbay, L. M. Ribinovich).

Bu to’g’risidagi jami fikrlarni umumlashtirib qonuniylikni quyidagcha talqin etish mumkin:

Qonuniylik – bu qonunlar va qonun osti aktlari barcha sub'ektlar tomonidan amal qilinishidir (A. V. Molkko, 109 s.).

Yoki qonuniylik – xuquq normalarini barchalar (sub'ekti) tomonidan birgalikda aniq va suzsiz tadik etilishiga qaratilgan jamiyat xamda davlatning talabidir (S. A. Kamarov, 271 s).

Qonuniylikni asosiy yurituvchisi bo'lib kishilarning (V. V. Lazerev, 220 s.) faoliyati (xulqi) xisoblanadi.

Bu erda kishilarning faoliyati qonuniylikning xususiyatlari normativ yoki xuquqni kullash xujjatlarini to'g'ri qabul qilishda va kullashda namoyon bo'lishini belgilab beradi.

Chunki, bu xujjatlar (va munosabatlar)ning qonuniyligi yoki noqonuniyligi katta axamiyatga ega. Jumladan, ba'zi normativ aktlarning aniq qonuniyligi (Konstitutsiyaga xilof qonun va normativ aktla r) SSSRda 30-50 yillarda asosiz ravishdagi repressiyaga sababchi bo'lgan.

Qonuniylikning moxiyati (mazmuni) kup jixatdan uning tarkibidagi sub'ektlarga bog'liqdir. Ya'ni, ba'zi olimlarning fikricha, sub'ektlar tarkibioga ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining barchasi kirishsa(davlat, uning organlari, jamoiat tashqilotlari, shaxslar, fuqarolar va boshqalar.)ba'zi olimlar bu sub'ektlar doirasidagi fuqarolarni chiqarib tashla ydilar yoki ba'zi xollarda jamoat tashqilotlarini bu tarkibiga kirishtirmaydi.

Shunday qilib, qonuniylikning sub'ektlar doirasini kiskartirish, uning umumiylik va umummajburilik goyaasini buzadi, qonun oldidagi barchaning tengligi printsipi buziladi, amalda qonuniylik rejimini pasayishi (susayishigsha) olib keladi (masalan Stalinning shaxsiga siginish davrida zurovonlik va qonunsizlikka olib kelgan bo'lsa, turgunlik yillarida korruptsiyaning rivojlanishiga sabab bo'ldi).

qonuniylik uchun 2 tomonning bo'linishi (A. V. Molkko, 109 s.).zarur:

- adolatli, ilmiy asoslangan, qonunlarning bo'lishi (moxiyat jixatidan);
- ularni bajarilishi, aksincha eng etuk qonunlar borligi xam kamlik qiladi (rasmiy tomoni)

Huquqiy ijtimoiy munosabatlarning regulyatori sifatida uz funktsiyalarini ijtimoiy amliyotda xuquq normalariga amal qilish, bajarish, foydalanish va ularni kullash

jarayonlari orqali bajaradi, shuning uchun xam qonuniylik toki xuquqlarning xuquqiy rejimi bo’lib xisoblanadi.

Qonuniylik printsiplariga quyidagilar kiradi :

1. Qonuniylikning birligi (normativ aktlarni tushunish va kullash mamlakatning butun teritoriyasida (xdudi) bir xila bo’lishi zarur);

2. konstitutsiya va qonunning ustunligi (Konstitutsiya va qonunlarga boshqa barcha individual xuquqiy aktlarning buysunishi; kanday va kanaka organ tomonidan chiqarilishidan kat'iy nazar, agar u akt qonunga xilof bo’lsa, qonuniylikning buzilishi xisoblanadi);

3. fuqarolarning xuquq va erkinliklarini kafolati: bir tomondan, qonuniyliksiz fuqarolarning xuquq va erkinliklari tadbik etilishi mumkin emas, qonuniylik ularning kafolai bo’lib xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, xuquq va erkinliklarning uzi va ularning mavjudligi yoki amalga oshishi qonuniylikning axvolini va jamiyatda demokratiyaning ko’rsatkichi bo’lib xisoblanadi;

4. qonuniylikning madaniyat bilan bog’liqligi (jamiyat va mansabdor shaxslarning madaniyat darajasiga qonuniylikning axvoli bog’liqdir va aksincha qonunchilikga amal qilish jamiyat madaniyat darajasi ko’rsatkichining asosiy shartlaridan biri bo’lib xisoblanadi).

5. qonuniylikning maksadga muvofikligi bilan bog’liqligi (maksadga muvofikligi bilan qonuniylikning karama - qarshiligiga yo’l kuymaslik: maksadga muvofikligini vaj qilib qonun cheklab utmaslik, u qonun ramkasida bo’lishi zarur).

Qonuniylik va xuquqiy tartibotni ta'minlash asosiy kuroli sifatida yuridik ilmda kafolat va qonunchilikni ta'minlash usullari tushuniladi.

Kafolat - bu qonun va qonun osti aktlarini amal qilishini ta'minlovchi, fuqarolar xuquqlarini xamda davlat va jamiyating manfaatlarini tusiklarsiz amalga oshiruvchi kurol (usul, yo’l) yoki shartlardir (sharoitlar).

Yoki kafolat deganda jamiyatning yashashi (mavjud bo’lishi) uchun zarur ob'ektiv shart - sharoitlarni, yoki barcha sub'ektlar uchun bajarilishi shart bo’lgan xuquq normalarining davlat va jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan maxsus usullar (kurollar) dir.

Karolatning quyidagi turlari ajratiladi :

**Sotsial** - iqtisodiy (bu jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilikning turli shakllari, iqtisodiy erkinlik va b.);

**Siyosiy** (Konstitutsion tuzumning demokratlash darajasi, jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy plyuralizm (fikrlarni xilma - xilligi) kuppartiyaviylik, xokimiyatning bo'linishi va b.);

**Tashqiliy** (qonun va qonun osti aktlariga amal qilinishini nazorat qiluvchi maxsus organlar (sud, militsiya, proko'ratura va b.)ning faoliyati);

**Ijtimoiy** (qonun buzarlikni oldini olishga qaratilgan jamoatchilik tomonidan kullaniladigan kompleks profilaktik chora-tadbirlar);

**G'oyaviy** (bu xuquqiy ong rivojlanishining darajasi, fukoralar o'rtasida yuridik bilimlarni yoyish xuquq talablariga xurmat, jamiyatda ma'naviy tarbiyaning darajasi);

**Maxsus-yuridik** (xarakatdagi qonunchilikda ogoxlantirish, tugirlash,xuquq talablarining buzilishiga chek quyish maksadida urnatilgan usul yoki ta'sirqiluvchi omil (kurollar).

Maxsus yuridik usul (kurol) larga avvalam bor qonuniylik talabi ifodalangan barcha xuquq normalarini kiritish zarurdir.

qonuniylikning yuridik talablari quyidagilardan iborat :

* XN sini bajarmaslikni adolatli jazolash;
* Qonun ustunligini qonuniy mustaxkamlash, uni kuriklash choralarini aniqlash;
* qonuniylikni kuriklashni ma'lum organlarga
* Fuqarolarning uz xuquqlarini talab qilish (foydalanish) ni qonuniy mustaxkamlash, uz xuquqlaridan boshqa shaxslaning xuquqlariga zarar keltirish maksadida foydalanishni takiklash, aybsizlik prezumtsiyasi goyalarini konstitutsiyaviy mustaxkamlash;

xuquqiy tartibot ijtimoiy tartibotning tarkibiy qismidir

Umum qabul qilinishicha, tartib - zarur ijtimoiy munosabatlarni mustaxkamlash (singdirish) shakli bo'lib, bu barkaror shakl sifatida butun jamiyatning manfaatlariga javob beruvchi shakl sifatida kullab - kuvvatlanadi.

Ular turlicha sotsial normalar - axloq, urf - odat, jamoat tashqilotlari, xuquq va boshqalar bilan tartibga solingan.

Ijtimoiy tartibot - bu jamiyat a'zolari o’rtasida mujassamlashgan barkaror ijtimoiy munosabatlar tizimi bo’lib, sotsial adolat goyalarini ifodalovchi, normativ tartibga solish tizimining butun ta'siri natijasida turmush tarzi sifatida tasdiklangan munosabatlardir.

xuquqiy tartibot ijtimoiy tartibotning bir qismi bo’lib xisoblanadi, fakat u barcha sotsial normalarning regulyativ xarakati natijasida mujassamlashmasdan, balki fakatgina xuquq normalari orqali mujassamlanadi.

Shunday ekan, xuquqiy tartibot - bu xuquq normalari tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimining bir qismidir.

Uning xarakat doirasida xuquq normalari orqali tartibga solinadigan barcha ijtimoiy munosabatlar yotada.

Huquqiy tartibot uziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat :

Huxuquq normalarida rejalashtirilgan;

Ushbu normalarni tadbik etish natijasida yuzaga keladi;

Davlat tomonidan ta'minlanadi;

Ijtimoiy munosabatlarni tashqiliylashtirilishi uchun sharoit yaratadi, insonni ancha erkin, (mustaqil) qilib, xayot sharoitini engillashtiradi;

Qonuniylikning natijasi sifatida yuzaga chiqadi;

Qonuniylik huquqiy tartibot bilan o’zviy bog’liq bolib, u orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo’lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo’lib, kishilar o’rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy munosabatlar orqali tartibga soladi. Kishilar o’rtasidagi yoki fukoralar bilan davlat organlari o’rtasidaga munosabatlar huquqiy tartibot bilan ya’ni, huquqiy nurmalar orqali amalga oshirilib, qonuniylik mustahkamlanadi. Qonuniylikning o’ziga hos hususiyatlari uning quyidagi prinsiplarida ifodalanadi.

Qonunning ustunligi va hamma uchun majburiyligi. Bunday O’zbekiston Respublikasini barcha qonunlari va barcha normalari mukaddas bo’lib, ularga barcha

kishilar amal q'ilish kerak. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasining Konstututsiyasini 15-moddasida mustahkamlangan. «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstututsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat uning organlari, mansabdor shahslar, jamiyat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiyasi va qonunlarga muvofik ish ko'radilar».

Respublika Prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonni yangi jamiyat kurish uchun, bozor iqtisodiga utish uchun hamma kishining qonunga amal q'ilishligini muhim pirinsip deb hisoblab, «Men uchun eng muhim –qonuniylikni hurmat q'ilishdir», deb ko'rsatadi.

Qonuniylikni yagonalik prinsipi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining huquqiy qonunlar bir hil qo'llainishini, hamma fuqarolar qonun oldida tenglikni bildiradi. Bu hakda O'zbekiston Respublikasi Konstututsiyasining 18-moddasida shunday deilgan. «O'zbekiston Respublikasida barcha fukoralar bir hil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irki, millti, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shahsi va ijtimoiy movkedan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir».

**Qonuniylik va maqsadga muvofhlik prinsipi.** O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni aniq bajarish har bir davlat organi, jamoat birlashmalari, mansabdor shahs va fuqarolar uchun shartdir. Ammo hayotda shunday kishilar va rahbarlar borki, ular o'zlarining qonunga hilob hatti-harakatlarini, guyo qonunning eskirib qolganligi bilan va bugungi kun talablariga javob bera olmasligi bilan yohud bu qonunda mahalli shoroit hisobga olinmagan degan bahonalar bilan bajarmaydi. Basharti amaldagi qonunlar eskiribqolganbo'lsa, u belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organi Oliy Majlis tamonidan o'zgartiriladi.

Qonuniylik aholining madaniy darajasi bilan, davlat organlari va jamoat birlashmalari, mansabdor shahslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik yuqori bo'lsa qonun bo'zilish hollari shunchalik kamrok bo'ladi.

Kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlanirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirar Mahkamasi 1992 yil 14 martda «Yuridik ta'limotni

kayta kurishning kechiqtirib bo'lmaydigan chora tadbirlari to'g'risida», mahsus qaror qabul qildi. Qarorga barcha ukuv yurtlarida yuridik ta'limotini takomillashtirish, hozщirgi kun talablariga javob beradigan ukuv dasturlari ishlab chiqish va amalda qo'llaish, qo'llainmalar va darsliklarni yaratish masalalari va huquqiy ma'lumotlarni keng ommaga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekistonda halk qonuniylikni ta'minlashda va huquqiy tartibotni mustahkamlashda keng ishtirok etadi. Bu hakda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7- moddasida shunday deyilgan; «Halk davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati halk manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikai Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat beorgan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

Qonuniylik demoyeratiya bilan bog'liq tamoyili. Qonuniylik demokratiya bilan o'zviy bogikdir. Halk davlat hokimiyatini o'zi ishonch bildirib, saylagan deputatlari, davlat Prezidenti, hokimiyat va boshqaruv organlari orqali boshqaradi. Qonuniylikni demokratik tartiblarga buysunishini talab qiladi, dkmokratik ьtartiblar o'z navbatida qonuniylikni mustahkamlash va rivojlanishida asosiy shartdir. Bu tamoil Konstitutsiyaning 13-moddasida belgilab qo'yilgan; «O'zbekiston Respublikasida

demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, kadr-kimmati va boshqa dahlsiz huquqlari Oliy kadriyat hisoblanadi.

Demoyeratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi».

**2. Qonuniylik va huquqiy tartibot kafolatlari va ularning ta'minlash usullari.**

Jamiyatda qonunlar bilan kishilar O'zbekiston Respublikasida turli ijtimoiy munosabatlar tartibga solinib qonunlar hayotda to'g'ri qo'llaish uchun qonuniylikni tegishli usullar orqali amalga oshiriladi. Bunday usullar davlat tomonidan belgilangan bo'lib, qonuniylikni kafolati deb ataladi.

Qonuniylikni amalga oshirish kafolati quyidagiarldan iborat;

Iqtisodiy kafolat. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasiga asosan jamiyatning iqtisodiy negizini bozor iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilga turli hil shakllardagi mulk tashqil qiladi. Davlat istemolchilarining huquq

ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat,  tadbirorlik  va mehnat q’ilish erkinligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat q’ilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng  huquqligini muhofaza qiladi.

O’zbekistonda hususiy mulk va boshqa mulk shakllarining hilma-hilligi, halkning moddiy va ma’naviy  farovonligini oshirishga hizmat qiladi. Bu esa fuqarolarning mehnat q’ilish huquqi, karigan chogida kasal bo’lmaganida, vaktincha mehnat kobiliyatini yo’qotganida va boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqi uchun moddiy negiz yaratadi.

Siyosiy kafolat.  Bu O’zbekiston Respublikasining demokratik huquqiy davlat kurishidan, huquqiy davlat esa umuminsoniy va milliy kadriyatlarga amal q’ilishlik, uning siyosiy tizimidan, shuningdek, davlat va jamiyat birlashmalarini

boshqarishda keng halk ommasining ishtirok etishini ta’minlaydi.

Mafko’raviy kafolat. O’zbekiston  Respublikasida  ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafko’ralar va fikrlarni hilma-hilligi asosida rivojlanadi. Hech kasi mafko’ra davlat mafko’rasi sifatida urnatilishi mumkin emas. Bu hol siyosiy mafko’ra ishidan holi bo’lib, barcha fuqarolrni qonunlarni hurmat q’ilish va qonunlarga ogishmay himoya etish ruhida tarbiyalaydi.

Huquqiy kafolat. Qonuniylikni amalga oshirish uchun barcha huquqiy normalarni bajarish, ular bo’zilgan holatlarini aniqlab olish usullari, , qonun bo’zilishini oldini  olish, qonunni bo’zgan kishilarga nisbatdan turli jazo choralari; intizomiy, ma’muriy, fuqarolik va jinoiy choralar kurishdan iborat.

Jamoatchilik kafolatlari. Qonuniylik  va huquqiy tartibotni mustahkamlash faqat davlat organlarining ishi bo’lmasdan, bu barcha jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, hotin-kizlar, fahriylar va yoshlar tashqilotlari, ijtimoiy uyushmalar, omaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalrining vazifasidir.

Bu  kafolatlar  O’zbekistonda barcha halkning qonunlar va boshqa  normativ huquqiy hujjatlariga amal qilib, qonuniylikka rioya q’ilishni va ularni huquqiy jihatidan tarbiyalab, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantiradi.

O’zbekiston Rnspublikasida qonuniylik va huquqiy tartibotni bo’zgan kishilarga nisbatan mahsus usullar qo’llainiadi. Bu ishontirish va majbur q’ilish usullaridir.

Ishontirish usuli keng halk ommasiga qonunlarni va huquqiy normalarni tushuntirish orqali, bo’larning ular ongining yetkazish yo’li bilan va boshqa tarbiyaviy choralar kurish yo’li bilan amalga oshiriladi. Majbur q’ilish usulida qonunlar va boshqa huquqiy normalar bo’zilgan holdadavlat organlari tomonidan uning kuchi bilan majburiy choralar kurish yo’li bilan majbur etish orqali amalga oshiriladi.

**3. Qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli va o’rni.**

O’zbekiston demoyeratik huquqiy davlat kurish uchun qonuniylik va huquqiy tartibotni amalga oshirish va mustahkamlash uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar; sud, proko’ratura, ichki ishlar, adliya va boshqalar muhim roлъ uynaydi.

O’zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy Hujalik sudi, Karoqolpogiston Respublikasining Oliy sudi, uning Hujalik sudidan shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va hujalik sudlaridan iyuorat.

O’zbektston Rnspublikasining Konstitutsiyaviy Sudi.

O’zbekison Respublikasida Konstitutsiyaviy nazoratning sud organi bo’lib barcha qonunlarni, Prezident farmonlarini, hukumat va davlat hokimiyati mahalliy idoralari qarorlarini va boshqa normativ huquqiy aktlarni O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasina mosligini anhlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. Fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov ishlarini qonuniy ko’rish uchun sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Oliy sud Qorakalpog’iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, shahar va tuman sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

O’zbekiston Respublikasida. Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korhonalar, muassasalar, tashqilotlar va tadbirkorlar o’rtasidagi, iqtisodiy sohada va uni boshqarish sohasida vujudga keladigan hujalik nizolarini Oliy hujalik sudi va sudlar ko’radi. Sudlar mustaqil bo’lib, faqat qonunga buysunadilar, Ularning odil sudlovni amalga oshirishda hech kimning aralashishiga yo’l qo’yilaydi va bunlay aralashish uchun muvofik javobgarlikka tortiladi.

Proko’ratura organlari O’zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori, Qoraqolpog’iston Respublikasi prokurori, viloyat, shahar va tuman prokurorlari kiradi. Ularning asosiy vaziyaasi mamlakatning barcha hududida qonunlarning anh va bir hilda bajarilishi ustidan oliy darajada nazoratni amalga oshiradi. O’zbekiston Rnspublikasi Konstitutsiyasining 120- moddasiga binoa, proko’ratura organlari o’z vaklatlarini har qanday davlat organlari, jamoaat birlashmalari va mansabdor shahslardan mustaqil holda, faqat qonunga buysunib amalga oshiradi.

Adliya organlari- bu O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, hokimlar boshchilik qiladigan halk deputatlari viloyat Kengashlari koshidagi adliya bo’limlari bo’lib, ular qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash, davlat tadbirkorlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatalarini himoya qiladi.

Militsiya organalari. O’zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan halk deputatlari Kengashlari ho’zo’ridagi boshqarmalar va bo’limlar kiradi.

Mamlakatda jamoat tartibini saqlash, mulkni turli shakllarini qo’riqlash, korhonalar, muassasalar, birlashmalar, mansabdor shahslar va fuqarolaprning huquq va burchlarini qonun bo’zilishlaridan himoya q’ilish militsiyaning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

**Davlat va huquq tarixi fanining predmeti va axamiyati.**

**Darsning maqsadi:** Davlat va huquq tarixi fanining predmeti, vazifasi, axamiyatini va uslublarini tushuntirish.

**Darsning vazifasi:** Davlat va huquqning rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va aloxida mamlakatlardagi xususiyatlarini ochishdan iborat.

**Darsning uslubi:** Klaster, ven diagrammasi.

**R E J A:**

1.Fanning vazifasi, predmet va axamiyati.

2.Davlat va huquq tarixi fanini o'organish uslublari.

3.Davlat va huquq tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo'lib o'organish

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». «Mulokot» 1998 yil 5-son. 2,5,9,10,25-betlar.

2. Mukimov Z. Chet mamlakatlar davlati va huquq tarixi (Kadimgi va o'rta asrlar davlati va huquqi tarixi) ukuv qo'llanma. Samarkand. 1992 y

3. Mukimov Z. Chet mamlakatlar davlati va huquq tarixi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2003 yil. 6-16 betlar.

4. Muxammedov X. «Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqlari tarixi» 1- qism. «Adolat» 1994 yil.

5.Grafskiy V.G.Vseobshaya istoriya prava i gosudarstva uchebnik dlya vo'zov.Izd. norma. M.,2002.,744-bet

1.Fanning vazifasi, predmeti va axamiyati.

Tarixni o’organish ijtimoiy xayotni har taraflama bo’lishning zaruriy shartidir. Chunki tarix o’tmishning yg’inlgan (kontsentratsyalashgan) tajribalarini saqlovchi, uni avlodlarga asrab etkazib keluvchidir xozirgi zamonning har bir yirik masalasi ijtimoiy xayotning qaysi soxasida bo’lmasin jumladan, davlat va huquqiy qurilish soxasida xam mavjud bo’lgan tarixiy tajribalarni xisobga olmasdan, undan unumli foydalanmasdan, chukur o’rganmasdan samarali xal etilishi mumkin emas. Talabaning huquqiy dunyoqarashini shakllanishida tarixiy fanlar yo’qsak axamiyatiga ega. Chunki, utmish vokea– xodisalarni bilmasdan turib, xozirgi vokelikni to’g’ri tushinish, kelajakni ko’ra bilish mumkin emas. Tarix fan sifatida jamiyat taraqqiyotining obektiv qonunlari xakidagi bilimlar tizimini o’zida mujassamlashtiradi, ularni tushinish jamiyatni kelajakdagi rivojlanishini ko’ra bilishga imkon yaratadi. Shuning uchun xam jamiyat tarixi fanining tarkibiy qismi sifatida mamlakatimiz oliy ukuv yurtlarida fan tarmoklari buyicha turli tarixiy fanlar o’rganiladi masalan: iqtisod oliy ukuv yurtlarida iqtisod tarixi, madaniyat oliy ukuv yutlarida–madaniyat tarixi, me'morchilik oliy ukuv yurtlarida –me'morchilik tarixi kurslari o’tiladi. Mamlakatimiz oliy huquqshunoslik o’quv yurtlarida, oliy milttsiya maktablarida xam davlat –huquqiy harakterdagi tarixiy – huquqiy fanlar o’tiladi. Davlat va huquq jamiyatiga oid xodisalar bo’lganligi uchun xam ularning tarixi jamiyat tarixidan ajralgan mustaqil tarix emas, balki jamiyat tarixining ajralmas tarkibiy qismidir. Jamiyat tarixi va unga mos holda davlat va huquq tarixi o’zliksiz rivojlanish jarayonidan iboratdir va huquqiy tarixi tarixiy huquqi harakteridagi ijtimoiy fandir. Uning mazui tushunchasini aniqlashda davlat, jamiyatning o’z xokimiyatini butun mamlakat doirasida barchaga yoyadigan, majburiy xoxish-iroda, erkka asoslangan normalar yaratadigan maxsus boshqaruv va majburlov apparati xamda suvverentitiga ega bo’lgan yagona tashqilot ekanligi huquqni esa boshqa ishtimoiy normalarda (odob axloq udumlaridan) farq qiladigan davlat tomonidan sanktsiyalangan, qonun sifatida mustaxkamlangan, sud karori va davlat xokimiyatining boshqa aktlari tarzidagi umum majburiy xulq atvor koydalardan iborat ekanligi xakidagi nazariy xilosadan keltirib chiqarishimiz lozim.

Maskur fan va ukuv kursining predmeti (o'organish mavzui), to'g'risida olimlar tomonidan berilgan ko'pgina ta'riflar bor. Bizning fikrimischa prof. P.N.Galanza tomonidan 1963 yilda berilgan tarifda maskur fanning mavzusi birinchi bor aniqlashtirilgandir mamlakatlar davlati va huquqi tarixi fanning mavzusi mamlakatimizning xozirgi chegarasidan tashkarisidagi har bir mamlakatda yashayotgan xalqlarda ma'lum konkiret tarixiy sharoiyda davlat va huquqni vujudka kelishi va rivojlanishi jarayonning aloxida – aloxida tarixan ketma-ketlikda o'organishdan iboratdir.

Undan keyin berilgan ta'riflar maskur fan mavzusining u yoki bu kirralariga ustunlik berib uni tuldirib boradi. Shunday qilib davlat va huquq tarixi fani (xamda ukuv kursi) jaxonning aloxida olingan mamlakatlarida, konkiret tarixiy sharoitda davlat va xukuning paydo bo'lishi rivojlanish jarayonini Ushbu protsesslarining umumtarixiy qonuniyyatlarini xamda konkiret jamiyatning rivojlanishida muxum bosqich bo'lgan usha tarixiy davr doirasida harakatda bo'lgan qonuniyatlarini ochish asosida ularni xronologik ketma-ketlikda o'rganadi .

Bu fan turli tipdagi davlatlarni vujudga kelishi va ularning sabablari rivojlanish davrlari ularning inkirozi konkiret davlatning huquq tizimi uning moxiyati o'ziga xos xususiyatlarini ularga mansub bo'lgan shakllarni o'zoklab o'rganadi. Davlatning ichki va tashki faoliyatini amalga oshirilishdagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi huquq tarixining birinchi navbatdagi vazifasi huquqni o'organishni barcha metotlaridan foydalangan holda aloxida olingan yuridik faktlarni ustun darajada huquqda bo'lgan o'zgarishlarni tushuntirib berish maksadida shuningdek bu faktlarni tarixiy o'zaro aloqadorliklarini xukuni dinamik tadkik etish maksadida vokiya rivojlanishi sababiy boglanishini ochib berish bo'lsa uning ikkichi vazifasi utmush huquqni statik tarzda tadkik etishdir.

Biz pozitiv huquqdan amaldagi oladigan ma'lumotlarimizni unga nisbatan dogmatik –normativ uslubni kullab, xukuni statik tarzda tadkik etishdir. Talaba bu fanni o'organishida Osiyo va Afrika, Garbiy Evropa xamda Amerika davlatlari va xukuni asosiy manbalari bilan yakindan tanishadi. Bu fanning, shuningdek ukuv kursining vazifasi eng avvalo tarixga nisbatan to'g'ri dunyoqarashni shaqillantirishdan iboratdir.

Uni o’organish talabalarning davlat va huquq masalaridan yanada kengrok ravishda umumiy tayorgarlikni oshirishda xizmat  qiladi, huquqshunoslikning boshqa darslarini chukur o’zlashtirishga imkon yaratadi.

«Umuman,- deb ta'kidlaydi I.Karimov- men fanni ilgor taraqqiyot, progress degan so’zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning o’unalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo’lishini ko’rsatib berishdan iborat deb tushunaman. Odamlarga mustaqilllikning afzalligini, mustaqil bo’lmagan millatning kelajagi yo’qligini, bu tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berishi kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olga siljituvchi kuch, vosita bo’lmogi lozim.»

Xozirgi davlat va huquq tarixini bilish uchun ularning qanday kelib chhqanligini, o’z rivojlanishida qanday bosqichlarni bosib o’tganligini, ularning paydo bo’lishiga, tashqil topganiga, rivojlanishiga, shakli va mazmunini o’zgarishiga qanday sabablar ta'sir ko’rsatganligini bilish juda muxim.

Ushbu fannning asosiy vazifasi- xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va aloxida mamlakatlardagi  xususiyatlarini ochishdan iborat. Bu fan davlatchilik tarixiga eng ko’p ta'sir etgan mamlakatlarning davlati va huquqining kelib chiqishi, rivojlanishi amal qilishini tekshiradi, ma'lum vaktda va muxitda rivojlanadigan davlat xukkiy jarayonlarining mazmunini taxlil qiladi. Ularni o’ziga xos sabab - oqibat aloqalarini tekshiradi va muayyan tarixiy qonuniyatlarni ochib beradi.

## 2.Davlat va huquq tarixi fanini o’organish uslublari.

Davlat va huquq tarixi yuqoridagi muommolari tekshirish bilan tuxtab qolmaydi, u muxim muammolar qatorida inson va fukorolar huquqlari, xokimyatlar taksimlanishi, parlamentlarizm, xususiy va ommaviy huquqning asosiy institutlarini kelib chiqishi va rivojlanishini o’rganadi. U  utmishda erishilgan yutuklardan urnak olishga imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, yo’l qo’yilgan xatto va kamchiliklarni takrorlamaslikka urgatadi.

Shuningdek uning metodologik asoslariga kelganimizda, xozirgi vaktda tarixga nisbatan monistik-materialistik qarashlardan voz kechish, metodologik ko’p xillik (plyuralizm) tobora keng yoyilmokda. Bu fan o’rganadigan ob'ektning o’ziga xosligidan

kelib chiqib, uning asosiy metodlari konkret-tarixiy , kiyosiy-huquqiy va tizimli o'organish uslublaridan iboratdir. Shu bilan birga mazkur fanning xususiy ilmiy va maxsus uslublari xam mavjud.

Huquqning tarixiy rivojlanishini anglamasdan sezilarli darajada tarixiy sharoit va utmish huquqining ta'siri bo'lgan xozirgi zamon pozitiv huquqini tadkik etish mumkin emas. Har qanday tarix kabi huquq tarixida xam xususiylik mavjuddir, uning o'ziga xos belgisi xam shundadir. Bo'sh uni anglatadiki, huquq tarixi vakt va makon doirasida, boshqalardan ajratilgan holda, konkret xususiy vokealarni tadkik etadi xamda uni konkret holatlarda tushuntirishga harakat qiladi. Bunday holda turli-tuman uslublardan foydalaniladi va huquq tarixida kachon, qanday holatda insonlar katnashayotgan vokealar xakida so'z borishiga karab, barcha real, xakikiy usullardan, eng oldin sotsiologik metoddan foydalaniladi. Sotsologiya tarixdan farqli ularok, umulashtiriuvchi fan bo'lishga harakat qilib, bir turli vokealarni o'organish asosida, aloxida olingan vokealarni tushuntirib berish mumkin bo'lgan, umumsotsiologik tushuntirish orqali, sotsial tarix doirasida olingan natijalardan keng foydalaniladi.

Huquq tarixi, bitta milliy huquq tarixi xamda uning bo'limlaridan tortib, ko'plab xalqlarning huquq tarixi, huquqning umumiy tarixidan xam iborat bo'lib tor yoki keng harakterli xam bo'lishi mumkin.

Ushbu fan o'z predmetini o'organishda, davlat va huquq masalalariga ularni doimo taraqqiyotda, rivojlanishda va o'zaro aloqadorlikda olib dialektik uslubda yondoshadi.

O'zaro aloqadorligi muxim axamiyatga ega bo'lgan bir necha milliy huquqiy tizimlarni tushuntirishga yordam beradi.

Tarixiy - huquqiy uslub kompleks metod xisoblanib, uning elementlari o'z predmetini-utmish huquqini tadkik etish tufayligina birlashadi. U talasincha olganda, barcha huquqiy metodlar real va ideal metodlar yig'indisidan tashqil topadi. Xudi ko'rsatilganidek, bu metodlar o'zining moxiyatiga ko'ra, garchi ular utmishning huquqiy tizimlarini o'organish uchun qo'llanilsada, o'zgarmasdan qoladi, chunki ko'rsatilgan huquqiy tizimlar bilan xozirgi huquq orasida xech qanday , ayirma tub o'zgarish yo'qdir. Xatto, huquqdagi o'zgarishlar tadkik etilayotgan vaktda xam tarixiy-huquqiy metod

qandaydir yangi predmetga duch kelmaydi. Chunki, davrdagi pozitiv huquqning mazmunini tushuntirish eng avval shundan iboratki, tarixiy nuqtai nazardan yangi huquqiy tizimlar yaratish natijasida vujudga kelgan o’zgarishlarni tushuntirishdan iboratdir.

Muvakkat farqlar tufayli vujudga keladigan yagona o’ziga xos xususiyat tarixiy-huquqiy metodni kullayotgan tadkikotchi, zaruriy faktlarni yigish vaktida katta kiyinchiliklarga duch keladi. Bunday kiyinchiliklar agarda u o’zok utmishga oid huquqiy tizimlarni tadkik etayotgan bo’lsa, yanada kuchayadi. Chunki faktlar tobora yuqola baradi, ularni bilish kiyinchilik bilan6 boradi. Shunday bo’lishi xam mumkinki, huquq tarixchisi bo’lgan tadkikotchi faktlarni tadkik etishda ko’tilganga nisbatan xam ma'lumotlarga kam ega bo’lib qoladi. Shuning uchun xam tarixiy – xkukiy tadkikotlar o’tkazish ancha murakkabdir.

Shunday qilib, davlati va huquqi tarixi fani barcha ijtimoiy xodisalarga davlat va huquq to’g’risidagi ta'limot nuqtai nazaridan yondashadi.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida vujudga keladigan har qanday fan o’z predmeti bilan birga tadkikot usullariga xam ega. Davlat va huquqning murakkab, xilma-xil, rang-barang xodisalarning xakikiy mazmunini, moxiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini bilishning aniq usullari mavjud bo’lib, ular ilmiy tadkikot va izlanishning yunalishini ifodalaydi. Bu erda birinchi navbatda muayyan tarixiy, huquqiy xodisalarni, keng ma'noda tarixiy – huquqiy fannning poydevori xisoblangan, tarixiy faktlarni bilish vositalari, uslublari kurib chhiladi.

Davlat va huquq tarixi quyidagi usullar orqali olib boriladi:

Dialektik usul bo’lib, u davlat va huquq rivojlanadi, o’zgaradi, birinchi shaklidan ikkinchi shaklga o’tadi, deb qaraydi. Davlat va huquqni o’organish, bilish, tadqh qilishning, dialektik usuli- bu ilmiy bilishlar dunyosiga kirishning, davlat va huquqning bilishning asosiy kalitidir.

Analiz (taxlil qilish) da o’organiladigan narsa va xodisa fikr mayda bo’laklarga, ya'ni elementlarga bo’linadi va ular o’rtasidagi boglanishlar o’zaro munosabat ta'sir o’rganiladi. M: turli mamlakatlarda yoki bir gurux mamlakatlarda Sharq yoki antik dunyoda davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi xilma-xil xususiyat va

sifatlarga ega va ularning tarixini aloxida kurib chhilib analiz qilinadi. Lekin bu usulning o’zi bilan davlat va huquq tarixini xususiyatlarini To’la bilish mumkin emas. Shuning uchun sintez usuli Bilan tuldiriladi.

Sintez analiz natijalariga suyanib, davlat va huquqning butun sifatini bir gurux mamlakatlardagi umumiy xususiyatlarini va aloxida mamlakatlardagio’ziga xos xususiyatini o’rganadi. Sintez analiz natijasida fikran bo’lingan elementlarni kaytadan tiklash, ularni birlashtirish ilgarigi yaxlitlikka fikran vujudga keltirish usulidir.

Analogiya (moslik, alkanlik, uxshashlik) usulida davlat va huquq rivojlanishining turli mamlakatlardagi biror xususiyatlarining uxshashligini o’rganamiz.

Tarixiylik usuli davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanib borishi aniq vaktini, davrini bilish usulidir. Tarixiylik usulining o’ziga xos xususiyati tarixiy harakatni o’zining butun boyligi Bilan paykab olishga intilishidir.

Mantiqiy bilish usuli davlat va huquqning tarixan ob'ektiv real mavjudligini, ularning o’zaro aloqalarining butun rang-barangligini aks ettirish vazifasini bajaradi. Mantiqiy tafakkur uslubida kur kurona harakat bo’lmaydi, balki bilimlarni umumlashtiradi, ayniqsa, tarixiylikni tasodifiy chetlashishlardan saqlaydi.

## 3.Davlat va huquq tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo’lib o’organish

Mazkur kurs, barcha o’kuv kurslari singari o’zining ma'lum bir tizimiga ega bo’lsada, ammo bu buyicha yagona fikr yo’q. Shuningdek, davlat va huquqning tiplari borasida xam yagona, ko’pchilik tomonidan tan olingan fikr va u asosida berilgan ta'rif yo’q. Davlatning tarixiy va nazariy tipologiyasining quyidagi turlari xozirda keng yoyilgan bo’lib bo’lar quyidagilar:

1.Ijtimoiy – iqtisodiy formatsiya tiplari bo’yicha turlari:

Quldorlik, feodal, kapitalistik, sotsialistik davlatlar va huquq.

2.Tsivilizatsiya tiplari buyicha: kadimgi Sharq, kadimgi Afina davlati, kadimgi Rim davlati, o’rta asr davlati, xozirgi zamon davlati va huquqi.

3.Industrlashgan jamiyat Industrlashgan jamiyatgacha bo’lgan davlat, industrlashgan jamiyat davlati, Yangi (post) industrlashgan jamiyat davlati va huquqi.

Bo’lardan tashkari, yangicha tipologik turlari tavsiya etilib, ekspluatator tipidagi davlat va huquq, sotsial davlat va huquq tiplari mavjudligi  keltirilmokda.

Xozirgi vaktda, davlatlar tipologiyasiga sivilzatsiyaviy yondashuv tobora kata rol' uynamokda. «Sivilizatsya» tushunchasi yordamida tarixni o’organish asoslari ingliz tarixchisi A.J.Toynbi (1889-1975) tomonidan 1934-1961 yillarda Chop etilgan un ikki jildlik «tarixni anglash» nomli asarida ishlab chhilgan. U sivilizatsiya, geografiya, milliy, diniy va boshqa  belgilarning umumiyligi Bilan farq qiluvchi jamiyatning tor va maxalliy holati deb bilib shularga bog’liq ravishda 21 sivilizatsyani ajratadi. Bo’lar  Misr, Xitoy, Garbiy, O’zok Sharq provoslav, slavyan, arab, Amerikaning tub xalqlari (maya, inklar, atseteklar) sivilizatslari va boshqalaryu

Taynbi, shu asosda davlatni tipologiyalashtirmasdan jamiyatning o’ziga xos tipologiyasini amalga oshiradi. Umuman olganda, olimlar tomonidan sivilizatsiyalarning 15-20 tadan 30 tagacha turi farqlanadi. Shu Bilan birga davlat va huquq tarixi darsliklarida davlat va huquq tiplariga bo’linmasdan, tarixiy davrlarga bo’linib o’rganilmokda. Biz anna shunday o’organishni davr talabiga javob beradi deb xisoblaymiz. Shuning uchun mazkur darsligimiz davlat va huquq tiplariga bo’linmasdan: 1. kadimgi Dune davlati va huquqi tarixi xamda 2. O’rta asrlar davlati va huquqi tarixiy davrlariga bo’lingan.

Ushbu ukuv kursida ukuv materiallari xronologik ketma-ketlikda berilib, davlat va huquq masalalariga beriladigan ta'rif quyidagi tizim buyicha amalga oshiriladi:

O’rganilayotgan davlatning ijtimoiy tuzumi, ya'ni uning sotsial anatomiyasi.

Uning davlat tuzumi- davlatning tipii, boshqarish shakli, uning tarkibiy tuzilishi idoralari (mexanizmi), armiya xamda sud tuzilishi.

Xuku manbalari va uning asosiy belgilari.

Xuku tarmoklari asosiy institutlari va har bir mamlakat huquq tizimidagi o’ziga xos  tomonlar ochib beriladi. Bundan  ko’rinib turibdiki, dinastiyalar, ko’zgolonlar, ilmu- fan, madaniyat, me'morchilik va xokazolar ta'rifi uning mavzuiga kirmaydi.Bu holl mazkur fanni o’ziga xos, maxsus  huquqshunoslik Fani ekanligini Yana bir bor ta'kidlaydi. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi fani bir qancha huquqiy fanlar bilan yakindan aloqadordir, chunki ularning xam o’rganiladigan mavzui davlat va

huquqdir.Bunga birinchi urinda davlat va huquqning umumiy nazariyasini keltirishimiz mumkin.Lekin chet mamlakatlar davlati va huquq tarixi o’zining bosh vazifasi- davlat vahuquqni kelib chiqishi va rivojlanishini konkret tarixiy davrda o’organishni bajarmasdan, umumiy va xususiy qonuniyatlarni ochish bilan shugullanganda edi, u davlat vahuquq nazariyasiga kushilib ketgan bo’lar edi.Davlat va huquq tarixini, davlat vahuquq nazariyasidan farqlaydigan asosiy belgisi, mavzuni o’organishda mantiqiy usul bilan dealektik birlikda bo’lgan tarixiy o’organish usulidir.Faqat ikala usulning birligi davlat va huquq tarixiga, tarixiy jarayonning imkoniyatlarini chukur ochishga imkoniyat beradi. Bu ikala fan bir- birining xulosalari, yutuklari asosida rivojlanib boradi.Bundan tashkari,boshqa tarixiy huquqiy fanlar O’zbekiston davlati va huquqi tarixi, siyosiy vahuquqiy ta'limotlar tarixi bilan xam mustaxkam aloqadir. Davlat va huquq tarixi fanlarining shu urinda tarix,arxeologiya, tarixiy manbashunoslik, semantiqa kabi (tillarning kelib chiqishi xakidagi fan) fanlar bilan bo’lgan aloqasini  xam ko’rsatib utmok lozim. Davlat va huquq tarixi  manna shu fanlar buyicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar, arxeologik tadkikotlar natijasida Yangi materiallarga ega bo’ladi, ularni tarixiy-huquqiy taxlil qiladi. Masalan agarda frantso’z olimi M.Shompalyon Misr mix xatlarini ukish usulini topmaganda yoki Jenul'yak ekspeditsiyasi podsho Xamurabbi qonunlarini ochmaganda, biz Misr va Bobil  davlatlari qonunchiligi buyicha juda kam ma'lumotga ega bo’lar edik. Kadimgi va Bobil boshqa davlatlarning qonunlarini birinchi marta yirik tarixchi olimlar V.A.Avdeev., M.I.D'yakonov, V.V.Struvelar rus tiliga tarjima qilganlar.

Ushbu fan va ukuv kursining vujudga kelishi va nisbatan davlat va huquq tarixi fani yosh bo’lib. U Garbiy Evropada HVIII asrlarda vujudga kelgan. U xukuning umumiy tarixi, huquq va huquqiy institutlari tarixi, huquq tarixi, huquqiy tizimlar panormasi kabi nomlar bilan atalgan. Rassiyada 1804 yilda birinchi marta MDU professori P.Tsvetaev «Kadimda va xozirda tanilgan xalqlarning huquq» nomli tarixini ukitgan. 1907-1908 yillarda professor V.G.Sheglov huquqning umumiy tarixi buyicha birinchi darsliklarni nashr ettiorgan.

Ushbu ukuv kursining rivojlanishi turt davrga bo’lish mumkin.

Birinchi davr 1917-1936 yillarna o’z ichiga oladi. Bu yillarda chet mamlakatlar davlati va huquq tarixi maxsus ukuv kursi sifatida huquqiy ta'lim tizimidan urin olmagan bo’lsada, taniqli huquqshunos olimlar P.I.Stuchka, B.B.Pashukanis, S.V.Yushkov va boshqalar bu fanning fundamental muammolari buyicha asarlar yaratdilar.

Ikkinchi davri  1937-1959 yillarni tashqil qiladi. Bu yillarda xukumatning oliy xamda o’rta ta'lim tizimini takomillashtirish xakidagi tadbirlari  ishlab chhilib, huquqiy – tarixiy fanlarni yanada rivojlantirishni ragbatlantiradi. Tarix darsliklari xakidagi 1936 yil 26 yanvardagi xamda oliy ukuv yurtlari ustidan raxbarlik va oliy ukuv yurtlarning ishlari xakidagi 1936 yil 23 iyundagi karorlari chiqdi. Bu xujjatlar oliy ukuv yurtlari, ukitish tizimidagi chet mamlakatlar davlat va huquq tarixi kursini  mustaqil mavzu, dars sifatida joriy etishga asos soldi. Respublikamiz oliy yuridik ukuv yurtlarida xam anna shu yillardan boshlab maxsus kurs sifatida ukitila boshlanadi.

Uning mavzui tushunchasini birinchi bo’lib. MDU professori Galanza P.N. aniqlashtirdi va uning birinchi ukuv qo’llanmasini yozdi.

Keyinchalik I.S.Perterskiy. N.I.Plevako va boshqalar tomonidan kursning turli bo’limlari buyicha dastlabki ukuv qo’llanmalari yoziladi. Uchunchi davrni  1960-1961 yillari tashqil qiladi. Bu davrda davlat va huquq  tarixi buyicha ko’plab nomzodlik va doktorlik ilmiy ishlari ximoya qilinadi. Davlat va huquqning umumiy tarixini o’organish ancha rivojlanib monografiya va risolalar, maqolalar nashr qilinda xamda P.N.Galanza Z.M.Chernilovskiy K.G.Fedorov  N.A.Seleznyov kabi olimlar tomonidan darslik va ukuv qo’llanmalari yozildi. Xozirda Ushbu fan va ukuv kursi o’z taraqqiyotining turtinchi davrini boshdan kechirmokda, Yangi Yangi darslik va ukuv qo’llanmalari yaratilmokda. Ular orasida ayniqsa shu soxaning olimi  V.G.Grafskyning darsligi Ushbu fan va ukuv kursi buyoicha aytilgan eng Yangi So’z bo’lsa ajab emas. Unda davlat va huquq tarixi buyicha juda ko’p Yangi goya va fkrlar keltirilgan. Darslikining tuzilishi xam o’ziga  xos, ya'ni kadimgi davr huquqi, milliy davlat huquqi (Kodifikatsiyalangan huquq) xamda xozirgi zamon huquqi bo’limlaridan kelib chiqib belgilangan. Unda avvalda qo’llannilgan sinfiy moxiyatga ega bo’lgan atamalar davlat va huquqning tipologiyasi ijtimoiy iqtisodiy formatsiyalardan voz kechilgan.

3. Davlat va huquq tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo’lib (sistemaga solib) o’organish.

Ukuv kursi materiali xronologik izchilikda joylashtirilgan mazkur ukuv kursi ilgarigi ukuv kurslardan farq qilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo’linishiga asoslangan markscha –lenincha nazariyaga tayanmaydi. Unda aloxida mamlakatlarda ayniqsa, Sharqda kadimgi va o’rta asrlar jamiyatining rivojlanishi aloxida yo’llar Bilan borganligi, u erdagi kulchilik munosabatlarining antik kulchilikdan farq qilishi, garbdagi feodal jamiyatlar o’ziga xos yo’llari Bilan rivojlanganligi xisobga olinadi.

Ukuv kursida kuldorlik, feodal, burjia tuzumlari degan tushunchalaridan faqat sof metodek maksadlaridagina, ya'ni kadimgi davr davlati va huquqini davrlarga bo’lish zaruriyati nuqtai- nazaridan shartli ravishda foydalanilgan.

Umuman davlat va huquq tarixini davrlarga bo’lishda davlatlarning madaniyatiga erishganligi tarixiy-siyosiy, mafko’raviy va muxim omillari xisobga olingan.

Mazkur ukuv kursida u yoki bu xalqlarning dini, mafko’rasi, noyob tomonlarining kadimgi davr davlati va huquqi rivojlanishi uchun ta'siriga kata e'tibor berilgan.

Ukuv kursida davlat va huquq masalalariga beriladigan tavsif quyidagi tizimga asosan bayon qilinadi:

1) O’rganilayotgan davlat tashqil topishi (kelib chiqishi, paydo bo’lishi, urnatilishi, e'lon qilinishi)

2) Uning ijtimoiy tuzumi, sotsial anatomiyasi

3) Uning davlat tuzumi- davlatning tipii, boshqarish shakli, tuzilishi, mexanizmi, armiyasi, politsiyasi, sud tuzulishi xamda maxalliy xokimiyat va boshqaruv organlari.

4) Huquqning asosiy belgilari- huquq manbalari soxalari va institutlari.

Takrorlash uchun savollar:

1.Davlat huquq tarixi fanining predmeti nimah

2.Davlat va huquq tarixini o’organishning axamiyati .

3.Fannning asosiy vazifasi nimadan iborath

4.Fanni tadkik etish qaysi uslublardan foydalaniladih

5.Fanning ijtimoiy fanlar tizimida to’tgan o’rnih

6.Fanning  va ukuv kursining vujudga kelishi va rivojlanishini qaysi davrlarga bo’lib o’rganamizh

7.Davlat va huquq tarixini qanday tarkibiy qismlarga bo’lib o’rganamizh

Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va xuquq.

**Darsning maqsad:** Qadimgi Sharq mamalakatlarida davlat va xuquqning paydo bo'lishi, rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ularning ijtimoiy, siyosiy davlat, xuquq tizimining o'xshashliklari va farqlarini tushintirish.

**Tayanch tushunchalar:** Urug'doshlik tuzumi va uning emirilish sabablari, patriarxal qulchilik, davlat tuzimi, ijtimoiy tuzum, xuquq tuzimi, ordaliya, tailoniya, meret, kasta, kshatriy,vayshiy,shudra, sepat, nom, jati,avilium, mushkenu, dharmashastra, artxashastra .

**Dars uslubi:** Munozara, Insert-tushunishni ko'zatish oqzaki bayon etish, klaster.

**Darsning ko'rgazmasi:** Qadimgi Sharq mamlakatlari ijtimoiy, davlat va xuquq tizimini aks ettiorgan chizma.

Reja:

1.Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va xuquqning vujudga kelishi.
2.Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlatning ijtimoiy, davlat, va xuquq tizimi.
3.Qadimgi Sharq mamlakatlari xuquqining asosiy belgilari.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Muqimov Z.M. Muxammedov X. Chet mamlakatlar davlati va xuquqi tarixi. T.1. T."Yangi asr avlodi" 2001 yil, 6-9 betlar.
2. Muxammedov X. Xorijiy mamlakatlar davlati va xuquqi tarixi. T.1. 1999 y 11-18 betlar
3. Samatov X.S., Axmatjonov U.M. Chet mamlakatlar davlati va xuquqi tarixi. O'quv qo'llanma. T., 1970 17-18 betlar.

## 1.Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va xuquqning vujudga kelishi.

Qadimgi zamonda yunon rimliklar dunyosidan sharqda va janubiy-sharqda joylashgan mamlakatlarning jamini qadimgi Sharq deb ataladi.

Bu taxminiy va shartli iboradir. Sharq bilan antik dunyo o'rtasidagi chegara doimiy chegara bo'lmagan. Ularga qarashli xududlar turli vaqtlarda qisman galma-gal bir-biriga o'tib to'rgan, shu sababli ularning geografik chegaralanishi har bir davr uchun turlicha ko'rsatishga to'qri keladi.

Butun dunyo tarixida Sharqda to'tgan o'rniga etarli baxo bermaslik aslo mumkin emas. Kishilik jamiyati rivojlanishida eng muxim ijtimoiy va siyosiy institutlar, davlat xuquq, din ilk bor aynan Sharqda vujudga kelgan. Eng qadimgi yozuv tizimlari xam dastlab Sharqda paydo bo'lgan. Sharqda xuquqiy mulkchilik xukmronlik qilgan larbdan farqli o'laroq avvalo xususiy mulkchilik munosabatlari, bozorga asoslangan xususiy tovar ishlab chiqarish munosabatlari muxim o'rin egallaydi.

Sharqdagi asosiy mamalakatlar daryo oralhi Misr, Xindiston, Xitoy,-xuquqning asosiy qismidagi (Dotla, Flot, Nil, Xind, Gang, Xuanxe vodiylarida va faqat o'zoq

chekkadagina toq tizmalari va yassi toqliklar tashqil qilgan mamlakatlarda davlatga o’tish ro’y beorgan. Bu erda tabiiy sharoitlar ijtimoiy – iqtisodiy siljishlarni xam oqibat natijasida siyosiy tashqilotlar va madaniyatgi xam belgilab beradigan ishlab chiqarish kuchlar taraqqiyotining - umumiy borishini tezlashtirishga imkon beorgan. Sharqda erning unumdorligi va uni suqorish imkoniyatlari, ekib o’stirishga yaroqli o’simliklar borligi va xonaqilashtirish mumkin bo’lgan xayvonlarning mavjudligi qoyat katta axamiyatga ega bo’lgan. Ana shular natijasida Evropa Sharqdan ancha orqada qolgan, ammo keyinchalik Yunoniston – Rim dunyosining rivojlanishining notekisligi sababli va qisman qadimgi Sharq xalqlarining yutuqlaridan foydalanib, juda ilgarilab ketgan.

